

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

O‘. E. Xo‘janazarov, Sh. Yakubjonova

EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2018

UO‘K: 574(075.8)
KBK: 28.080yA72
X 88

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish / o‘quv qo‘llanma:
O‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjonova.: «Barkamol fayz
media»nashriyoti, 2018-yil – 208 bet.

Ushbu qo‘llanmada “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” faniga taalluqli bo‘lgan ma’ruza mashg‘ulotlari yoritilgan bo‘lib, bakalavriatning barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, mazkur qo‘llanma 14 ta mavzuni o‘zida jamlagan bo‘lib, unda ekologiya fanining maqsad va vazifalari, tarixi, ekologik usullar, ekologik omillar, organizmlarning suv va tuproq muhitiga moslashishlari, atrof-muhitning ifloslanish darajalari, o‘simlik va hayvon turlari sonining qisqarish sabablari, “Qizil kitob” va ekologik ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan mavzular aks ettirilgan.

UO‘K: 574(075.8)
KBK: 28.080yA72

ISBN: 978-9943-5519-6-1

© O‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjonova, 2018
© «Barkamol fayz media»nashriyoti, 2018

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta’kidlashicha, “ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammolarni hal etishga bog‘liqdir”. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarning oldini olish, ekologik talablarga doimo rioya qilish, mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy masalasi bo‘lib qolmay, balki ekologik siyosatining asosiga aylanishi lozim. Chunki, ushbu muammolar mustaqil davlatimiz ravnaqi bilan bevosita bog‘langan. I.A.Karimovning 2010-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti”da so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistondagi ekologik muammolarga alohida e’tibor qaratildi, “mintaqaviy muammolar majmuiga e’tibor qaratilar ekan, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit masalalarini chetlab o‘tish mumkin emas... Orol muammosi Markaziy Osiyo hududi doirasidan chiqib ketdi va jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Uning salbiy oqibatlarini bugungi kunda iqlim sharoiti, biologik muvozanatni o‘zgarishida, aholi salomatligi va bo‘lg‘usi avlod genofondiga ta’sirida ko‘rish mumkin. Orol dengizining falokati Yevropa uchun, sayyoramizning boshqa hududlari uchun qanday xatarli va kutilmagan oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligiga kimnidir ishontirish yoki buni isbotlab berish hojati yo‘q deb o‘ylayman” degan fikrlari ekologik muammolarni birgalikda hal etishni taqozo qiladi.

Ma’lumki, 1992-yil 9-dekabrda Respublikamizda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda qanday mutaxassis tayyorlashdan qat’iynazar, barcha o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida ekologik ta’limning majburiyligi belgilab qo‘yildi. Chunki, ekologik ta’lim va tarbiya yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda, insonning biosferaga bo‘lgan yangicha munosabatlarni shakllanishiga muhim o‘rin tutadi. Ekologik ta’lim va tarbiya ekologik madaniyatli, o‘z Vataniga va eliga xizmat qiladigan yetuk, komil va barkamol insonni voyaga yetkazishga katta ko‘mak

beradi.

Ushbu qo'llanma "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanining o'quv fan dasturi asosida yozilib, umimiy ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bo'limidagi mavzularni qamrab olgan. Qo'llanmadagi mavzularda ekologiya fani botanika, geografiya, zoologiya, odam anatomiyasi, tibbiyot fanlari bilan bog'liqlikda yoritilgan.

Har bir ma'ruza mashg'uloti nazorat savollaridan tarkib topgan. Talabalarning mashg'ulotlarni o'zlashtirish, bilim olishlari, ekologik dunyoqarashlarini kengayishlari uchun xorijiy adabiyot manbalaridan ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu qo'llanma talabalarning Vatanni sevishga, jonajon tabiatini muhofaza qilishga bo'lgan dunyoqarashini kengaytirishiga katta yordam beradi.

1-MAVZU: KIRISH. EKOLOGIYA KURSI, MAQSADI, VAZIFASI, TUZILMASI VA TARIXI

Reja:

1. Ekologiyaning maqsadi, o'rganish usullari
2. Ekologiya fanining vazifalari
3. Ekologiya fanining bo'limlari
4. Ekologiyaning tarixi

Tayanch so'zlar: Ekologiya, autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya, biosfera, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik muammolar, modellashtirish, biologik resurs, atrof-muhit.

Ekologiya biologiya fanlari qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo'lib, 1866-yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. Ekologiya – yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi.

Umumiy ekologiya to'rt bo'limga bo'lib o'rganiladi: autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

1. Autekologiya ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, turlarning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.

2. Populyatsiyalar ekologiyasi populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasi, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarishi (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. Sinekologiya biogeotsenozning tuzilishi va xossalarini, ayrim o'simlik va hayvon turlarining o'zaro aloqasini hamda ularning tashqi muhit bilan munosabatini o'rganadi.

4. Ekotizimlarni tadqiq qilishning rivojlanishi biosfera haqidagi ta'limotni vujudga keltiradi. Ushbu ta'limotning asoschisi V.I.Vernadskiy hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya'ni Yer qobig'idagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi.

Bugungi kunga kelib, ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazmuni kengayib bormoqda. Atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi o'ta kengayib ketdi. Fanga "inson ekologiya"si degan atama ham kirib keldi. Insonni tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi.

Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921-yil amerikalik olimlar Borjes va Parklar tomonidan kiritildi. Dastlab inson ekologiyasiga tibbiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me'moriy, iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonni atrof-muhitga va aksincha, muhitning insonga ta'sirini o'rganadi.

Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keldi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzil ta'rif bergan.

Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning predmeti inson bilan uning atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarini o'rganishdan iborat.

Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tibbiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan obyekt yoki tizimni atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Bir hujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug'lar, o'simlik, hayvonlar va ularning hamjamoalari, biosfera, shuningdek inson ham ekologiya fanining obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog'lanishini ifoda etar ekan, u shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

EKOLOGIYADA FOYDALANILADIGAN USLUBLAR

Ekologik ilmiy-tadqiqotlarda ko'pincha tasviriy, taqqoslash, tajriba hamda ekotizimlarni modellashtirish uslublaridan foydalaniladi. ekologiyada tajriba va modellashtirish uslublaridan nisbatan keng foydalaniladi.

Tajriba – tadqiqotchi tomonidan yaratilgan sharoitda borayotgan ma'lum tabiiy jarayonni kuzatishdir. Tajribada ma'lum obyektga (individd, populatsiya, biogeotsenoz) ta'sir etayotgan omil kuchining

ortishi yoki kamayishi namuna bilan taqqoslanadi. Tajriba natijalari haqida ko'rsatkichlarni o'zgarishiga qarab xulosa qilinadi. Buning uchun, albatta, namuna bilan taqqoslash zarur. Tajriba hech vaqt taqqoslashsiz olib borilmaydi. Ilmiy tadqiqot ishlari laboratoriya va dala sharoitlarida olib boriladi.

Modellashtirish jarayoni umumlashtirish uchun ancha qulay imkon beradi, shuningdek hodisaning ba'zi tomonlarini aniq ma'lumot bilan to'ldirish yoki yangi nazariy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Model "ishlamay qolsa", ya'ni haqiqatga uncha to'g'ri kelmasa, EHM tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi va yaxshilash zarurligini aytib beradi.¹

EKOLOGIYA FANINING VAZIFALARI

Ekologlarning kelajakdagi amaliy vazifalari inson ehtiyojini yanada to'laroq qondirishga qaratilgan holda antropogen betsenozlarni qayta ko'rib chiqish va barqarorligini oshirishga qaratilishi kerak. "Inson va biosfera" deb atalgan yirik xalqaro dasturda keyingi yillarda ekologiya sohasida hamda insonni o'rab turgan atrof-muhitni tadqiq qilishning aniq ilmiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan:

1. Hayot jarayoni qonuniyatlarini o'rganish, shuningdek insonning tabiiy tizimlarga va biosferaga bo'lgan ta'sirini bir butun holda o'rganish;

2. Biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish; 3. Inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiatdagi o'zgarishlarni oldindan bilib olish va biosferada kuzatilayotgan jarayonlarni boshqarish; 4. Nihoyat insonning yashash muhitini saqlash.

ANTIKA VA XVII – XIX ASRLARDAGI EKOLOGIK TADQIQOTLAR

Hozirgi davrdagi bilimlarimizning shakllanishida qadimgi yunon olimlarining xizmati katta. Masalan, Aristotel (e.av. 384–322 y.y.)

¹ Begon and others. Ecology. UK. 2006. P. 10-12.

o‘zining “Hayvonlar tarixi” nomli asarida suvda va quruklikda yashovchi hayvonlar, shuningdek suzuvchi, havoda uchuvchi va o‘rmalovchi kabi hayotiy shakllarni ajratgan. Ulardan tashqari, organizmlarning yashash joylari, yolg‘iz yoki gala bo‘lib yashash, oziqlanishi va boshqalar qiziqtirgan. Tirik organizmlarning tuzilishi va hayoti Aristotelning shogirdi Teofrast (e. av. 380–271 y.y.) ishlarida ham uchraydi. Teofrast o‘simliklarning yashash joylarini hisobga olib, ularni o‘t, chala buta, buta va daraxt kabi hayotiy shakllarga bo‘ladi.

XVII–XVIII asrlardagi ekologik ma’lumotlar tirik organizmlarning ayrim guruhlarini o‘rganishga qaratilgan edi. J.Byuffon ishlarida hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta’siri, J.B.Lamark o‘simlik va hayvonlarning evolyutsion o‘zgarishlarida eng muhimi tashqi muhit ta’siri ekanligi, ekologik g‘oyalarning rivojlanishida Ch.Darvinning organik olam evolyutsiyasi haqidagi ta’limoti ilgari surilgan. Nemis biologi Ernest Gekkel 1866-yilda fanga “ekologiya” tushunchasini birinchi bo‘lib kiritdi va unga ta’rif berdi. Ekologiya mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida vujudga keldi. Uning rivojlanishiga G.F.Morozov, V.N.Sukachev, V.G.Ramenskiy, K.Raunkier, Ch.Elton, M.S.Gilyarov, N.S.Serebryakov, A.Tensli, G.Odum, Y.Odum va boshqalar katta hissa qo‘shdi. Yirik rus olimi V.I.Vernadskiy biosfera haqidagi ta’limotni yaratdi va biosferaning holati inson faoliyati bilan bog‘liqligi haqidagi xulosaga keldi.

O‘RTA OSIYO ALLOMALARINING EKOLOGIYA HAQIDAGI QARASHLARI

O‘rta Osiyolik allomalar al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrlarda tabiat va undagi muvozanat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Muhammad Muso al-Xorazmiy “Bilginki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi” deb ta’kidlagan edi. Buyuk alloma suvlarni ortiqcha sarflash hozirgi kundagi Orol fojiasi kabi noxush hodisalarni keltirib chiqarishini nazarda tutgan bo‘lsa, ehtimoldan

holi emas. Abu Nasr Forobiy odam a'zolarining tuzilishi va unda kelib chiqadigan o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kasallikning oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, tabiiy, sun'iy tanlanishlar haqida ma'lumotlar qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi, tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi va xo'jalik ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Abu Ali ibn Sino inson sog'lig'ini saqlash, parhez, gigiena to'g'risida, kasalliklarni, jumladan, asab kasalliklarini davolashda jismoniy usullar yaxshi natija berishini aytgan. U kishi organizmiga tashqi muhit ta'siri muhimligini, ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikrlar bayon etgan.

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI

Ekologik yo'nalishdagi ishlar keyinchalik O'zFA Botanika instituti olimlari V. A. Burigin, O. X. Hasanov va boshqalar tomonidan o'simliklarni qurg'oqchil issiq (cho'l) sharoitiga moslashishi, o'simliklar hamjamoasining tuzilmasi, mahsuldorligi, em-xashakbop o'simliklarning orasidan qurg'oqchil issiq sharoitga chidamli turlarini tanlash va ularning ekologik-biologik xususiyatlarni o'rganib, sun'iy yaylovlar barpo etishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. O'zFA Zoologiya va parazitologiya institutida hayvonot olamini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tadbirlari, qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydigan yuqumli kasalliklarning oldini olish, qimmatli hayvon turlarining kadastri va nazorat ishlari olib borildi.

Ushbu ilmiy ishlarga T. Z. Zohidov, A. M. Muxammadiyev, V. V. Yaxontov, M. A. Sultonov, G. O. Olimjonov va boshqalar rahbarlik qildi. XX asrning ikkinchi yarmida hozirgi davr fanlarini "ekologlashtirish" boshlandi. Bu esa ekologik bilimlarning katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Demakki, hozirgi davrda ekologiya fanining kelajagi porloq, chunki insoniyatning sayyoramizda yashab qolishi, ko'p jihatdan ushbu fanning rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lib qoladi.

Ekologiya fani sohalari va ekologik bilim olishni belgilovchi fazilatlar 1–2-sxemalardada aks ettirilgan (1–2-sxemalar).

ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI ASOSIY VAZIFALAR

O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasida birinchi navbatdagi vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Jamiyatning ta'lim olish va intellektual potentsialini o'sishini ta'minlovchi sharoit yaratish;

2. Atrof-muhit holatini yaxshilash uchun hamda global ekologik muammolarni hal etishga yetarli mablag' ajratish kerak;

3. Genetik fond, turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash;

4. Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish;

5. Maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;

6. Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo'yicha nazorat tizimini takomillashtirish va rivojlantirish;

7. Xususiyashtirish jarayonlarida ekologik talablarga rioya qilish va atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun javobgarlik kabilarni nazorat qilish mexanizmini yaratish;

8. Ekologik xavfsiz mahsulotlar va texnologik jarayonlar sohasida ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish;

9. Ekologik axborotlar va atrof-muhit monitoringi bo'yicha bank tizimini yaratish;

10. Tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha faoliyatini yorituvchi markazlashgan axborot tizimini yaratish;

11. Ekologik va tarbiyaviy tizimini yanada rivojlantirish;

12. Xalqaro ekologik normalar va standartlar bo'yicha bosqichma-bosqich dasturlar ishlab chiqish;

13. Xalq xo'jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni zararsizlantirish va o'zlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik ishlanmalarni hayotga tadbiq etish, hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirish;

14. Atrof-muhitni muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish

masalalari bo'yicha xalqaro ekologik tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish.

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan boshlab Rio de Janeyro shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada qabul qilingan ekologik siyosatni, ya'ni atrof-muhit holatini yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni muvofaqqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan atrof hitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng muhim vazifasi aholi sonining o'sishi, shaharlarning transport orqali yuk tashishi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bo'g'liq ravishda atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal etish, ya'ni tabiiy resurslarni qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish masalalari turibdi. O'tish davrida, shubhasiz tabiiy resurslardan foydalanish darajasi o'zgaradi va atrof-muhitning ifloslanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday sharoitda Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va kam chiqindili texnologiyalardan foydalanish kabi ekologik siyosatni qo'llashni taqozo etadi. Shunga qaramasdan respublikada quyidagi ekologik muammolar hal etilmay qolmoqda:

1. Orol bo'yidagi ekologik tang ahvol;
2. Yer, suv, biologik resurslarning qisqarishi ;
3. Yer, suv, biologik xilma-xillikga va atmosfera havosini sifatiga qo'shni davlatlarning ta'siri;
4. Tabiiy holatni va uning ifloslanish manbalari, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish uchun yetarli texnik va metodik imkoniyatlarning cheklanganligi;
5. Atrof-muhit holatini analitik nazorat qilish uchun maxsus asbob uskunalarning ishlab chiqarish korxonalarining mavjud emasligi;

6. Tog‘-kon chiqindilari, avvalgi uran konlari, ularning chegara hududlardagi holati;

7. Sanoat va maishiy turmushdagi chiqindilarning qayta ishlovchi va o‘zlashtiruvchi tizimning takomillashmaganligi;

8. Tabiiy atrof-muhit va ularning ifloslanish manbalari hamda tabiiy resurslardan foydalanish holati bo‘yicha ekologik bank tizimi ma’lumotlarining yetarli bo‘lmasligi;

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari makroiqtisodiyotni isloh qilish jarayonida uning diqqat markazida turmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasida birinchi navbatdagi vazifalari quydagilar hisoblanadi:

1. Jamiyatda ta’lim olish va intellektual potentsialini o‘rishini ta’minlovchi sharoitni yaratish;

2. Atrof-muhit holatini yaxshilash hamda global ekologik muammolarni hal etish uchun yetarli mablag‘lar ajaratilishi kerak;

3. Genetik fondni, turlar xilma-xilligi va landshaftlarni saqlash;

4. Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

5. Maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;

6. Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo‘yicha nazorat tizimini takomillashtirish va rivojlantirish;

7. Xususiylashtirish jarayonida ekologik talablarga rioya qilish va atrof-muhitga zarar keltirgani uchun javobgarlik kabilarni nazorat mexanizmlarini yaratish;

8. Ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar sohasida ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish;

9. Ekologik axborotlar va atrof-muhit monitoringi bo‘yicha bank tizimini yaratish;

10. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining tabiatni muhofaza qilish ishlari bo‘yicha faoliyatini yoritib turuvchi markazlashgan axborot tizimini yaratish;

11. Ekologik ta’lim va tarbiya tizimini yanada rivojlantirish;

12. Xalqaro ekologik normalar va standartlar bo‘yicha bosqichma-bosqich dasturlar ishlab chiqarish;

13. Xalq xo‘jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarning zararsizlantirish va o‘zlashtirish bo‘yicha ilmiy-texnik ishlarni hayotga tadbqiq etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishini davom ettirish;

14. Atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari bo‘yicha jamiyatdagi ekologik tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish.


John Harper tabiatdagi o‘zgarishlarni izohlar ekan, “tabiat barcha narsani hazm qilishi mumkin, biroq uning sog‘lom muhiti yo‘qolishi muqarrar”² deydi. Ekologiyaning tarixi haqida quyidagi olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan, Jonathan Anderson, Mike Bonsall, Angela Douglas, Chris Elphick, Valerie Eviner, Andy Foggo, Jerry Franklin, Kevin Gaston, Charles Godfray, Sue Hartley, Marcel Holyoak, Jim Hone, Peter Hudson, Johannes Knops, Xavier Lambin, Svata Louda, Peter Morin, Steve Ormerod, Richard Sibly, Andrew Watkinson, Jacob Weiner, and David Wharton. Shuningdek, Jane Andrew, Elizabeth Frank, Rosie Hayden, Delia Sandford and Nancy Whilton kabilar tabiatni muhofaza qilishning ilmiy nazariy asoslari haqida fikr yuritishgan.


Ekologiya bu – organizmlar va ularning atrof-muhit bilan o‘zaro sodir bo‘layotgan hamkorligini o‘rganadigan soha hisoblanadi. Ekologlar esa mana shu hamkorlikni o‘rganadigan olimlardir.

“Ekologiya” fani quyidagilarni o‘rganadi:

- ⌚ Hayot jarayonlari, o‘zaro aloqalar, adaptatsiyalar;
- ⌚ Energiya oqimi, hamjamoalar;
- ⌚ Ekotizimlar va suktsessiya;
- ⌚ Bioxilma-xillik va cho‘llanish.

² M. Begon va boshqalar. Ecology. 2006. 174-bet





Ekologiya fanining maqsadi:

- Ekosistema komponentlarini aniqlash va himoyalash;
- Evolyutsion nazariya bosqichlarini o'rganish;
- Ekosistemada hayvonlar mavjudligi va himoyasini muhokama qilish;
- Ekologik vaziyatlarni muhokama qilish;
- Tog'lar, daryolar va cho'llarni ekologik xususiyatlarini o'rganish va muhokama qilish;
- Marjon qoya toshlari va namgarchilik ko'p hududlarni o'rganish;
- Insonning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish va muhokama qilish.

Ilmiy metodlar

Olimlar muammolarni hal qilishda turli xil ilmiy metodlardan foydalanadilar. Bu metodlar boshqalar tushuna oladigan faktlarni tashkil qilish va yozishni o'z ichiga oladi. Olimlar muammoni hal etishda ko'pgina variantlarini qo'llaydilar. Ilmiy tadqiqotda birinchi qadam bu hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni yoki savolni aniqlab olish. So'ng ma'lumotlar to'planadi va ular tahlil qilinadi. Ma'lumot to'plashda kutubxona fondi materiallarini tahlil qilish, soha haqidagi bilimlarni yig'ib chiqish, laboratoriya va dalada test ishlarini olib borish kerak.

Yangi yo'nalishga o'tishdan avval soha haqida ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'plash juda muhim sanaladi. Ishni o'zingiz nimani bilishingiz kerak ekanligi haqidagi savoldan boshlang. So'ngra turli xil manbalardan yig'ilgan ma'lumotlarni tekshiring. Adabiyotlar, entsiklopediya, hukumat hujjatlari, kasbiy jurnallar, ilmiy maqolalar va internet kabi manbalardan foydalanish mumkin (M. Begon va boshqalar, 2006. 154-bet)³.

Ba'zida olimlar o'zlari to'plamagan yoki boshqalar tomonidan to'plangan ma'lumotlardan foydalanadilar. Barcha to'plangan ma'lumotlar ham ishonarli emas. Siz barcha ma'lumot manbalarini o'rganishingiz va ma'lumotlarni ilmiy jihatdan to'g'ri, ishonchli ekanligini tekshirib ko'rib foydalanishingiz kerak. Shunda bu ma'lumotlar siz kutgan natijaga erishishingizda samarali natija beradi (M. Begon va boshqalar, 2006. 174-bet).

³ Begon and others. Ecology. UK. 2006. B. 10-12; 154; 174.

Nazorot savollari:

1. Ekologiya mustaqil fan sifatida qachon vujudga keldi?
2. O'rta Osiyo allomalarining ekologiya faniga qo'shgan hissasini so'zlab bering.
3. O'zbekistonda ekologiya yo'nalishidagi ilmiy ishlarning asoschilari kimlar?
4. Ekologiya fanining rivojlanishida O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida to'xtaling.

2-MAVZU: TABIAT VA JAMIAT ORASIDAGI MUNOSABATLARINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Reja:

1. Insonga tabiatni ta'sir etish yo'nalishlari
2. Insonning tabiatga ta'siri
3. Ekologik inqirozlar

Tayanch so'zlar: inqilob, ixtiro, iqtisodiyot, Yer sayyorasi, aholi o'sishi, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, planetalar.

Yevropaliklar Amerika hududlariga ko'chib kelganlarida, ular ko'rgan holat shu bo'ldiki, tabiatga umuman ziyon yetkazilmagan manzara edi. Shundan keyin tuproqqa ishlov berish va dehqonchilik orqasidan sekin-asta yerlar eroziyaga uchraydi. Ba'zi yovvoyi tabiatdagi turlar xavf ostida qoldi, ba'zilar esa umuman yo'qolib ketdi. Yangi texnologiya atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bug' va dizel mashinalari, kommertsion neft qazib olish, ko'mirni kuydirish, sanoat rivojlanishi chiqindilar chiqishi va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Amerikada bu muammolarni oldini olish uchun 1970-yillarda "Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi" tashkil etildi va bu tashkilot atrof-muhitni muhofaza qilishni maqsad qilgan edi. Oyna, qog'oz, plastik, shisha va metallarni ikkilamchi qayta ishlash yo'lga qo'yildi.⁴

Bizning quyosh tizimimizda Yer sayyorasi yetarli energiyani quyoshdan oladi va bu undagi hayot uchun zarur bo'lgan harorat bilan to'g'ri ta'minlashga yordam beradi. Merkuriy Quyoshga eng yaqin sayyora ekanligi sababli kun bo'yi yuqori harorat kuzatiladi. Tunda esa haroratning juda past bo'lishi hayotni ta'minlab bermaydi. Venera quyoshga yaqinligi jihatdan ikkinchi sayyoradir va uning harorati yuqori bo'lib, qalin karbonat oksidi gazidan iborat. Bu esa u yerda yashash uchun noqulaylik tug'diradi. Mars to'rtinchi sayyora yerga nisbatan ancha sovuq, chunki u quyoshdan ancha uzoq va atmosfera

⁴ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-bet. Mazmuni va mohiyati).

qobig'i juda siyrak. Bu yerda mikroskopik hayot bo'lishi mumkin, lekin hanuzgacha noma'lum. Marsdan keyingi sayyoralariga yetarlicha quyosh nuri va issiqlik yetib bormaydi, shu sabab hayot uchun to'la sharoit ta'minlanmaydi.

Antropogen omillar hozirgi vaqtda tabiatdagi eng kuchli omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Inson tirik organizmlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etib yoki yashash sharoitini o'zgartirib, uning tarqalishiga yoki qirilib yo'q bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Insonning tabiatga ko'rsatadigan kuchli ta'siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o'zgartiradi. Insoniyat million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o'n yilda o'zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlarga salbiy ta'siri natijasida Yer yuzida ko'plab o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketdi.

Ovchilik bilan shug'ullanish dastlab ozuqaga talabni qondirish maqsadida olib borilgan bo'lsa, keyinchalik kiyim-kechak va har xil qimmatli materiallar olish uchun avj olib ketdi. Masalan: mahalliy amerikaliklar bizonlarni o'ldirib ularni terisidan kiyimlar, suv solish uchun idishlar, suyaklaridan asbob-uskunalar tayyorlangan. Insonning ongli yoki ongsiz ravishda o'simlik va hayvon turlarini Yer sharining bir joyidan ikkinchi joyiga olib borishi ba'zan flora va fauna tarkibini birmuncha o'zgartirib yubordi. Inson tamonidan o'simlik va hayvonlarning yashash sharoitlari o'zgartirildi. Natijada muayyan joyda yashayotgan o'simlik va hayvonlar jamoalari yo'q bo'lib yoki ularning sharoiti keskan o'zgaririb ketdi.⁵

Aholini ro'yxatga olish chora-tadbirlari


Yeryuzida aholi sonini o'sishi ham ekologik muammo hisoblanadi. Aholini hisobga olish nafaqat Amerika Qo'shma Shtatlari, balki dunyoning boshqa mamlakatlari uchun ham muhimdir. Bu hukumatga millatning turli viloyatlarda aholini taqsimlashini aniqlashda yordam beradi. Bu ma'lumotlarga ega bo'lish uchun hukumat o'zlarining mamlakatlarida ayni bir vaqtda va aynan bir joyda qancha odam yashayotganligi ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish natijasida mamlakat aholisining o'sish sur'ati aniqlanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari

⁵ Peter Killero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-bet. Mazmuni va mohiyati).

tashkil etilganda uning asoschilari aholiga asoslangan Vakillar uyini tuzganlar. Hukumat vakillari aholi ko'p maydonlarda ko'pchilikni, aholisi kam maydonlarda kamchilikni tashkil etgan. 1787-yilda aholini ro'yxatga olish tartibi Konstitutsiyaga kiritilgan. Aholini ro'yxatga olish har 10-yilda amalga oshirilishi kerak, shunda har bir mamlakat vakillarining soni hisoblab chiqiladi (1-rasm). 1970-yildan Amerika Qo'shma Shtatlarida ro'yxatga olish dala ishchilari tomonidan amalga oshirilgan. Ular uyma-uy yurib har bir xonadonda yashovchi odamlar sonini hisoblaganlar. Keyinchalik ro'yxatga olish pochta orqali amalga oshirila boshlangan. Mamlakatda xizmat va mablag'larni to'g'ri taqsimlashda ro'yxatga olish ma'lumotlaridan foydalaniladi. Demak aholini ro'yxatga olish davlatning iqtisodiy potentsialini to'g'ri shakllantirishda katta yordam beradi.⁶

Inson populyatsiyasining o'lchamini yillar davomida 1. 6 foizga o'sishi. Inson populyatsiyasining o'sishi.⁶

1-rasm



Tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar

Inson paydo bo'lgandan boshlab, tabiatga ta'sir etadi. O'z navbatida tabiat insonga ta'sir o'tkazib keladi.

Insonga tabiatning ta'siri quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

– To'g'ridan to'g'ri salomatligiga va ko'payishiga;

⁶ Peter Killero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-bet. Mazmuni va mohiyati).

- Tabiiy zarur ne'matlarning mavjudligiga;
- Tabiat tomonidan insonlarni harakat qilishga majbur qilish va rag'batlantirish;
- Mehnat vositalarining mavjudligiga.
- Tabiiy resurslarning mavjudligiga (okean, tog'lar, cho'llar, botqoqlar va h.k.).

Bugungi kunda global isish jarayoni natijasida organizmlarning yashash tarzi o'zgarib ularning moslashish jarayoni qiyinlashmoqda. Bu esa turlar orasida tolerantlikning kamayishi bilan izohlanishi mumkin. 2015 va 2017 yillarda o'tkazilgan global isishni oldini olishga bag'ishlangan Parij konferensiyalarida yer yuzida biologik xilma-xillikni kamayib borayotganligi bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Xulosa qilib aytilganda, tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlarni turg'un birlikda olib borilmas, yoxud mintaqalar bo'yicha hamkorlikda ekologik muammolar hal qilinmasa, kelajak avlod oldida javobgar bo'lib qolamiz.

Nazorat savollari:

1. Siz qanday global, mintaqaviy, mahalliy ekologik muammolarni bilasiz?
2. Siz yashaydigan hududdagi ekologik muammolarni aytib bering?
3. Rivojlangan mamlakatlarda qanday ekologik muammolar mavjud?
4. Mahalliy ekologik muammolarni oldini olishda qanday takliflaringiz bor?

3-MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Ekologiyada muhit tushunchasi.
2. Ekologik omillar va ularning tasnifi.
3. Ekologik omillar: tirik organizmlarga ta'sir etish umumiy qonuniyatlari.
4. Organizm va moslashish.

Tayanch so'zlar: Muhit, sun'iy muhit, ekologik omil, abiotik omillar, biotik omillar, relef, antropogen omil, bilvosita, bevosita, kimyoviy moddalar, fitogen, zoogen, mikrobiogen, optimum zona, maksimum, minimum, individ.

Odatda tabiiy va sun'iy muhitlar ajratiladi. Tabiiy muhitni suv, quyosh, shamol, havo, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy omillar majmui tashkil etadi. Sun'iy muhit inson tomonidan yaratilgan bo'lib, bunda insonning mehnat mahsuli yotadi. Tabiiy va sun'iy muhitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ularning bog'liqligini ekologik muhit tushunchasi ifodalaydi. Tirik organizmlar, oziqlanishi va yashashi uchun ishonchli himoyalangan yashash muhitini qidiradi. Chigirtka, kapalak va shu kabi boshqa hasharotlar oziq-ovqatini va yashashi uchun inlarini qurishda o'simliklardan foydalanadi. Hasharotlardir o'z navbatida ko'p qushlarning ozuqasi hisoblanadi. Nobud bo'lgan o'simlik va hayvonlar tuproq uchun manba hisoblanadi. Biotik omillar – tirik organizmlarning o'zaro ta'sir etishining barcha ko'rinishlari (masalan, o'simliklarning hasharotlari yordamida changlanishi, raqobat, bir organizm tomonidan ikkinchisini iste'mol qilish, parazitlik) va ularning tashqi muhitga ta'siridan iborat. Biotik o'zaro aloqa munosabatlar murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Biotik omillar atrof-muhitning asoslisidir. Juda ko'p osimliklar va hayvonlarning o'sishi va yashashi uchun iqlim omillari katta ahamiyatga ega.

Tirik organizmlarning hayotiga va geografik tarqalishiga ta'sir etuvchi (ijobiy yoki salbiy) shart-sharoitlar ekologik omil deb ataladi. Ekologik omillar juda xilma-xil, ular tabiati va tirik organizmlarga ta'sir etishiga ko'ra shartli ravishda 3 ta asosiy guruhlariga ajratiladi: Abiotik omillar – jonsiz tabiatning omillari hisoblanib, birinchi navbatda, iqlim omillari, ya'ni yorug'lik, harorat, namlik va mahalliy omillar kiradi. Abiotik omillar – yo'q, jonsiz degan ma'nolarni bildiradi. Abiotik omillar har bir tirik organizmning yashashi uchun sharoit yaratadi. Masalan: suv abiotik omilning eng asosiy omil ko'rsatgichlaridan biri. Abiotik omillardan bo'lgan havo, yerni o'rab turgan qobig'idir. Iqlim omillaridan, hamma tirik organizmlar yashash hayotida yorug'lik muhimdir. Quyosh nuri natijasida amalga oshiriladigan fotosintez, barcha tirik organizmlar uchun ozuqa zanjirida energiya manbaidir. Yer sharidagi organizmlarning tarqalishi, ko'payishi va boshqa hayot jarayonlarini belgilaydigan omillardan biri harorat hisoblanadi. Harorat 0° C dan past, +50° C dan yuqori bo'lganda barcha hayot jarayonlari to'xtaydi yoki keskin darajada sekinlashib qoladi. Masalan, sovuq havo (Antarktida), issiq harorat (arab sahrolari) hukmron bo'lgan joylarda tirik organizmlar o'sha muhitga moslashib yashaydi. Mahalliy omillarga relef, tuproq xususiyatlari, sho'rlanish, oqim, shamol, radiatsiya (nurlanish) va boshqalar kiradi. Antropogen omillar – hozirgi vaqtda tabiatdagi eng kuchli omillardan biri hisoblanadi.⁷

Cheklovchi omil


Cheklovchi omil tirik va notirik organizmlarning ekotizmini o'z ichiga oladi. Cheklovchi omil aloqada bo'luvchibir necha populyatsiyaga ta'sir eta oladi. Biroz yomg'ir yog'ishi ham o'tloqdagi o'simliklarni o'sishini ko'paytira oladi. O'simliklar urug'ni sichqonlar yeydi, bu oziqlanish jarayoni cheklovchi omilga aylanishi mumkin. Boyqushlar va qirg'iylar sichqonlar bilan ozuqlanishi natijasida, sichqonlar sonining kamayishiga olib keluvchi cheklovchi omilga aylanishi mumkin.

⁷ Peter Killero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (36-bet).

Ekologik nisha

Moslashish jarayoni organizmlarni ular hayotidagi oʻrni va tashqi tuzilishini ifodalaydi. Buni biz ekologik nisha (joy) bilan ham izohlashimiz mumkin, yaʼni qancha ekologik tur mavjud boʻlsa, shuncha ular uchun yashash muhiti mavjud boʻladi. “Nisha” termini fransuzcha “niche” – chuqurlashuv, degan maʼnoni ham anglatib, bu nafaqat yashash joyi, balki tabiatda turning oʻrni, biologik jamoadagi funksional roli, tashqi muhit omillariga bardoshlilik ham hisoblanadi (2–3-rasmlar). **Kooperatsiya** – ikki organizm bir-birlari bilan kooperatsiya hosil qiladilar. Bunday kooperatsiya ikki organizm uchun ham ustunliklarga ega. Masalan, krablar bilan kovakichlilar bunga misol boʻla oladi. Kovakichlilar krablarning orqasiga yopishib olib (baʼzan ularni krablarning oʻzlari oʻtqazib oladilar) ularni dushmanlardan, himoya qiladilar. Kovakichlilar esa oʻz navbatida krablardan transport vazifasidan foydalanadilar hamda ulardan qolgan ovqat qoldiqlari bilan ovqatlanadilar. **Mutualizm** birlashgan ikki populyatsiya ham faqat foyda koʻradi, bu birlashish ular uchun foydalidir, bunday birlashgan organizmlar tabiiy sharoitda biri ikkinchisiz hayot kechira olmaydi. Masalan, termitlar va ularning ichaklarida yashovchi xivchinlilar bunga yaqqol misoldir. Bunda xivchinlilar termitlar qabul qilgan kletchatkani hazm qilishga yordam beradilar, chunki termitlar kletchatkani mustaqil oʻzlashtira olmaydilar. Xivchinlilar ham termitlarsiz yashay olmaydilar. Chunki ular uchun yashash sharoiti termitlar ichaklaridir. Turlar oʻrtasidagi munosabatlarning ikki va undan koʻp tur uchun qulaylik tugʻdiradigan xilini oʻzaro yordam deyiladi. Masalan, hasharotlar yordamida changlanadigan oʻsimliklar changni bir oʻsimlikdan ikkinchi oʻsimlikka olib oʻtadigan va shu bilan oʻsimliklarning chetdan changlanishini taʼminlaydigan hasharotlarga muhtojdir. Ekotizimlar biogeotsenozga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Ekotizimda moddalar aylanishini taʼminlash uchun maʼlum miqdorda kerak boʻladigan anorganik moddalar zahirasi va bajarayotgan ishi jihatidan uch xil ekologik guruhni tashkil etuvchi organizmlar boʻlishi zarur. Birinchi guruhga oʻsimliklar kirib, ular produtsentlar deyiladi. Produtsentlar assimilyatsiya jarayonida toʻplangan energiyasini boshqa organizmlarga beradi. Ikkinchi guruhga hayvonlar kiradi. Ular oʻsimliklar tomonidan toʻplangan organik moddani isteʼmol qiluvchilar hisoblanadi va kontsumentlar, deb ataladi.

Ekologik nisha. 2-rasm.



Termites – termitlar
Millipede – mingoyoq

Yirtqich va o'lja. 3-rasm.





4-rasm. Abiotik omillar. Havo, suv, tuproq, quyosh, temperatura va iqlim – yerdagi butun hayotga ta'sir etuvchi omillar.



5–6-rasmlar. Suv ekologik omili. Fotosintez jarayoni. Cho‘ldagi hayot turlarning uzoq vaqt davomida suvsiz yashashi bilan tasvirlanadi. Minglab turlar yomg‘rli o‘rmonda yashashga moslashgan.

Barcha organizmlar uchun yorug'likning ahamiyati katta, chunki ekosistemada kechadigan jarayonlarda sarflanadigan energiya bu asosan quyosh energiyasidir. O'simliklarda fotosintez jadalligi yorug'likning optimal darajasiga (yorug'lik to'yinishiga) bog'liq. Yorug'likka munosabatiga qarab o'simliklarni yorug'savar, soyasevar va soyaga chidamlilarga bo'lamiz. Yorug'savar o'simliklar yaxshi yorug' tushadigan ochiq joylardagina rivojlanadi. Ularda fotosintez jarayoni jadal kechadi. Cho'llarda va chala cho'llarda o'sadigan izenlar, shuvoqlar, saksovullar, chogonlar, qizilchalar, qandimlar, qo'ng'irboshlar va shu kabilar yorug'savar o'simliklarga kiradi. Soyasevar o'simliklar esa, aksincha kuchli yorug'likni yoqtirmaydi va ular doimiy soya joylarda o'sadi. Bunday o'simliklarga o'rmonlarda o'sadigan paporotniklar, moxlar, yong'oqzorlar ostida o'suvchi yovvoyi xina, tog' gunafshasi kabilar kiradi. Soyaga chidamli o'simliklar soya joyda ham, yaxshi yoritilgan joylarda ham bimalol o'saveradi. Bularga qayin, qarag'ay, eman daraxtlari, o'rmon yer tuti, g'ozpanja, binafsha kabi o'simliklar kiradi. Yorug'likning hayvonlar uchun asosan informativ ahamiyati mavjud. Sodda hayvonlarda yorug'lik sezuvchi organlari bo'lib, ular orqali fototaksis (yoritilgan tomonga harakatlanish) amalga oshadi. Kovakichaklilardan tortib deyarli hamma hayvonlarda yorug'lik sezuvchi a'zolar mavjud. Ayrim hayvonlar (ukki, ko'rshapalak) faqat kechasi faol hayot kechiradi, ayrimlari esa doimo qorong'i sharoitda yashashga moslashgan (askarida, ko'rsichqonlar). Ko'pchilik hayvonlar uchun yorug'lik fazoda mo'ljallashda yordam beradi. Masalan, asalarilar asal shira ko'p bo'lgan joylarni bildirish uchun iniga qaytgach uzoq muddat davomida gir aylanib quyosh bilan ozuqa joylashishiga nisbatan ma'lum burchak hosil qilgan holda to'xtaydi. Qushlar esa uzoq joylarga uchib ketayotganda quyoshga qarab mo'ljallanadi. Dengiz va okean suvlari tagida yashaydigan jonivorlar va quruqlikda yashaydigan ba'zi qo'ng'izlar o'z tanasidan nur chiqarish xususiyatiga ega. Bu hodisa biolyuminestsentsiya deb ataladi. Biolyuminestsentsiya hayvonlar uchun signal vazifasini o'taydi. Ular jinsiy marosim, dushmandan himoyalash, o'ljaga tashlanish kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Yorug'lik hayvonlarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq muddatda yorug'lik ta'sir ettirilganda hasharotlar va sut emizuvchi hayvonlarda jinsiy balog'atga yetish tezlashadi. Ba'zi hasharotlar kun qisqarishi natijasida ko'payish

jarayonini to'xtatadi, kun uzayishi bilan esa ko'payish qayta tiklanadi. Buning sababi shuki, uzun kun bosh miyadagi gepofiz beziga ta'sir etib, ichki sekretiya bezlari ishini kuchaytiradi va jinsiy bezlarga ham signal beradi. Harorat ekologik omili Yer yuzidagi organizmlarning yashashi, rivojlanishi va tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim abiotik omillardan biri haroratdir. O'simliklar va ko'pchilik hayvonlar tana haroratini birday saqlay olmaydi. O'simliklarning sovuqqa chidamliligi hujayralarda qand miqdorining ko'p bo'lishi natijasida hujayra shirasi kontsentratsiyasining ortishiga va suvning kamayishiga bog'liqdir. Harorat 0 °C dan past bo'lsa, urug' unibchiqmaydi. Binobarin har bir o'simlik urug'i unib chiqishi uchun minimal, optimal va maksimal harorat talab qiladi. Sibirda o'sadigan tilog'och, qarag'ay, pixta va shu kabi daraxtlar -70 °C gacha sovuqqa bardosh bera oladi. Bunday o'simliklar psixrofil o'simliklar deyiladi. O'rta Osiyoning jazirama issiq cho'llarida o'sadigan yantoq, kovul, saksavul, shuvoq, izen o'simliklari +60 +70 °C issiqqa ham bardosh bera oladi. Ular termofil o'simliklar hisoblanadi. O'simliklar uchun ularning butun vegetatsiya davrida oladigan foydali harorat yig'indisi ham jiddiy ahamiyatga ega. Agar harorat yig'indisi yetarli bo'lmasa o'simlik gullamaydi va hosilga kirmaydi.

O'simlik va hayvonlar uchun suv muhim ahamiyatga ega (7-8-9-rasmlar). O'simliklarning tuproq va havo namligiga bo'lgan talabiga ko'ra ular kserofitlar, mezofitlar, gigrofitlar va gidrofitlarga bo'linadi.

Dasht va cho'llarda o'sadigan, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarga kserofitlar deyiladi. Kserofitlarda hujayralar kichik bo'ladi, hujayra po'sti qalinlashgan, barg mezofilida palisad parenxima yaxshi rivojlangan, barg tomirlari zich joylashgan, bargdagi og'izchalar soni ham ko'p bo'ladi. Kserofitlarga shuvoq, erman-shuvoq, izen, oq saksovu, qora saksovu, juzg'un, pista, teresken, kamforosma va shu kabilar kiradi. Kserofitlarga oid maxsus bir guruh o'simliklar sukkulentlar deyiladi. Bu o'simlik organlarida maxsus suv g'amlovchi to'qimalari yaxshi rivojlangan bo'lib, ularda suv zahirasi saqlanadi. Bunday o'simliklarga kaktuslar, agavalar kiradi. Kserofitlarning yana bir guruhi sklerofitlar hisoblanadi. Sklerofitlar qurg'oqchilikka chidamli, ko'p yillik, dag'al, ko'pincha barglari reduktsiyalangan va tikanlarga aylangan, yaxshi rivojlangan mexanik to'qimaga ega bo'ladi. Ularga saksovu, yantoq, shu-

voq, betaga va boshqalar kiradi. Cho'l zonasidagi sho'rxok yerlarda esa danasho'r, seta, sarsazan va qizil sho'ra o'sib, ular galofitlar deb ataladi.

Nami yetarli bo'lgan tuproq va iqlim sharoitida o'sadigan o'simliklar mezofitlar deyiladi. Bu xil o'simliklar hujayralaridagi osmotik bosim kserofitlarga qaraganda pastroq, ya'ni 11–15 atmosfera orasida bo'ladi. Mezofitlarga ko'pchilik daraxt va aksari ekiladigan o't o'simliklar: g'o'za, beda, makkajo'xori, qovun, tarvuz, pomidor, boyimjon hamda deyarli hamma mevali o'simliklar kiradi. Bu xil o'simliklarning ildizi uncha chuqur ketmaydi, lekin u kuchli tarmoqlanib, tuproq orasida katta hajmni egallab oladi.


Namlik ko'p bo'lgan sharoitda, ya'ni daryo bo'ylari, o'tloqlar hamda o'rmonlar orasida o'sadigan o'simliklar gigrofit bo'lib, ularning barglari odatda yirik, kutikulasiz va tuksiz bo'ladi. Barg yuzasidagi og'izchalar doimo ochiq bo'lib, ular bargning ham ostki, ham ustki qismida joylashadi. Ildizlari yerga chuqur kirmaydi, chunki ildizlar yoyilgan joy doimo nam bo'ladi. Ulardagi osmotik bosim 8–12 atmosferani tashkil etadi. Daryo va ko'l bo'ylarida o'sadigan savagich, qamish, qiyog, ba'zi bir begona o'simlik turlari va madaniy ekinlardan sholi gigrofitlarga misol bo'ladi.

Suvga botib o'sadigan o'simliklar gigrofit bo'lib, ularning organlarida mexanik to'qima deyarli rivojlanmaydi. Bu o'simliklarning suv yuzasida qolgan barglarining faqatgina ustki epidermisida og'izchalar joylashadi. Ostki, suvga tegib turgan tomonida og'izchalar bo'lmaydi. Barglarda kutikula qavati deyarli rivojlanmaydi. O'simlik butun organlari yuzasi bilan suvni shimib olishi mumkin. Shu sababli bu xil o'simliklarda o'tkazuvchi to'qimalar, ildiz tuklari ham yaxshi o'smagan, ildizning suv va mineral tuzlarni shimish qobiliyati ham past. Gidrofitlarga barcha suv o'tlari, gulli o'simliklardan chilim yoki suv yonog'i (Trapa natans), suv grechixasi (Polygonum amphibium), vallesneriya (Vallesneria), elodea (Elodeae) va shu kabilar misol bo'la oladi. Cho'l va dashtda yashovchi hayvonlarda ham suvsizlikka moslanish mavjud. Kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar va boshqa mayda cho'l hayvonlari oksidlanish reaksiyalari natijasida hosil bo'ladigan suvlarni g'amlash hisobiga tanadagi suv muvozanatini saqlaydi, ayniqsa, yog'ning oksidlanishi natijasida ko'p miqdorda suv hosil bo'ladi. Shu tufayli cho'lda yashovchi hayvonlarda qalin yog' qatlamlari bo'ladi (tuyaning o'rkachi). Ko'pgina

choʻl hayvonlarining qoplovchi qalin toʻqimasi mavjudligi tufayli, ular teri orqali suvni bugʻlantirmaydi, ularning koʻpchiligi kechasi hayot kechiradi, kunduz kunlari esa uyalariga yashirinib oladi. Hayvonlar hayotida ham namlik yoki suv muhim ahamiyatga ega ⁸.



7-rasm. Harorat abiotik omil sanalib, organizmlarning tirik qolishi uchun zamin yaratadi. Pingvinlardagi qalin yogʻ qatlami issiqlikni saqlab turadi va bolalarini sovuqdan himoya qiladi. Arab tuyalarida oʻrkachlar yogʻ qatlamini gidrolizlanishi natijasida issiqlikdan saqlanadi.




Shamol omili. 8-rasm.

Shamol taʼsirida sovuq havo iliq havoni joyini oʻzgartiradi. Natijada iliq havo yuqoriga koʻtariladi.

⁸ Peter Killero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-bet. Mazmuni va mohiyati).


Yomg'ir hosil bo'lish jarayoni 9-rasm.



Okeandagi nam havo tog' yon bag'riga ko'tariladi, havo soviydi, yuqorida sovuq havo namlikni yo'qotadi; sovuq, quruq havo aralashadi va sahro tomon harakatlanadi.

BIOMALAR

Biomalar cho'l, adir, tog' va yaylov tizimlarida namoyon bo'ladi. Biroq okean va dengiz biomalari ham farqlanib ularda mahsuldorlik ko'rsatkichlari faqat sifati jihatdan yuqori turadi. Har bir biomalarda o'ziga xos iqlim va abiotik omillarning farqli ta'sirlari mavjud bo'ladi. Tundra va tayga hayoti o'zgacha ko'rinishda bo'lib, inson uchun ilmiy izlanishlar manbai hisoblanadi. Tropik o'rmonlar biologik xilmaxillikning eng boy darajasi hisoblanadi (10–11–12–13–14-rasmlar)⁹.



Biomalar. 10-rasm.

Sahro, o'tloq, tropik yomg'irli o'rmon, yomg'irli o'rmonda haroratning ko'tarilishi, o'rmonlarda barglarning to'kilishi yuz berishi, tayga, tundra.

⁹ Peter Killero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-bet. Mazmuni va mohiyati).



Tundra, Alyaska. 11-rasm



Ptarmigan

Tayga. 12-rasm. Ptarmigan qushi.




Tropik o'rmon. 13-rasm



Cho'l o'simliklari. 14-rasm

Inson tabiatga ko'rsatadigan kuchli ta'siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o'zgartiradi (1-jadval).



EKOLOGIK OMILLARNING TIRIK ORGANIZMLARGA TA'SIR ETISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI

Ma'lum sharoitda yashayotgan organizmlarga ekologik omillar turlicha ta'sir etishi mumkin. Ammo ekologik omillar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning tirik organizmlarga ta'sir etish xarakteri nuqtai nazardan ular uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Organizmning normal rivojlanishi uchun ma'lum darajada qulay ekologik omillar majmui talab etiladi. Har bir omilning organizmga ta'sir etish kuchi hamda quyi va yuqori ta'sir etish chegarali bo'ladi. Omilning qulay ta'sir etuvchi kuchi optimum zona deb qaraladi yoki optimum deb ataladi. Ekologik omil organizmga haddan tashqari kuchsiz (minimum) va kuchli (maksimum) ta'sir etishi mumkin. Shunday qilib, har qanday ekologik omilning optimum, minimum va maksimum ta'siri bo'lar ekan.

Minimum va maksimum chegarali kritik nuqta deb qaraladi. Kritik nuqtalardan ortiq kuch ta'sirida organizm nobud bo'ladi.

Muhitning biror omiliga keng doirada moslashgan ekologik turlarga **evri**-old qo'shimchasini qo'shib, tor doirada moslashganlarga steno-old qo'shimchasini qo'shib nomlanadi. Temperaturaga nisbatan evriterm, stenoterm, namlikka nisbatan evrigidrid, stenogidrid, sho'rlanishga nisbatan evrigal, stenogal.

Tashqi muhitning turli omillarga nisbatan ekologik valentliklar yig'indisi turning ekologik spektrini tashkil etadi. Masalan, cho'lda o'suvchi sho'raklar tuproqning sho'rligiga, qurg'oqchilik va yuqori temperaturaga yaxshi moslashgan. Ushbu omillarga moslanish sho'raklarning ekologik spektrini tashkil etadi.

Ayrim turlarning ekologik spektri bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Hatto bir xil sharoitda yashayotgan va moslashish xususiyati ham o'xshash bo'lgan turlar ozmi-ko'pmi miqdorda o'zining ekologik imkoniyatiga ega bo'ladi. Izen va teresken o'simliklari qurg'oqchil va issiq sharoitga moslashgan turlar hisoblanib, ulardan birinchisi nisbatan qurg'oqchilikka ham, yuqori haroratga ham biroz kuchliroq moslashishi bilan ajralib turadi.

Ekologik omillar organizmning turli funksiyalariga ham turlicha ta'sir etadi.

Ayrim individlarning tashqi muhit omillariga chidamlilik darajasi, kritik nuqtalari, optimal zonasi ham to'g'ri kelmaydi. Ushbu individning irsiy, jinsiy, yosh yoki fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Muhitning ayrim ekologik omillari organizmga bir vaqtda ta'sir etadi. Ushbu omillarning ta'siri boshqa omillarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Buni omillarning o'zaro ta'sir etish qonuniyati deyiladi.

Organizmning normal hayoti uchun ma'lum darajada sharoit talab etiladi. Agar barcha shart-sharoitlar qulay bo'lib, ulardan biri yetarli miqdorda bo'lmasa, uni cheklovchi omil deb ataladi. Cheklovchi omil organizmni ushbu sharoitda yashashi yoki yashay olmasligini belgilab beradi.

MOSLASHISH HAQIDA TUSHUNCHA

Moslashish yoki adaptatsiya ayrim individlar, populyatsiyalar, tur yoki jamoalarning morfo-fiziologik, hulqiy, axborot, biotsenotik xususiyatlarining majmuidan iborat bo‘lib, boshqa individlar, populyatsiyalar, tur yoki jamoalar bilan yashash uchun kurashda g‘olib chiqishga sababchi bo‘ladigan, shuningdek abiotik muhit omillarining ta’siriga chidamliligini ifodalaydi.

MOSLASHISHNING ASOSIY KO‘RINISHLARI

Moslashishlarning ko‘rinishlariga kelsak morfologik, fiziologik va xulqiy moslashishlar ajratiladi.

Morfologik moslashishlarga misol qilib suv muhitida gidrobiontlarning suvni qarshiligini kesib yurishga mos tana tuzilishi, shuningdek, plankton organizmlarning suvda osilgan holda yashashi kabilar hisoblansa, o‘simliklar dunyosida cho‘l sharoitida minimum suv sarflashga moslashish sifatida barglarning reduksiyanishi yoki butunlay bo‘lmasligi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Fiziologik moslanishlar hayvonlarda ozuqa tarkibiga ko‘ra ovqat hazm qilish sistemasida fermentlarning ma’lum turlarini uchrashi yoki cho‘lda yashovchi hayvonlarning suvga bo‘lgan talabini qondirish uchun yog‘larning biokimyoviy oksidlanishdan foydalanishi kabilar kiradi. O‘simliklarda kuzatiladigan fotosintez jarayoni ham, boshqa biokimyoviy jarayonlar atmosferadagi gazlar tarkibiga bog‘liqdir.

Xulqiy yoki etologik moslashishlar hayvonlar uchun xos bo‘lib, turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, tashqi muhit bilan hayvon tanasi o‘rtasida normal issiq almashinuvi uchun uya qurish (boshpana topish), qulay haroratli joyni izlab topish, shuningdek, qushlar va sut emizuvchilarda sutkalik va mavsumiy ko‘chib yurishlari ma’lum. Hayvonlar faqat harorat omiliga xulqiy tomondan moslashib qolmay, balki namlik, yorug‘lik va boshqa ko‘pchilik ekologik omillarga ham moslashadi. Hulqiy moslanishlar yirtqichlarning o‘ljani izidan yurish, kuzatish kabilarda hamda o‘ljaning javob reaksiyalarida ko‘rinadi.

MOSLASHISHNING DARAJALARI

Moslashish turli darajalarda va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, harorat omiliga moslashish molekulyar darajadan boshlab to biotsenotik darajagacha kuzatilishi mumkin. Ko‘pchilik o‘simliklar ortiqcha qizib ketishdan saqlanish uchun boshqa o‘simlik turining soyasida o‘sadi. Bu yerda moslashish biotsenotik darajada namoyon bo‘lmoqda. Asalarilarning uyalarini haddan tashqari qizib ketganda qanotlarini qoqib uyani sovutishi jamoa darajasidagi moslashishga misol bo‘ladi. Hayvonlarning ter bezlari orqali tanasini sovutishi yoki o‘simliklarni transpiratsiya orqali barg yuzasini sovutishi kabilar organizm darajasidagi moslanishlardir. Kuchli yorug‘lik ta’sirida xloroplastlarning hujayra devori ostida ma’lum bir tartibda joy olishi hujayra darajasidagi, termofil mikroorganizmlarning oqsillarini yuqori harorat ta’siriga chidamliligi esa molekulyar darajadagi moslashish hisoblanadi.

YORUG‘LIKNING TIRIK ORGANIZMLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Sayyoramizga quyoshdan keladigan yorug‘lik nuri tirik organizmlar hayotida muhim rol o‘ynaydi (2-jadval).

Odam 0, 40 – 0, 75 mkm to‘lqin uzunligidagi nurlarni ko‘radi. Qisqa to‘lqin uzunlikdagi nurlar ultrabinafsha, uzun to‘lqin uzunlikdagilar esa infraqizil nurlar deb ataladi.

Yorug‘lik birinchi navbatda yashil o‘simliklar uchun zarur. Yorug‘lik ta’sirida yashil o‘simliklarda eng muhim fiziologik jarayon, ya’ni fotosintez amalga oshadi. Bundan tashqari, yorug‘lik hujayradagi biokimyoviy va fiziologik jarayonlarga, jumladan fermentlarning faolligiga, oqsil va nuklein kislotalarning sintezlanishiga ta’sir etadi. Barg og‘izchalarining harakati, gazlar almashinuvi hamda transpiratsiya va boshqalarga ham ta’sir etadi.

**Yorug'lik ta'sirida o'simlik va hayvonlarda boradigan eng
muhim jarayonlar**

11.	Fotosintez	O'simlik tushayotgan nurni tahminan 1–5% o'zlashtiradi. Fotosintez barcha tirik organizmlar uchun ozuqa zanjirida energiya manbaidir. Xlorofill to'planishi uchun ham yorug'lik zarur.
22.	Transpiratsiya	Quyosh nurining o'simlikka tushayotgan 75%i o'simlikdan suvni bug'latishga sarf bo'ladi. Bunda suv bug'latish tezlashadi. Bu hol hozirgi davrda suv muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega.
23.	Fotoperiodizm	O'simlik va hayvonlarning hayotini uyg'unlashtirish uchun muhim (ayniqsa, ko'payish davrida) ahamiyatga ega.
44.	Harakatlanishi	O'simliklarda kuzatiladigan fototropizm va fotonastiyalar o'simlikni yetarli yorug'lik bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Fototaksis bir hujayrali o'simliklar va hayvonlarda o'ziga xos yashash joyini tanlashda rol o'ynaydi.
55.	Hayvonlarning ko'rishi	Eng muhim organizmdagi funksiyalardan biri hisoblanadi.
66.	Boshqa jarayonlar	Odamlarda D vita'minni sintezlanishi, terini qorayishi kabi himoya moslanishlari. Tik tushayotgan nurdan qochish kabi xulqiy harakatlar.

**TIRIK ORGANIZMLARNING HARORAT OMILIGA
MUNOSABATI**

Ko'pchilik tirik organizmlar hayoti 0° bilan 50°C o'rtasida o'tadi. Temperatura 0° dan past yoki 50° C dan yuqori bo'lganda barcha hayot jarayonlari mutlaqo to'xtaydi yoki keskin darajada sekinlashib qoladi. Demak tirik organizmlar hayotiga harorat optimum, minimum va maksimum darajada ta'sir etadi.

Ayrim suvo'tlar va umurtqasiz hayvonlarning hayoti 0°C dan past bo'lgan temperatura ta'sirida normal o'tadi. Ba'zi bakteriyalar va zamburug'larning sporalari hamda ba'zi umurtqasiz hayvonlar (kolovratka, tixoxodka va ne'matodlar, hasharotlar) tanasi suvsizlantirilgach, ularga – 190°, – 273°C li past temperatura ta'sir ettirilganda ham hayotchanligi saqlanib qolgan. Yoki ko'k-yashil, diatom va yashil suvo'tlarning ayrim vakillarining 73°, – 93 °C li qaynar buloqlarda normal o'sishi aniqlangan. Shimoliy qutbda suvning temperaturasi 0°Cga teng bo'lganda ham ko'pgina suv hayvonlari normal yashab suvo'tlar bilan ovqatlanadi. Shimol bug'usi, oq ayiq, tyulen va pingvinlar hayoti ham past haroratda normal kechadi.

Barcha o'simliklarni haroratga bo'lgan munosabatiga ko'ra ikkita ekologik guruhga ajratish mumkin: yuqori harorat ta'sirida yaxshi o'sib rivojlanadigan termofil o'simliklar va past harorat ta'sirida yashovchi psixrofil o'simliklar. Har ikki guruhga mansub o'simlik turlari o'ziga xos moslanish xususiyatlariga ega. Termofil o'simliklar hujayrasi issiqlikka chidamliligi, organlar yuzasining kichrayishi, tuklarning yaxshi rivojlanganligi, efir moylariga ega bo'lishi, o'zidan ortiqcha tuzlarni ajratib chiqarishi, uzoq muddat davomida tinim davrini o'tkazishi va boshqa xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Psixrofil o'simliklar sovuq sharoitni har xil holatlarda (ya'ni tinim yoki vegetatsiya davrida) anotomo-morfologik moslanish orqali o'tkazadi. Bunday moslashishlarga poyasining yer bag'irlab o'sishi, novdaning yotiq yo'nalishi, to'planish bo'g'imi va ildiz bo'ynining yer ostida joylanishi, hazonrezgilik, po'kak qavatning yaxshi rivojlanishi, oq tanaga ega bo'lish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Hayvonlarning haroratga moslashish yo'llari asosan uch xildir, ya'ni kimyoviy, fizik termoregulyatsiya va xulq-atvor moslanishlaridir. Tashqi muhit haroratining pasayishiga javoban faol ravishda tanadan issiq ajralishi kimyoviy termoregulyatsiya deyiladi. Bunday moslashishlarning ko'rinishlari ba'zi bir baliqlarda, hasharotlarda (arilar, kapalaklar) uchratiladi. Tanadan issiq ajratishning o'zgarishi, ya'ni ortiqcha bo'lsa tashqariga chiqarib yuborish yoki uni ushlab qolish fizik termoregulyatsiya deb qaraladi. Bunday yo'l bilan harorat omiliga moslashgan hayvonlarda quyidagi anatomo-morfologik moslashishlar kuzatiladi: tananing junlar bilan

qoplanishi, pat yoki parlarga ega bo'lishi, yog' zahirasining joylanishi, teri yoki nafas yo'li orqali suv bug'latishni boshqarish va hokazo. Ko'pchilik hayvonlar uchun tana haroratini boshqarishda ularning instinktlan kelib chiqadigan harakatlari katta ahamiyatga ega. Bular gavydaning holatini o'zgartirish, boshpana topish, murakkab yer ostki uyalar (inlar) qurish, uzoq va yaqin masofalarga ko'chib yurishlar (migratsiyalar) kiradi. Tana haroratini idora etishda hayvonlarning guruhli hatti-harakatlari ham muhim ahamiyatga ega.

NAMLIK OMILINING TIRIK ORGANIZMLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Quruqlikda yashovchi organizmlarning suvga bo'lgan talabi tuproq va atmosfera namligi hisobiga qondiriladi. Tuproq va atmosferadagi namlikning manbai atmosfera yog'inlari hisoblanadi. Yer sharida atmosfera yog'inlarining yillik miqdori bir necha 10 millimetrdan 3000 millimetrdni tashkil etadi.

Organizmlarning suv bilan ta'minlanganligini baholash uchun faqat yillik atmosfera yog'inlarining miqdorini bilish bilan kifoyanilmaydi, chunki ushbu miqdor cho'l iqlimini yoki juda nam iqlimni ifodalashi mumkin. Yer sharidagi turli joylarda atmosfera yog'inlari bilan bug'lanish nisbati katta ahamiyatga ega. Yillik bug'lanish yillik yog'ingarchilik miqdori yig'indisidan kam bo'lgan joylar arid (qurg'oqchil) oblastlar deb ataladi. Bu yerda yashovchi o'simlik va hayvonlar uchun namlik yetarli bo'lmaydi. Aksincha, yog'ingarchilikning yillik miqdori bug'lanishning yillik miqdoridan ortiq bo'lgan joylar gumid (sernam) oblastlar deyiladi.

Klimodiagrammalar ma'lum joydagi atmosfera yog'inlari bilan haroratning o'zgarishi nisbatini ifodalovchi egri chiziqlardir. Agarda harorat egri chizig'i atmosfera yog'inlari egri chizig'idan yuqorida bo'lsa qurg'oqchil, aksincha holat kuzatilsa, nam yoki ortiqcha nam sharoit hisoblanadi.

Organizmlarning suv bilan ta'minlanishini tavsiflash uchun iqlim sharoitlaridan tashqari muayyan biotopning namlik sharoitini ham bilish kerak. Odatda, o'rtiqcha namlik, namlik, kuchsiz namlik, quruq va boshqa yashash sharoitlari degan tushunchalar ishlatiladi.

Organizmlarning suvga bo'lgan talabi, har xil namlik sharoitlarda yashashi hamda moslashishlariga ko'ra to'rt asosiy guruhga ajratiladi: 1. Suvda yashovchi (o'simliklar-gidrofitlar, hayvonlar-gidrofillar). 2. Ortiqcha namlikda yashovchilar (gidrofitlar, gigrofitlar). 3. O'rtacha namlikda yashovchi (mezofitlar, mezofillar). 4. Qurg'oqchil sharoitda yashovchilar (kserofitlar, kserofillar).

Barcha o'simliklar suv bilan ta'minlanishi yoki namlik sharoitiga moslanishiga ko'ra 5 ta ekologik guruhga ajratiladi: gidatofitlar, gidrofitlar, gigrofitlar, mezofitlar, kserofitlar.

Gidatofitlar – hayoti doimo suvda o'tuvchi, bu guruhga asosan suv o'tlar kiradi.

Gidrofitlar – tanasining bir qismi suvdan tashqarida, qolgan qismi suv qatlamida joylashgan o'simliklardir. Suv nilufarlari, g'ichchak, nayzabarg, o'qbarg va boshqalar shular jumlasidandir.

Gigrofitlar – tuproqda ortiqcha miqdorda namlik yoki suv bo'lgan sharoitda yashovchi o'simliklardir. Ular daryo va ko'l bo'ylari, botqoqliklarda, sernam o'rmonlar va boshqa joylarda o'sadigan o'simliklardir.

Mezofitlar – o'rtacha namlik sharoitida yashovchi o'simliklar bo'lib, ularga ko'pchilik madaniy va yovvoyi holdagi o'simliklar kiradi.

Kserofitlar – qurg'oqchil sharoitda yashashga moslashgan o'simliklardir. Dasht, cho'l va chala cho'l zonalarida keng tarqalgan bu o'simliklar o'z navbatida 2 guruhga ajratiladi: sklerofitlar va sukkulentlar. Sklerofitlar O'rta Osiyo cho'llarida uchrasa, sukkulentlar – tanasida suv saqlovchi kaktuslar hisoblanadi.

Hayvonlar hayotida ham namlik yoki suv muhim rol o'ynaydi. Umuman hayvonlar suvga bo'lgan talabini uch xil yo'l bilan qondiradi: 1. Bevosita suv ichish orqali. 2. O'simliklar bilan ovqatlanish orqali. 3. Metabolizm hodisasi, ya'ni tanasidagi moylar, oqsillar va karbon suvlarining parchalanishi orqali.

Suvni bug'lantirish esa asosan nafas olish, terlash va siydik yo'li orqali bajariladi. Issiq kunlari ayrim sutemizuvchilar suvni haddan tashqari ko'p sarflashlari mumkin. Masalan, inson yoz oylarida, bir kunda 10 litrgacha suvni terlash orqali sarflashi mumkin.

Moslanishlar ham odatda uch xil bo‘ladi: yurish-turish harakati orqali, morfologik va fiziologik moslanish.

Yurish-turish orqali moslanishda hayvonlar, albatta, suvni izlab topish, yashaydigan joyni tanlash, in qazib, unda yashash orqali moslashadilar.

Morfologik moslanish tanasining ustida chig‘anoqlar, sovutlar, qalqon va tangachalar hamda kutikulalar hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Masalan, shiliqqurt, toshbaqa, kaltakesak, qo‘ng‘izlar ana shunday moslashadi.

Fiziologik moslanish esa metabolitik suv hosil qilish orqali amalga oshadi. Masalan, odamlar tanasidan vazniga nisbatan 10% gacha suv yo‘qotishi mumkin. Undan ortiq suv yo‘qotilsa, organizm halok bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlar turli hayvonlarda turlicha, masalan, tuyalar – 27%, qo‘ylarda – 23%, itlarda – 17%, agar bundan oshsa halokat yuz beradi.

Ayrim suvda yashovchi (gidrobiont) hayvonlar suvni yutishi yoki filtratsiya qilish orqali yashashga moslashgan. Natijada suv havzalarida biologik tozalanish sodir bo‘ladi. Masalan, lixet, mishanka, astsidiy, plankton, qisqichbaqasimonlar, midiylar bir sutkada 150–280 m³ suvni tindiradi va tozalaydi. Qurg‘oqchil sharoitda yashovchi suvo‘tlari, lishayniklar va moxlar poykilokserofitlar deb atalib, ular qurg‘oqchil davrlarda qurib qolib, anabioz holatga o‘tadilar va yog‘ingarchilik bo‘lgan vaqtda yana hayotini tiklab davom ettiraveradilar.

Nazorat savollari:

1. Tirik organizmlar qanday muhitlarda tarqalishini tushuntiring.
2. Moslashish tushunchasini izohlab bering?
3. Ekologik omillarni sanab bering.
4. Ekologik omillar orasida antropogen omilning o‘rni qanday kechmoqda?
5. O‘simliklarning qanday hayotiy shakllarini bilasiz?
6. D. N. Kashkarov hayvonlarni harakatlanish bo‘yicha qanday guruhlarga ajratgan?
7. Ekologik nisha nima?

4-MAVZU. POPULYATSIYALAR EKOLOGIYASI

Reja:

1. Populyatsiya haqida umumiy tushuncha
2. Populyatsiyaning xususiyatlari va tuzilmasi
3. Hayvonlarning etologik tuzilmasi
4. Populyatsiyaning gomeostazi

Tayanch soʻzlar: Populyatsiya, gomeostaz, individ, populyatsiyaning tuzilmasi, tsenopopulyatsiya, latent, virgil, generativ, senil, fazoviy, etologik, gala, koloniya, poda.

Ekologlar populyatsiyaning oʻsishi ustida tadqiqotlar olib borishdi. Berilgan maʼlumotlarga koʻra, populyatsiya soni va oʻsishi iqlim sharoitlariga bogʻliq. Populyatsiya sonini oʻsishida jinslar nisbati muhim rol oʻynar ekan.

Bugungi kunda muhim muammolardan biri ayrim populyatsiyalarda individlar sonini aniqlashning murakkabligidir. Masalan: yovvoyi quyonlar populyatsiyada hamma individlarning yer ustiga chiqmasligi ular sonini aniqlashda qiyinchilik tugʻdiradi. Chunki, quyonlarning ayrimlarigina oziq-ovqat uchun yer yuziga chiqadi.

Populytsiya oʻsishi va koʻpayishida suv, ozuqaning kamligi, hududlarining qisqarib borishi va baʼzi resurslarning borligi, baʼzi resurslarning yetishmasligi cheklovchi omil vazifasini bajaradi.

Oʻrmonda yashaydigan tirik jonzoʻtlar har doim ham yetarli ozuqa va yashash joyiga ega boʻlavermaydi. Gida qizilishton Sonoran Arizona choʻli va Meksikada yashaydi. Qizilishton Saguara kaktusida teshik hosil qilish yoʻli bilan uya yasaydi. Qizilishtonlar har bir makon uchun oʻzaro kurashadi. Bellashuv qachonki ikki yoki undan ortiq jonzoʻtlarning bir vaqtda bir xil manbani egallash uchun boʻladi.

Populyatsiya soni. Ekologlar zimmasiga populyatsiya sonini baholash vazifasi yuklatiladi. Bu maʼlumotlar populyatsiyaning oʻsishi yoki, aksincha, holatni koʻrsatib beradi. Populyatsiya hisobi yoʻqolib ketish havfida turgan organizmlarni aniqlab bera oladi.

Ba'zi tirik organizmlarni o'lchash oson kechadi. Agar siz qora chigirtkalarni ko'paytirayotgan bo'lsangiz siz konteynerdagi barcha chigirtkalar sonini hisoblash orqali aniqlashingiz mumkin. Agarda siz 2 ta konteynerdagi qora chigirtkalar sonini aniqlamoqchi bo'lsangiz nima qilasisiz? Siz konteyneringizning metr kvadratidagi ma'lum chigirtkalarni sanashingiz mumkin. Ma'lum hududdagi ajratilgan qism "populyatsiya zichligi" deyiladi.


Populyatsiya o'lchami. Qora chigirtkalar sonini sanash tadqiqotchini chalg'itishi mumkin. Ular juda bir-biriga o'xshash, tez harakatlanadi va berkinadilar. Ba'zi bir qora chigirtkalar bir necha maratobadan ko'p sanalishi mumkin va boshqalari esa umuman qolip ketadi. Ekologlar yovvoyi tabiat populyatsiya o'lchamlarini hisoblayotganlarida bir xil muammoga duch keladilar. Ular foydalanadigan eng qulay usullardan biri "**Qopqon qo'yib belgilamoq**" deb nomlanadi. Masalan, yavvoyi quyonlarni hisoblashni faraz qilib ko'ring. Quyonlar yer ostida yashaydilar va qorong'u chuqurliklardan chiqib keladilar va tunda oziqlanadilar. Ekologlar ularni jarohat yetkazmasdan qo'lga tushuradilar. Har bir qopqonga tushgan quyon belgilanadi va qo'yib yuboriladi. Keyin boshqa oddiy quyon qo'lga olinadi. Ba'zi quyonlar belgilanadilar, ba'zilar yo'q. Belgilangan va belgilanmagan quyonlarni solishtirish orqali o'lchov hajmini aniqlaydilar.

Populyatsiya o'sishini cheklovchi omillar. Bellashuv tirik organizmlar (populyatsiya) o'lchamini cheklaydi. Agarda mavjud yashash hududlari soni cheklansa, ba'zi qizilishtonlar ko'paymaydilar. Gila qizilishtoni kaktus mevalari, maymunjon va hasharotlar bilan oziqlanadi. Agarda ozuqa taqchillashsa, ba'zi qizilishtonlar ko'paya olmaydilar. Ozuqa, yashash joyi yoki boshqa manbalar uchun belashuv populyatsiya o'sishini cheklab qo'yishi mumkin. Tabiatda qizg'in bellashuvlar, asosan, bir turdagi organizmlar o'rtasida sodir bo'ladi. Chunki ularga bir xil ozuqa va boshpana kerak bo'ladi. Bellashuv yana har xil turlar o'rtasida ham sodir bo'ladi. Misol uchun Gida qizilishtoni o'z inini tark etgandan so'ng, boyqushlar, ko'rshapalaklar, ilonlar va kaltakesaklar bo'sh qolgan boshpana uchun belashishlari mumkin.¹⁰

¹⁰ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (10-16-betlar).

Populyasiya zichligi. Populyatsiyalar ekologiyasining predmeti populyatsiyaning tuzilishi, dinamikasini, yoshi va jinsini o'rganishdan iborat. Chunki ular hosildorlik va ko'payish xarakterini ko'rsatadi, bu esa yashash sharoitiga moslashish o'lchamini yuzaga keltiradi. Populyatsiyalar ichida organizmning o'sishi, rivojlanishi tashqi muhitga qarab o'zgarib boradi. Populyatsiyada absolyut va nisbiy zichliklar ajratilib, absolyut zichlik ma'lum maydon birligiga to'g'ri keluvchi populyatsiyaning miqdori bo'lsa, nisbiy zichlik ma'lum maydon birligidagi individlar sonini bildiradi. Nisbiy zichlik orqali populyatsiyaning ko'payishi yoki kamayishi haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi. Populyatsiyaning zichligi vaqt davomida o'zgarib turadi. Har qanday o'zgarishning quyi va yuqori chegaralari, shuningdek o'rtacha o'lchamlari bo'ladi. Populyatsiya zichliining yuqori chegarasi individlar sonining ortib ketishi va o'z-o'zini cheklashi bilan bog'langan, quyi chegarasi esa populyatsiyaning kelajakda yashay olishi yoki o'limga yuz tutishi, yani minimal o'lchamga tushib qolishi bilan belgilanadi. Har bir populyatsiya ma'lum sharoitda o'rtacha zichlikka ega bo'ladi, bunda barcha hayotiy jarayonlar samarali borib, uning natijasi populyatsiyaning yuqori mahsuldorligi, hayotchanligi va boshqalarda ko'rinadi (1–2-rasmlar).

Ozuqa zanjiri. 1-rasm



Pygmy owl – boyqush, gila woodpeckers-qizilishton, lizard – kaltakesak.



2-rasm. Hayvonlar populyatsiyasining abiotik omillar bilan aloqasi¹¹

QO‘SHIMCHA MA‘LUMOTLAR POPULYATSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Ekologik nuqtai nazardan populyatsiya deb uzoq muddat davomida muayyan bir joyda yashaydigan (yoki o‘sadigan) va bir turga mansub bo‘lgan individlar yig‘indisiga aytiladi.

Bir populyatsiyaga mansub individlar shu turning boshqa populyatsiya individlariga nisbatan bir-biri bilan erkin va oson chatishadi. Populyatsiyaning asosiy xususiyati uning genetik birligidir.

Populyatsiyaning muhim xususiyatlaridan yana biri o‘zini son jihatidan idora etishidir. Ayni sharoitda optimal sonda individlarning saqlanib turilishi populyatsiya gomeostazi deyiladi. Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, populyatsiya guruhli birlashma hisoblanadi. Guruhli hayot tarzi populyatsiya uchun o‘ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday xususiyatlar quyidagilardan iborat: 1. Populyatsiyaning soni, 2. Zichligi, 3. Tug‘ilish, 4. O‘lish (nobud bo‘lish), 5. Populyatsiyaning o‘sishi, 6. O‘lish sur’ati.

¹¹ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-betlar).

Individlarning ma'lum hududda tarqalishi, jins va yosh nisbatlari, morfologik, fiziologik, hulqiy va genetik xususiyatlari populyatsiyaning tuzilmasini ifodalaydi.

Populyatsiyaning tuzilmasi. Har qanday tur populyatsiyalar tizimidan tarkib topadi. Uning tuzilmasini esa individlarning harakatlanishi yoki ma'lum hududga bog'liqlik darajasi, tabiiy to'siqlarni engib o'ta olishi kabi biologik xususiyatlari belgilab beradi.

Populyatsiyaning jins tuzilmasi. Populyatsiyaning jins tuzilmasi turli yoshdagi guruhlardagi erkak va urg'ochi individlarning son jihatdan nisbatidir. Populyatsiyadagi jinslar nisbati, birinchidan, jinsiy xromosomalarning qo'shilishi bilan, ya'ni genetik qonuniyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ma'lum darajada tashqi muhit ham ta'sir etishi mumkin.

Populyatsiyaning yosh tuzilmasi. Populyatsiyaning yosh tuzilmasi qayta tiklanishning jadalligi, nobud bo'lish darajasi va nasllar gallanishining tezligi kabi muhim jarayonlarni ifodalaydi.

O'simliklar populyatsiyasining yosh tuzilmasi. Fitotsenozdagi muayyan turlarning, har xil holatlardagi individlarning yig'indisi tsenopopulyatsiya deb ataladi. Uni agar gulli o'simliklar misolida ko'radigan bo'lsak, unga tuproqda (yoki uning yuzasida) o'z hayotchanligini yo'qotmagan urug'lar, nihollar va har xil yoshdagi individlar kiradi.

T. Rabotnov o'simliklar jamoasidagi o'simliklarning hayotini quyidagi asosiy yosh davrlariga ajratadi:

a) latent davri. Bunda o'simlik spora, urug' yoki mevalar holida tinim davrida uchraydi. Tinim davri har xil o'simliklarda turlicha davom etadi. Masalan, terakning urug'i hayotchanligini 3–4 kundan to 3 haftagacha saqlay oladi, ba'zi bir begona o't o'simliklar esa urug'ining hayotchanligini bir necha o'n yillab saqlay oladi. Tuproqda turli o'simliklarning ko'p sonidagi urug'larini topish mumkin. Ular qulay sharoit vujudga kelganda unib chiqish xususiyatiga ega. Shu bilan birga har yili yangi urug'lar tuproqqa tushib turadi.

B) virgil davri. Bu davr o'simlikning nihollik, yosh o'simlik va voyaga etgan holatidir. Nihollar yosh o'simliklardan urug'palla barglarining bo'lishi bilan farqlanadi.

V) generativ davr. Oʻsimlik hayotida sporalar yoki urugʻlar bilan koʻpayishning boshlanishi bilan tavsiflanadi.

G) senil (qarilik) davri. Oʻsimlikning yoshi ortishi bilan generativ koʻpayish xususiyati yoʻqoladi, ana shunga senil davri boshlanadi.


Populyatsiyaning yosh tuzilmasi oʻsimlik va hayvonlarda ham bir necha omillarga bogʻliq. Birinchi navbatda balogʻatga, voyaga etish vaqti, umr koʻrish muddati, koʻpayish davri muddati, avlodlar davomiyligi, ota-onasidan bir vaqtda tugʻiladigan individlarning bunyodga kelish muddati, har xil jins va yoshdagi individlarning nobud boʻlish xarakteri, populyatsiyaning son jihatdan oʻzgarib turish dinamikasi kabilarga bogʻliq.

Populyatsiyaning fazoviy tuzilmasi populyatsiya maydonidagi ayrim individlar va guruhchalarning tarqalish xarakterini ifodalaydi.

Individlarning uch turdagi tarqalishi maʼlum: bir tekis, tasodifiy va guruhli (toʻda-toʻda). Individlar bir tekis tarqalganda xuddi mevali daraxtlar bogʻda oʻtkazilganidek, bir-biriga nisbatan bir xil masofada joylashadi.

Tasodifiy tarqalishda individlar bir-biridan har xil masofada joylashadi. Bunday joylashish populyatsiyaning zichligi kam boʻlgan bir xil muhitda uchratiladi.

Tabiatda guruhli tarqalish turi koʻp uchraydi. Bunda individlar toʻda hosil qilib bir-biridan turlicha masofada joylashadi.



HAYVONLARNING ETOLOGIK TUZILMASI

Etologiya (yunoncha “ethos” – xarakter) hayvonlar xatti-harakati (hulqi)ning biologik asosi haqidagi fandir. Hayvonlarning xulqi ularning hayot kechirish tarzi bilan bog‘liq. Odatda hayvonlar yolg‘iz va birgalikda hayot kechiradi.

Individlarning jinsiy moyilligi va ota-onalar bilan yangi avlod o‘rtasidagi bog‘lanishlar, hududiy umumiylik, nasl uchun qayg‘urish natijasida oila deb atalgan hayvonlarning birgalikda yashash shakli kelib chiqadi.

Hayvonlarning ancha yirik birlashmalari podalar, galalar va koloniyalar hisoblanib, ularning shakllanishida populyatsiyalardagi xulqiy munosabatlar yanada murakkablashadi.

Koloniyalar o‘troq hayot kechiruvchi hayvonlarning birgalikdagi yashashidir.

Galalar bir turga kiruvchi ba’zi guruh hayvonlarning biron-bir biologik jihatdan foydali harakatni amalga oshirish uchun vaqtinchalik birlashishi hisoblanadi.


Podalar galalarga nisbatan hayvonlardagi ancha uzoq muddat davomida doimiy birlashish shaklidir. Podalar odatda tur uchun xos bo‘lgan barcha funksiyalarni, ya’ni ozuqa topish, yirtqichdan saqlanish, migratsiya, ko‘payish va bolalarni tarbiyalash kabilarni amalga oshiradi. Podalardagi hayvonlarning guruhli xulqiy xatti-harakatlari “hukmdor” va “itoatkor” asosidagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topadi.

Hayotchanlik egri chizig‘i

Hayotchanlik egri chizig‘i 4 turga ajratiladi:

1. Kuchli qabariq hayotchanlik egri chizig‘i;
2. Oraliq hayotchanlik egri chizig‘i;
3. Botiq hayotchanlik egri chizig‘i;
4. Pog‘onali hayotchanlik egri chizig‘i.

Hayotchanlikning har xil egri chiziqlari.



Populyatsiyaning gomeostazi. Populyatsiya gomeostazi. Populyatsiyaning son jihatidan bir me'yorda saqlanib turishi gomeostaz (yunoncha “gomeo” – o‘xshash, statis – holat) deyiladi.

Populyatsiyaning zichligini boshqarish o‘simliklarda hududni hisobga olgan holda o‘z-o‘zini siyraklantirish, vegetativ quvvatini oshirishda namoyon bo‘lsa, hayvonlarda esa ozuqa zahiralari cheklangan holatda ro‘y beradi. Ko‘pchilik turlar populyatsiyasining o‘shishini sekinlashtiruvchi mexanizmlardan biri individlarning o‘zaro kimyoviy ta’sir etishidir.

Hayvonlardagi hududiy xatti-harakatlar instiktlar tizimi sifatida kelib chiqqan bo‘lib, u populyatsiyaning ayni bir maydonda son jihatidan o‘shishini boshqarishning samarali mexanizmlaridan hisoblanadi (1-ilova).

Nazorat savollari:

1. Populyatsiya tushunchasini izohlab bering.
2. Populyatsiyaning xarakterli belgilarini tushuntiring.
3. Populyatsiyaning genetik xarakterini izohlang.
4. Populyatsiyalar ekologiyasining qanday ahamiyati bor?

5-MAVZU: EKOTIZIMLAR EKOLOGIYASI

Reja:

1. Ekotizim tushunchasi.
2. Suksessiya.
3. Jamoalar ichidagi o‘zaro aloqalar.
4. Energiya piramidasi.
5. Akvatik ekotizimlar.
6. Agroekotizimlar.

Tayanch so‘zlar: jamoa, ekotizim, biotsenoz, biogeotsenoz, fitotsenoz, ekologik tuzilma, ozuqa zanjiri.

Wyomingdagi Yellowstone Milliy bog‘iga tashrif buyurib siz u yerda xuddi ikki shakldagi bir xil dasht manzarani ko‘rishingiz mumkin. Bizda o‘tli dashtda bizonga ergashgan qushlar uning atrofidagi kasallik tarqatuvchi chigirtkalarni tutadi. Bu manzara dasht hududini bir qismidir. Ekotizim barcha turdagi organizmlar yashaydigan hudud, shuningdek uning ichiga hayot mavjud bo‘lmagan hududlar ham kiradi. O‘simliklar, bizon, qushlar va hasharotlar, shu dasht ekotizimida birgalikda yashaydi. Suv, harorat, quyosh nuri, havo, tuproq dasht ekotizimining jonsiz omillaridir.¹²

Ekologik suksessiya. Agar uyingizdagi maysalar umuman o‘rilmasa nima bo‘lgan bo‘lar edi? Maysalar uzun bo‘lib ketar edi va tez orada yaylov kabi ko‘rinishga ega bo‘lar edi. Keyinchalik hududga hayvon yoki shamol orqali kelib qolgan urug‘lardan o‘simliklar o‘sa boshlaydi. Keyin esa daraxtlar unib chiqa boshlaydi. Aslida esa 20 yilda biror marta bo‘lsa ham maysalar o‘t o‘rish mashinasida o‘rilgan deb aytish qiyin. Ekologlar sizning maysazoringiz qaysi ekotizim turiga kirishi haqida aytib bera olishadi. Agar bu o‘rmon bo‘lganda edi, ular sizga bu yerda o‘sayotgan daraxtlar turi hamda ular o‘sishi uchun qancha vaqt talab qilishi haqida oldindan aytib bera olishar edi. Hududda yashaydigan turlardagi bosqichma-bosqich sodir bo‘ladigan

¹² Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (10-75-betlar).

o'zgarishlar ularning uzluksizligi normalligini bildiradi. Ketma-ketlik dunyo bo'ylab turli joylarda turlicha sodir bo'ladi.

Asosiy suksessiya. Lava vulqonlar og'zidan otiladi va u yo'lida uchragan hamma narsalarni yo'q qila oladigan darajada juda qaynoq. U sovigandan so'ng esa toshdan iborat bo'lgan yerning bir shakliga kiradi. Bir kun kelib bu yerlar o'rmon yoki maysazorga aylanishini tasavvur qilish qiyin. Bu jarayon dastlab asosiy ketma-ketlik deb nomlangan o'simlik mavjud bo'lmagan joylardan boshlanadi. Bu jarayon uchib kelgan lishayniklar bilan birga boshlanadi. Bu turlar doimiy turlar deb ataladi qaysiki bir joyda doim yashovchi turlardir. Ular qurg'ochilikdan, yuqori haroratdan, sovuqdan va noqulay sharoitdan jon saqlab qolishadi va tez-tez tuproqqa aylanishadi.¹³

O'rmon ekotizimi. O'rmon ekotizimi bo'ylab sayohatni tasavvur qilib ko'raylik. Daraxtlar, butalar, mayda o'simliklardan iborat. Bu yerda biz olmaxon, qushlar va hasharotlarni korishimiz va ularning ovozini eshitishingiz mumkin. Yana maymunjon va qo'ziqorinlarni ham ko'rishingiz mumkin. Bu yuzlab turlar yashaydi. Hozir esa bug'doy dalasini tasavvur qiling. Siz bu yerda bir nechtagina turni uchratishingiz mumkin: bug'doy o'simligi, hasharotlar va begona o'tlardir. O'rmon bug'doy dalasidan ko'ra ko'proq turdagi o'simliklardan iborat. O'rmon yuqori darjadagi biologik xilma-xillik yani bioxilma-xillikdan iborat. Bioxilma-xillik ekotizimda hayotning turli tumanligini anglatadi.

Bioxilma-xillik o'lchami. Bioxilma-xillik o'lchovi odatda bir hududda yashaydigan turlarning son bilan o'lchanadi. Masalan, marjon qoyalar minglab marjon turlariga, baliqlar, suv o'tlari, gupka, faraplar va chuvalchanglar uchun makon bo'la oladi. Marjon qoyalar sayoz oquvchi suvlardan ko'ra, ko'proq bioxilma-xillikka ega. Dastlab chuqur dengiz tadqiqotchilari kamdan-kam organizmlar chuqur dengiz tubida, qorong'ulikda yashay olishmaydi, deb hisoblashgan. Shunga qaramasdan marjon qoyadagi turlarga nisbatan kamroq bo'lsada u yerda organizmlar yahsamoqda. Bilamizki, chuqur dengiz tubidagi bioxilma-xillik huddi marjon qoyalardagidek noyob.

Bir ko'lmak baliq bir krevetka. Yo'qolib borayorgan turlar Kaliforniyaning markaziy vodiysidagi mavsumiy suv havzalarida

¹³ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-betlar).

yashaydi. Ifloslanish shahar urbanizatsiyasi kengayishi va boshqa ta'sirlar vodiydagi 90 % bahoriy ko'lmaklarni yo'qolib ketishiga olib kelmoqda. Turlarning yo'qolib borishi, ularning kelib chiqishi va paydo bo'lishi holatlarining beqaror bo'lib borishiga sabab bo'lmoqda.

Kaliforniya kondori. Bu noyob tur-kondorning yo'qolib ketish xavfi XX asr oxirlariga kelib kuchayib ketdi. Ba'zi kondorlar yovvoyi tabiat qo'yniga asrab qolindi.

Haleakala silvers word o'simligi. Dunyoning eng ta'sirchan o'simliklaridan va yo'qolish xavfi ostida bo'lgan bu tur hozirda qayta tiklanmoqda. Rasmda Gavaya Haleakalasining gullashi tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm.

Cho'l toshbaqasi

Yo'qolib borayotgan cho'l toshbaqasi kelajagi beqaror bo'lib bormoqda. Insoniyat taraqqiyoti AQShning janubi-g'arbida yashaydigan cho'l toshbaqasining vatanining qisqarib borishiga sabab bo'lmoqda.¹⁴

Janubiy dengiz suvsari. Dengiz suvsari Tinch okeanining AQShga tegishli qismidagi sayoz suv havzalarida yashaydi. Asrlardan buyon dengiz suvsarlarining qimmatbaho terisi uchun ovlanib kelinadi.

Energiya oqimi. Barcha tirik organizmlar moddalardan tashkil topgan va ularning barchasi energiyaga muhtoj. Moddalar esa takror va takror aylanadi. Moddalar va energiya tabiiy dunyoga turli xil yo'llar bilan ko'chiriladi. Moddalarning qayta ishlatilishi energiyani talab qiladi. Energiya qayta ishlanmaydi, ammo u bir shakldan boshqa shaklga o'tadi. Energiyaning boshqa shaklga o'tishi Yerdagi hayot uchun muhim.


Fotosintez. Fotosintez jarayonida yorug'lik energiyasi glyukoza molekulalarida kimyoviy energiyaga aylanadi. Gyukozaning bir qismi energiya sifatida va yana bir qismi o'simlik organlarida zahira sifatida to'planadi.¹⁵

Konsumentlarning 4 ta kategoriyasi. 2-rasm



¹⁴ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (8-75-betlar).

¹⁵ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)



3-rasm. Ozuqa zanjiri. ¹⁶

Ma'lumki, yashil o'simliklar hayot uchun zarur bo'lgan kimyoviy moddalarni olib, fotosintez jarayonida organik birikmalar to'playdi va quyosh energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi. Ular hayvonlarga ozuqa beradigan tirik moddaning asosiy qismini tashkil etadi. Havo tarkibidagi kislorod va karbonat ангидрид газларining miqdorini tiklaydi va suvning aylanish jarayonida qatnashadi. Bunday organizmlar avtotrof organizmlar deyiladi. O'simliklar va boshqa jonivorlar bilan oziqlanib yashovchi geterotroflar esa oziqlanish jarayonida organik moddalarni karbonat ангидрид, suv va mineral tuzallarga aylantiradi. Shunday qilib, ekotizimdagi energiya oqimi avtotrof va geterotrof organizmlar o'rtasida boradi. Geterotrof organizmlar safiga kiruvchi redutsentlar murakkab organik moddalarni mineral birikmalarga aylantiradi. Demak, avtotrof organizmlar o'plagan mahsulot va undagi energiya boshqa organizmlar o'rtasida ozuqa zanjiri orqali taqsimlanadi. Ozuqa zanjiri deb, har bir organizm o'zidan keyinda turgan organizm uchun ozuqa bo'lib xizmat qilishi tushuniladi (4-rasm). ¹⁷

¹⁶ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

¹⁷ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)



Ekosistema ko‘rinishi (4-rasm).

JAMOALAR ICHIDAGI O‘ZARO ALOQALAR

Biotsenoz komponentlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar turli xil shaklda bo‘ladi. Ana shunday munosabatlarning bir necha xillari bo‘lib ular quyidagilardan iborat.


Neytralizm – (0:0) bunda ikki populyatsiyadagi asotsiatsiyalarda o‘zaro ta’sir sezilmaydi, ikki populyatsiya individlari ham deyarlik bir xilda yashaydi. Masalan, sherlar o‘tlar bilan oziqlanmasalar ham, savannalardagi yaylovlarning holati ular uchun farqsiz emas. Chunki ularning ovqati bo‘lmish antilopalar hosildor yaylovlarda ko‘p bo‘ladi.

Konkurentsiya (raqobatlilik) (-, -) – bunda ikki populyatsiyalar bir-birlariga to‘sqinlik qiladilar, ya’ni bir populyatsiya ikkinchi populyatsiya bilan defitsit resurslarni o‘zlashtirishda kurashadilar.

Amensalizm (-, 0) – bunda bir populyatsiya o‘ziga zarar keltirmasdan ikkinchi populyatsiyaning yashashiga to‘sqinlik qiladi yoki uni o‘sishga qo‘ymaydi. Amensalizmga tipik misol qilib antibiotik zamburuqlar – aktinomitsetlar yoki o‘simlik fitontsidlarining parazit mikroorganizmlarga ko‘rsatgan ta’sirini olish mumkin. Amensalizm hodisasini suvning gullashida ham ko‘rish mumkin, ya’ni ko‘payib chiriyotgan ko‘k – yashil suvo‘tlardan ajralib chiqqan toksinlar (zaharli moddalar) ko‘pchilik zooplanktonlarning o‘limiga sabab bo‘ladi yoki ularni siqib chiqaradi. **Parazitizm va yirtqichlik** –


bunda bir populyatsiya ikkinchi populyatsiyaga hujum qilib, uning yashashiga zarar keltiradi, biroq o'zining kelgusidagi hayoti ham o'ljasiga bevosita boqliqdır. Agar jamoadagi bir populyatsiya yirtqich (birlamchi konsument)-odatda hayvonlar o'ljasi yoki «xo'jayini» – birlamchi produtsent (o'simlik) bo'lsa, ular o'simlikxo'rlar deyiladi. Agar bir populyatsiya ikkinchi populyatsiya uchun zararli bo'lgan moddalarni ishlab chiqsa, bunda allelopatiya yoki antibioz mikroorganizmlar deyiladi. **Kommensalizm** – bunda bir populyatsiya ikkinchi populyatsiya bilan birlashganda foyda ko'radi, bu birlashish ikkinchi populyatsiya uchun esa ahamiyatsiz yoki uning uchun befarq bo'ladi. Bu birlashish simbiozning shunday bir shakli, bundagi partnyorlarning bittasi ikkinchisiga (xo'jayiniga) tashqi muhitga bo'lgan munosabatlarini bajarishni yuklaydi, o'zi esa tashqi muhit bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanmaydi. Ular orasida antoganizm ham bo'lmaydi. Umumiy maydon, substrat, ozuqa, harakatlanish-kommensial munosabatlarning asosini tashkil etadi. Masalan, daraxtlarda in qurib yashovchi qushlar, akulalarda yopishib yashovchi lotsman baliqlari, axlatlar bilan oziqlanadigan sinantrop yumronqoziq populyatsiyalari va qushlar ham kommensalizmga misol bo'la oladi.

Organizmlar o'rtasida produsentlar va konsumentlar farqlanib, ular bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Shuningdek ular ozuqa zanjirini ham hosil qiladi, simbiotik aloqani vujudga kelishida ishtirok etadi (5–6–7–8-rasmlar).




Ko'lmak suvdagi produsentlar. 5-rasm

Euglena va algae kabi organizmlarning ko'lmakda rivojlanishi rasmda ko'rsatilgan.



Ozuqa zanjiri. 7-rasm

Ozuqa zanjiri ekotizimdagi kiyik va arslon o'rtasidagi munosabatda ko'rinadi.



Simbiotik aloqalar. 8-rasm¹⁸

Rasmda mutualizm, kommensalizm va parazitlik munosabatlari tasvirlangan.

ENERGIYA OQIMI

Barcha tirik organizmlar moddalardan tashkil topgan va ularning barchasi energiyaga muhtoj. Moddalar esa takror va takror aylanadi. Moddalar va energiya tabiiy dunyoga turli xil yo‘llar bilan ko‘chiriladi. Moddalarning qayta ishlatilishi energiyani talab qiladi.

¹⁸ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

Energiya qayta ishlanmaydi, ammo u bir shakldan boshqa shaklga o'tadi. Energiyaning boshqa shaklga o'tishi yerdagi hayot uchun muhim (9-rasm).



Suvdagi energiya oqimi. 9-rasm

Ozuqa zanjiri deb, har bir organizm o'zidan keyinda turgan organizm uchun ozuqa bo'lib xizmat qilishi tushuniladi (10–11-rasmlar). U organizmlarning trofik darajasiga ko'ra uch-besh halqadan iborat:


1. Producers (o'simliklar).
2. Birinchi darajali kontsumentlar (o'txo'r hayvonlar).
3. Ikkinchi darajali kontsumentlar (o'txo'r hayvonlar biomassasi bilan oziqlanuvchi etxo'r hayvonlar).
4. Uchinchi darajali kontsumentlar (etxo'r hayvonlar biomassasi bilan oziqlanuvchi etxo'r hayvonlar).
5. Producers va 1, 2, 3-darajali kontsumentlar biomassasi bilan oziqlanuvchi to'rtinchi darajali kontsumentlar. Organizm tomonidan ozuqa bilan qabul qilingan energiya ozuqa zanjiri bo'ylab organizmdan – organizmga o'tishda zanjirning har bir halqasida birin-ketin kamayadi va oxirida yo'qolib ketadi.

Masalan: tariq – hasharot – qurbaqa – ilon – kalxat.

Demak, ozuqa zanjiridagi har bir bo'g'inning o'zini trofik darajani tashkil etadi. Trofik zanjirlar fotosintez hosil qiluvchi organizmdan

boshlansa, sarflanish zanjiri deyiladi. Masalan, o‘simlik – kiyik – bo‘ri –tariq – hasharot – qurbaqa – ilon – kalxat. Agar ozuqa zanjiri o‘simlik qoldiqlari, hayvon jasad yoki chiqindilardan boshlansa, parchalanish (detrit) zanjiri deyiladi. Masalan, to‘kilgan barg – yomg‘ir chuvalchangi – qorayaloq – qirg‘iy. Trofik darajalar o‘rtasidagi energiya oqimi turli ekotizimda turlicha boradi. Ekotizimlarning biologik mahsuldorligi ekologik piramida (grekcha, piramidos – ko‘p qirrali + oikos – uy, vatan) – biomassa piramidasining o‘zi deyish mumkin, ammo undan farqi shundaki, ekologik piramida quyidagi 4 ta qoidaga asoslanib quriladi:


1) ikkilamchi biomahsulotning vazni birlamchi biomahsulot vaznidan doimo kam bo‘ladi; 2) iste’mol qilinadigan organizmlarning vazni iste’mol qiluvchilar vaznidan doimo ko‘p bo‘ladi; 3) biomahsulot hosil qilish tezligi ikkilamchi biomahsulot hosil qiluvchilarning qisqa yashaydiganlarida ularning uzun umr ko‘radiganlariga nisbatan tez kechadi (serpushtlik, tez ko‘payish va vazn orttirish tezligi hisobiga); 4) ekologik piramidaning yuqori pog‘onalariga ko‘tarila borgan sari organizmlar soni kamayadi¹⁹.



Energiya piramidasi. 10-rasm

¹⁹ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

Fotosintez jarayoni. 11-rasm²⁰



EKOTIZIMLAR QANDAY O‘ZGARADI

Suksessiya – inson faoliyati yoki tabiiy omillar ta’sirida Yer yuzining muayyan joyida biotsenozlarning ma’lum tartibda, birin-ketin almashishi. Ekologik suksessiya (“sukredo” – ketma-ketlik, degan ma’noni bildiradi) deb atalib, ekotizimlarda kuzatiladigan qonuniyat hisoblanadi. Birlamchi va ikkilamchi suksessiyalar farqlanadi. Birlamchi suksessiya – hali tuproq hosil bo‘lmagan substratda (tog‘ toshlari, yangi allyuvial cho‘kindilarda) biotsenozlarning endigina o‘zgarishga boshlagan jarayoni bo‘lib, bu jarayon natijasida nafaqat o‘simliklar paydo bo‘ladi, balki tuproq ham hosil bo‘ladi. Ikkilamchi suksessiya ma’lum bir joyda shakllangan biotsenozlarning buzilib ketishidan (eroziya, qurg‘oqchilik, yong‘in, o‘rmonni kesib yo‘qotish, vulqonlar otilishi, tog‘-kon ishlari va hokazolar natijasida) kelib chiqadigan biotsenozlar almashinishi. Masalan: botqoqning quritilishi natijasida botqoqlik biogeotsenozi o‘tloq biogeotsenozi yoki agrotsenoz (sun’iy) bilan almashinadi. Yong‘indan keyin o‘rmon biogeotsenozi o‘rniga o‘tloq biogeotsenozi hosil bo‘ladi. Suksessiya yakunida juda

²⁰ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

sekin rivojlanadigan klimaks hamjamiatlari hosil boʻladi. Masalan: **klimaks jamoalar** quyidagicha boʻladi: Boʻsh yer – lishayniklar – mox – qirgʻuloqlar – butalar – oʻt – oʻsimliklar – daraxtlar (12–13-rasm).



Yangi tuproqning hosil boʻlishi. 12-rasm²¹




Klimaks jamoalar. 13-rasm

²¹ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

AKVATIK EKOTIZIMLAR

Suv eng qimmatli tabiiy resurs. U hayotni tashkil qiluvchi moddalar almashinuvi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Suv sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda, maishiy turmushda katta ahamiyatga ega. Suv Yer yuzasining shakllanishida ishtirok etadi, tabiatda aylanib turadi, shuningdek iqlimni, ob-havoni shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Suv dunyoning eng katta boyligi, ammo chuchuk suv zahirolari cheksiz emas. Yer sharining ko'pgina rayonlarida, chuchuk suv tanqisligi dolzarb muammo hisoblanadi. Suv resurslari okeanlar, dengizlar, daryo va ko'llar, qutb va tog'likdagi muzliklar, yer osti suvlari, tuproq va havodagi namlikdan iborat. Chuchuk suvlar asosan Antarktida muzliklarida, Grendandiya, qutbdagi orollar va tog'larda joylashgan (14–15-rasm).²²



Suv ekosistemesi. 14-rasm

Dunyoning ko'pgina rayonlarida chuchuk suv tanqisligi kuza-tiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda har xil maqsadlarda foydalani-ladigan suv sarfi 150 km^3 ni tashkil qiladi. Tahminan insoniyatning 1/3 qismi "suv ocharchiligi"ga duchor bo'lgan. Suv resurslarini if-loslanish manbalari asosan qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda, mineral o'g'itlar va turli pestitsidlardan suv bilan birga yuvilib oqova

²² Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (51-53-64;126;132-betlar)

suv hosil qilishi, chorvachilik komplekslari orqali ochiq suv havzalari va yerosti suvlarini ifloslanishi, sanoat ishlab chiqarish korxonalari suvni og‘ir metall ionlari va turli xil zaharli moddalar bilan ifloslab oqova suvlarni hosil qilishidir. Bunday suvlar tarkibida, sanoat korxonalaridan og‘ir metallar, fenol, xlor, kaprolaktom, neft mahsulotlari, biologik va kimyoviy ifloslantiruvchi moddalar uchraydi.



Ko‘l ekotizimi. 15-rasm

Suv resurslarini ifloslantirishda temir yo‘l, aviatsiya transport vositalari, shuningdek avtokorxonalarining ham hissalar bor. Maishiy chiqindilar aholining o‘ssishi, yangi shaharlarning barpo qilinishi tufayli oqova suvlarni ko‘payishiga olib keladi. Maishiy turmushdagi oqova suvlar daryo va ko‘l suvlarini kasallik tug‘diruvchi bakteriyalar va gelmintlar bilan ifloslanish manbai bo‘lib qolgan, shu bilan birga suv havzalarini maishiy turmushda keng foydalanayotgan sintetik yuvuvchi vositalar ifloslantirmoqda.

JAMOA, BIOTSENOZ VA BIOGEOTSENOZ HAQIDA TUSHUNCHALAR

Jamoa deyilganda rivojlanishning turli pogʻonasida boʻlgan bir guruh tirik organizmlarning muayyan sharoitda birgalikda yashashi tushuniladi.

Biotsenoz yoki hamjamoa deyilganda bir xil muhitga moslashib olgan bir joyda yashaydigan organizmlar yigʻindisi tushuniladi. Biotsenoz ham populyatsiya kabi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, bularga turlar tarkibi, ozuqa toʻrining tuzilmasi, biomassa va uning mahsuldorligi kabilarni koʻrsatish mumkin.

Biotsenozning eng muhim xususiyatlaridan biri uning turlar tarkibidir. U ayrim turlar populyatsiyalarining miqdori nisbatini ifodalaydi.

Muayyan tashqi muhit sharoitida oʻsimliklar, hayvonlar, ayrim zamburugʻlar va mikroorganizmlarning birgalikda yashashiga biogeotsenoz deyiladi.

BIOTSENOZNING TUZILMASI

Biotsenoz ham xilma-xil tuzilmaga ega. Odatda u tur, fazo va ekologik tuzilmalarga boʻlib oʻrganiladi. Biotsenozning tur tuzilmasi deyilganda biotsenozdagi turlarning xilma-xilligi, miqdori, ularning fenologik holati va hokazolar eʼtiborga olinadi.

Biotsenozning eng muhim xususiyatlaridan biri uning turlar tarkibidir. Ayni bir biotsenoz uchun xos boʻlgan oʻsimlik va hayvon turlarining umumiy soni deyarli doimiy boʻlib, har xil turdagi biotsenozlarda u keskin oʻzgarib turadi.

Biotsenozning fazoviy tuzilmasi. Har qanday jamoa uning tarkibiy qismi hisoblangan oʻsimlik bilan bogʻlangan. Jamoaning shakllanish davrida turlar har xil holatlarda joy oladi. Baʼzi bir turlar tuproqda, ikkinchilari uning yuzasida, suvli joyda va hatto troposferaning ancha yuqori qismlarida tarqalishi mumkin. Baʼzi bir turlar daraxt tanalarida (epifit) va barglarida (epifil) yopishgan holda yashaydi. Natijada fitotsenozning tuzilishida qavatlilik kelib chiqadi. Qavatlilik deyilganda jamoadagi turlarning tuproq yuzasiga nisbatan har xil

balandliklarda qavatma-qavat joylashganligi va uning qatlamida har xil joylashishi tushuniladi.

Qavatlilik, ayniqsa o'rtacha iqlimli o'rmon fitotsenozlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rmonlarda odatda 3–5 qavatlilik kuzatiladi. 1–2 qavatlar birinchi, ikkinchi va uchinchi darajadagi daraxtlar, 3-qavat butalar, 4-qavat o't va butachalar, 5-qavat mox va lishayniklar qavati. O't o'simliklardan tashkil topgan fitotsenozlarda ham 2–3 va 4-qavatlar ajratiladi ²³.

Turli biotsenozlar tirik organizmlarning ma'lum ekologik guruhleri nisbati bilan tavsiflanib, bu uning ekologik tuzilmasini ifodalaydi. Biotsenozning ekologik tuzilmasi ma'lum iqlim va landshaft sharoitlarida qonuniy ravishda shakllanadi. Quyidagi jadvalda ko'l va cho'l biotsenozlardagi namlik omili bo'yicha o'simliklarning ekologik guruhleri nisbati keltirilgan:

Ko'l biotsenozi	Cho'l biotsenozi
Gidrofitlar Gidatofitlar Gigrofitlar	Sklerofitlar Kserofitlar Sukkulentlar

BIOTSENOZLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Biogeotsenoz ("bios" – hayot, "geo" – Yer, "senoz" – umumiy yoki jamoa) tushunchasini rus botanik olimi, akad. V.N.Sukachev taklif etgan. Moddalar aylanishiga ega bo'lgan har qanday tirik organizmlar yig'indisi va abiotik muhit ekotizim deyiladi. A.Tensli ushbu ta'rifda anorganik va organik omillarning o'zaro teng komponentlar ekanligini va hech qachon tirik organizmlarni yashab turgan tashqi muhitdan ajratib bo'lmashligini ta'kidlaydi.

V.N.Sukachev biogeotsenozga Yer yuzasining ma'lum qismidagi bir xil tabiiy elementlar (komponentlar)ning yig'indisi deb qaraydi. Hozirgi vaqtda biogeotsenoz deganda evolyutsion jarayonda shakllanadigan fazoviy chegaraga ega bo'lgan funksional jihatdan tirik organizmlar va abiotik muhit o'zaro bir-birlari bilan munosabatdagi

²³ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (40-85-bet).

ma'lum energetik holati hamda moddalar almashinuvi, axborot tezligi bilan tavsiflanuvchi tabiiy tizim tushuniladi.

Biogeotsenozning asosiy komponentlari atmosfera, tog' jinslari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hisoblanadi. Biogeotsenozlar har xil o'lchamda, ya'ni kichik va katta maydonda bo'lishi mumkin.

QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR

EKOTIZIM VA UNING TARKIBI

Yashash sharoiti o'xshash va o'zaro munosabati natijasida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi har xil turga mansub bo'lgan birgalikda yashovchi organizmlar yig'indisiga ekologik tizim deyiladi. O'rmon, cho'l, o'tloq, suv havzasi va boshqalar ekotizimga misol bo'la oladi. Ma'lumki, har xil turdagi organizmlar bir-birlariga va tevarak-atrofdagi jonsiz tabiatga har tomonlama moslashgan, bunday uzviy bog'lanishlar biotsenozlarni tashkil etadi. Biotsenoz – biogeotsenozning bir qismidir. Ekotizim tushunchasi fanga 1935-yili ingliz ekologi A. Tensli tomonidan kiritilgan.

Ekotizimda moddalar aylanishini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda kerak bo'ladigan anorganik moddalar zahirasi bajarayotgan ishi jihatidan uch xil ekologik guruhni tashkil etuvchi organizmlar bo'lishi zarur. Birinchi guruhga yashil o'simliklar kiradi. Ular quruqlikdagi har qanday biotsenozning asosiy tarkibi va energiya manbai sifatida xizmat qiladi. Bunday avtotrof organizmlar produtsentlar deb ataladi. Produtsentlar – assimilyatsiya jarayonida to'plangan energiyasini boshqa organizmlarga beruvchilardir.

Fotosintez qiluvchi organizmlar quyosh energiyasi ishtirokida organik moddalarni sintez qilib, yorug'lik energiyasini bog'langan kimyoviy energiyasi sifatida g'amlaydi.

Suv havzalaridagi ekotizimlarda, ya'ni dengiz, okeanlar va ko'llarning yuqori qatlamlarida yashovchi fitoplanktonlar (mayda bir xujayrali organizmlar va suv o'tlari) produtsentlar sifatida faollik ko'rsatadi.

Quruqlikda katta o'rmonlar va yaylovlarni tashkil etuvchi yuksak o'simliklar, ochiq urug'lilar va gulli o'simliklar dastlabki organik modda to'plashda katta o'rin egallaydi.

Ikkinchi guruhga hayvonlar kiradi. Ular o‘simliklar tomonidan to‘plangan organik moddani iste’mol qiluvchilar hisoblanadi va konsumentlar deb atalatdi.

O‘simlik qoldig‘i va hayvon jasadi o‘zida energiya saqlaydi. Nobud bo‘lgan o‘simlik va hayvonlardagi organik modda mikroorganizmlar, ya’ni saprofit holda yashovchi bakteriyalar va zamburug‘lar ta’sirida parchalanadi. Bunday organizmlar redutsentlar deb ataladi.

Ekotizimda energiya oqimi. Ekotizimlardagi organizmlarning hayot faoliyati va moddalarning aylanishi uchun energiya talab etiladi. Yashil o‘simliklar hayot uchun zarur bo‘lgan kimyoviy moddalarni olib, fotosintez jarayonida organik birikmalar to‘playdi va Quyosh energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi. Ular hayvonlarga ozuqa beradigan tirik moddaning asosiy qismini tashkil etadi. Havo tarkibidagi kislorod va karbonat angidrid gazlarining miqdorini tiklaydi va suvning aylanish jarayonida qatnashadi. O‘simlik chirindilari tuproqda fosfor, kaliy, kaltsiy, marganets kabi elementlarning bir me’yorda tarqalishiga yordam beradi. Bunday organizmlar avtotroflar deb ataladi. O‘simliklar va boshqa jonivorlar bilan oziqlanib yashovchi getertroflar esa oziqlanish jarayonida organik moddalarni karbonat angidrid, suv va mineral tuzlarga aylantiradi. Ular organik moddalarni o‘simlik takror foydalanishi uchun yaroqli bo‘lgan darajagacha parchalaydi. Shunday qilib, biogen moddalar tabiatda uzluksiz aylanib turadi.

Organizmlar Quyosh energiyasini kimyoviy, mexanik va issiqlik energiyalariga aylantiradi. Bunda boradigan hamma o‘zgarishlar energiyani yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lib, u oxirgi issiqlikka aylanib tarqalib ketadi.

Ekotizimda mahsuldorlik. Jamoaning hayot faoliyati natijasida organik moddalar to‘planadi va sarf bo‘lib turadi. Demak, har bir ekotizim ma’lum darajada mahsuldorlikka ega.

Ekotizimning asosiy yoki birlamchi mahsuldorligi yashil o‘simliklar tomonidan fotosintez jarayoni natijasida vaqt birligida to‘plangan mahsulot hisoblanadi. Masalan, fotosintez natijasida o‘rmondagi o‘simliklar 1 ga maydonda 5 t organik modda hosil qilsa, bu umumiy yoki yalpi birlamchi mahsuldorlik deb qaraladi. Ammo o‘simlikning hayoti uchun ham hosil bo‘lgan moddalar sarf bo‘ladi.

Ekotizimda to'plangan barcha mahsulot (nafas olishga sarf bo'lgandan tashqari) jamoaning haqiqiy birlamchi mahsuldorligini tashkil etadi. Haqiqiy birlamchi mahsuldorlikni hosil qiluvchi organik moddalar geterotrof organizmlar uchun o'zlashtirilishi mumkin. Konsumentlar ham haqiqiy birlamchi mahsulot hisobiga organik modda to'playdi. Ular hosil qilgan mahsuldorlik ikkilamchi hisoblanadi.

AGROEKOTIZIMLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Agroekotizimlar qishloq xo'jaligida foydalanadigan ekin maydonlari, yem-xashak olinadigan yaylovlar hamda tuyoqli uy hayvonlarini o'z ichiga oluvchi hududlar majmuidir. Agroekotizimlar tarkibiga inson ham kiradi, chunki u har doim ekologik zanjirni boshqarib, 7 iloji boricha ko'p energiyaga ega bo'lgan mahsulot olishga harakat qiladi va energetik piramidaning cho'qqisida turadi. Agrofitotsenoz agroekotizimlarning eng muhim qismi hisoblanib, u ma'lum maydondagi madaniy va begona o'tlar majmuidan iborat. Agrofitotsenozning madaniy, begona o'tlar hamda tuproqdagi suvo'tlari va mikroorganizmlari agroekotizimning mustaqil qismi hisoblanadi. Agrofitotsenozning hayoti uchun zarur bo'lgan va ularsiz yashay olmaydigan hayvonlar uning tarkibiga kirmaydi. Agrofitotsenozlar sun'iy fitotsenoz, deb qaraladi va uning tabiiy fitotsenozlarga o'xshash tomonlari hamda farqlari bor.

Agroekotizimlar o'ziga xos xususiyatlari. Agroekotizimlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Miqdoriy ko'rsatkichi bilan.
2. Agrofitotsenozlarda dominantlar inson tomonidan kiritiladi va boshqariladi.
3. Tabiiy jamoalarda turlarni turli mavqedagi turlarga ajratish mumkin.
4. Agrofitotsenozlardagi begona o'tlar keng ekologik doiradagi va kosmopolit organizmlardir.
5. Agrofitotsenozdagi madaniy o'simlik populyatsiyasi ma'lum bir navga tegishli bo'lgani uchun yaxshi differentsiallashtirilmagan.

Agrofitotsenozlarni inson tomonidan boshqarilishi. Ekologik qonuniyatlar asosida o'simliklar hamjamoasidan tashkil topgan ekin maydonlarini ekologik qulay tizimga keltirish mumkin.

Bu borada ba'zi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Ayrim agrotsenopopulyatsiyalar darajasida.
2. Agrofitotsenozlar darajasida.
3. Bir butun agrolandshaftlar darajasida.

Ayrim agrotsenopopulyatsiyalar darajasida ekologik qulaylikka erishish har xil navlarni aralash holda ekish yo'li bilan olib borilishi mumkin.

Agrofitotsenozlar darajasida har xil turlarni birgalikda ekish mumkin. Bu ayniqsa, yem-xashak etishtirishda katta ahamiyatga ega. Hamdamoada madaniy o'simlik turlari o'rtasida ekologik o'rinlar shakllanib, ayrim turlar resurslardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.


Agrolandshaftlar darajasida olib boriladigan ishlar murakkab, ammo juda samarali hisoblanadi. Bunda tuproq, iqlim va relyef xususiyatlari hisobga olinib, iqlimni idora etuvchi o'rmon maydonlari saqlanib qolinadi. Ulardan turli xil mahsulotlar yetishtirish (yog'och, rezavor, mevalar, zamburug'lar) uchun hamda estetik maqsadlarda foydalaniladi.

Agrofitotsenozlarni ekologik qulay holatga keltirish uchun kuzgi shudgor usulini takomillashtirish, almashlab ekishda dukkakli o'simliklarning rolini oshirish, ekish muddatini to'g'ri tanlash va boshqalar amalga oshirilishi kerak.

Yyqori hosil beradigan, tabiat bilan uyg'unlashgan agrofitotsenozlar dehqonchilikning kelajagi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Ekotizim tushunchasini izohlab bering.
2. Biotsenoz, biogeotsenoz tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Biogeotsenoz va ekotizim tushunchalari orasidagi farqni tushuntiring.
4. O'zbekiston ekotizimlari haqida to'xtaling.
5. Ozuqa zanjiri deganda nimani tushunasiz?
6. Ozuqa zanjiri halqalari nima?
7. Ekologik piramidani tushuntiring.
8. Suksessiya tushunchasini izohlab bering



6-MAVZU: BIOSFERA

1. Biosfera haqida V. I. Vernadskiy ta'limoti
2. Biosfera chegaralari va tarkibi
3. Biosferada moddalar aylanishi

Tayanch soʻzlar: Biosfera, litosfera, gidrosfera, tirik modda, oʻlik modda, oraliq modda, biogen modda, biogeokimyoviy, energetik xususiyat, fotosintez, oksidlanish-qaytarilish, parchalanish, transport xususiyati.

Quyosh sistemasida Yerning boshqa sayyoralardan farqi nimada? Asosiy farq bu Yerdagi tirik organizmining mavjudligidadir. Yerning bir qismini – biosfera tashkil qiladi. Biosfera bu – Yerdagi suv va atmosfera qobigʻining bir qismini tashkil qiladi. Biosfera nimalardan tashkil topgan? Birinchi shakl koʻrsatadiki, biosfera turli xil organizmlardan, bir biridan farqlanuvchi muhitlardan iborat. Choʻl zonasida yomgʻir miqdori kam boʻladi. Kaktus oʻsimligi, Amerika boʻrisi (koyot), kaltakesaklar choʻl zonasiga xos oʻsimlik va hayvonlardir. Tropik zonalar esa koʻp miqdorda yogʻingarchilik boʻladigan issiq zonalar hisoblanadi. Toʻtiqush, maymun va minglab boshqa organizmlar tropik oʻrmonlarda yashaydi.

Marjonqoyalar okean suvining issiq va sayoz joylarida hosil boʻladi. Qor va muz bilan qoplangan Arktika zonasi shimolda joylashgan. Qutb ayigʻi, tyulen, morjlar Arktikada yashaydi. Biosfera okean, tropik choʻl va qutblardan iborat boʻlgan koʻplab zonalarini oʻz ichiga oladi.²⁴


Suvning aylanishi

Agarda siz suv tomchisini quyosh tushib turgan tomonda oyna ustiga qoʻysangiz, suv parlanadi. Parlanish shunday roʻy beradiki, bunda suv bugʻga aylanadi va gaz shaklida atmosferaga chiqadi. Suv koʻllar, jilgʻalar, hovuzlar va okeanlarning yuza qismidan parlanadi.

²⁴ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (8-75-betlar)

Shuningdek, suv bug‘i atmosferaga transpiratsiya jarayonida o‘simlik barglaridan ham ko‘tariladi. Hayvonlar suv bug‘ini havoga yugurib kelganda yoki harakat qilganda ko‘proq chiqaradi. Suv hayvonlarning chiqindilaridan ham atrof-muhitga qaytadi.

Yer yuzidagi tirik organizmlar tarqalgan, ularning doimiy ta’siri ostida bo‘lgan va faoliyati mahsulotlari egallagan qobiq biosfera (yunoncha “bios” – hayot, “sfera” – shar) deb ataladi. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi o‘lik moddalar (iqlim, atmosfera, tog‘ jinslari va boshqalar) hisoblanib, ularning hosil bo‘lishida tirik organizmlar qatnashmaydigan biosferadagi moddalar yig‘indisi kiradi. Biosferada oraliq moddalar ham ajratilib, ular o‘lik va tirik moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo‘ladi. Tirik organizmlar oraliq moddalar hosil bo‘lishida yetakchiorinni egallaydi. Oraliq moddalar – Yerdagi tirik moddaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tuproq, yemirilgan tog‘ jinslari va barcha tabiiy suvlardir. Bulardan tashqari, biogen moddalar ham mavjud. Ular tirik organizmlarning hayoti davomida hosil bo‘ladi va o‘zgarishlarga uchraydi. Ularga nihoyatda katta potensial energiyaga ega bo‘lgan toshko‘mir, bitum, neft, ohaktosh va boshqalar kiradi (1-rasm).



Biosfera ko‘rinishi. 1-rasm²⁵


²⁵ Peter Rillero, Dinah Zike. /Ecology, 2005. (8-75-betlar)

TABIATDAGI AYLANMA HARAKATLAR


Biosferada moddalar aylanishi. Biosferada kichik va katta doiradagi moddalar aylanishi xarakterlanadi. Kichik doiradagi moddalar aylanma harakati biologik doiradagi aylanish bo‘lib, bu organizmlar o‘rtasida, quruqlikda tuproq bilan organizm o‘rtasida, suvda esa organizm bilan suv o‘rtasida kechadi. Katta doiradagi moddalarning aylanishi quruqlikdan moddalarning daryo va havo oqimlari bilan okeanga kelib tushishidan iborat bo‘lib, dengiz yotqiziqlarining quruqlikka qayta chiqishi esa okean tubining ko‘tarilishi va uning natijasida quruqlik ayrim joylarining cho‘kishi bilan sodir bo‘ladi.

Suvning aylanishi. Biosferada suv bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib, kichik va katta aylanish doiralarini hosil qiladi. Suvning bug‘lanib, kondensatsiyalanib yog‘ingarchilik vositasida yerga qaytib tushishi suvning kichik doirada aylanishini tashkil etadi. Bu aylanishning turi ko‘pincha okeanlar yuzasida sodir bo‘ladi. Suv bug‘lari havo yo‘nalishi bilan quruq mintaqaga borishi va qaytib okeanlarga borib tushishi suvning katta doirada aylanishini tashkil etadi. Suvning juda sekin aylanishi shimoliy muz okeanlarida sodir bo‘ladi (2–3-rasmlar)²⁶.

Atmosferada suv bug‘i. 2-rasm



²⁶ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005 (44-49-betlar).




Suvning aylanishi. 3-rasm

Uglerodning aylanishi. Uglerodning aylanishi eng tez sodir boʻladigan biogeokimyoviy jarayon hisoblanadi. Uglerod almashinuvi koʻproq CO_2 orqali boʻladi. Havoda karbonat angidrid gazi 0, 03% boʻladi. CO_2 oʻsimlikka oʻzlashtirilib, fotosintez mahsuldorligini hosil qiladi. Oʻsimlik va hayvon qoldiqlaridagi organik moddalarning parchalanishi karbonat angidridning manbaidir. Masalan, organik moddalarning parchalanishi natijasida hayvon siydigida ham karbonat angidrid ajralib chiqadi. Okean bilan atmosfera oʻrtasida shamol va havoning harakati tufayli karbonat angidridning almashinishi kuza-tiladi. Dunyo boʻyicha jami quruqlikdagi oʻsimliklar tomonidan bir yilda 600 mln. tonna CO_2 oʻzlashtirilib, 400 mln. tonna O_2 chiqariladi va bunda 450 mln. tonna organik moddalar hosil boʻladi. Yer yuzida barcha CO_2 ning bir marta toʻliq aylanishi 300 yilda sodir boʻladi.

Kislorodning aylanishi. Kislorodning aylanishi juda ham murakkab jarayon. Kislorod fotosintez jarayonlarida hosil boʻladi. Bunda karbonat angidrid va suvning quyosh nuri taʼsirida reaksiyaga kirishib, organik modda, kislorod va suv bugʻi hosil boʻladi. Kislorodni toʻla bir marta aylanishiga 2000 yil kerak. Kislorodning asosiy manbai ozon (O_3) hisoblanadi.

Azotning aylanishi. Atmosferaning 78 % ini azot tashkil etadi. Azot inert gaz boʻlganligi sababli, uni birikma holda havoda uchratish

qiyin. Tirik organizmlarda azot aminokislotalar va oqsilning muhim komponenti hisoblanadi. Havodagi erkin azot azotobakteriyalar vositasida o'zlashtiriladi va birikma holda ajratib chiqariladi. Bakteriyalar faoliyati natijasida 1 ga maydonda 2–3 kg dan 5–6 kg gacha azot birikma holga o'tkaziladi. Erkin yashovchi, azot o'zlashtiruvchilar vositasida har gektar yerga bir yilda 10 kg azot o'zlashtiriladi, dukkakli ekinlar vositasida esa 400 kg/ga o'zlashtiriladi (4-rasm).



Azotning aylanishi. 4-rasm

Rasmda azotning biosferada aylanishi, ya'ni nitrogenlanish jarayoni, o'simliklarning azotni o'zlashtirishi va rivojlanishi, hayvonlarning o'simliklar bilan oziqlanishi, o'simlik va hayvonlarning nobud bo'lishi, yana tuproqqa qaytib tushishi ko'rsatilgan.

Fosforning aylanishi. Fosfor – nuklein kislotalari, oqsil, ATF va boshqa hayotiy muhim organik moddalarning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Fosforning aylanishi trofik zanjir, organik fosfat zanjiri vositasida hamda organik fosfatning ajralishi va tirik organizmlarning ulishi natijasida yerga tushishi yo'li bilan amalga oshadi. Ularni mikroorganizmlar chiritib, yana qaytadan o'simlikka o'zlashtiriladigan holatga o'tkazadi.²⁷

²⁷ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005). 44-53-betlar.

BIOSFERA HAQIDA VERNADSKIY TA'LIMOTI

Rus olimi V.I.Vernadskiy birinchi bo'lib sayyoramizdagi barcha tirik organizmlarning olamshumul ahamiyatini ochib berdi. Olimning fikricha tirik organizmlar Yer yuzasini o'zgartirishda eng kuchli omil hisoblanib, tog' jinslari, suv, atmosfera qismlari hayot ta'sirida o'zgarib turadi va u biosfera (yunoncha "bios" – hayot, "sfera" – shar) deb ataladi. Biosfera Yer sharidagi eng yirik ekotizim deb qaralib, u ayrim ekotizimlarning yig'indisidan tashkil topgan. Bular litosfera (quruqlik), gidrosfera (suv havzalari), atmosferaning quyi qatlamlaridan iborat. Hozirgi vaqtda tirik organizmlar tarqalgan chegara biosferaning 17 km. qalinligini, ya'ni litosferaning 5–6 km gacha, dunyo okeanlarining tubigacha (10–11 km) va atmosferada 10 km gacha balandlikni tashkil etadi.

V. I. Vernadskiy sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini "tirik modda" deb atab, biosferaning eng muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Tirik moddaning umumiy vazni kimyoviy tarkibi va energiyasi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Biosferaning umumiy vazni $3 \cdot 10^{24}$ g, shundan tirik moddaning vazni 1, 8 – 2, 5. 10^{18} g. ga teng. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi o'lik moddalar (iqlim, atmosfera, tog' jinslari va boshqalar) hisoblanib, V. I. Vernadskiy ta'limoti bo'yicha ularning hosil bo'lishida tirik organizmlar qatnashmaydigan biosferadagi moddalar yig'indisi kiradi. Biosferada oraliq moddalar ham ajratilib, ular o'lik va tirik moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo'ladi. Tirik organizmlar oraliq moddalar hosil bo'lishida yetakchi o'rinni egallaydi. Oraliq moddalar Yerdagi tirik moddaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tuproq, emirilgan jog' jinslari va barcha tabiiy suvlardir. Bulardan tashqari biogen moddalar ham mavjud. Ular tirik organizmlarning hayoti davomida hosil bo'ladi va o'zgarishlarga uchraydi. Ularga nihoyatda katta potentsial energiyaga ega bo'lgan toshko'mir, bitum, neft, ohaktosh va boshqalar kiradi. Shunday qilib, biosfera tirik modda ta'siridagi Yerning qobig'i hisoblanadi. Biosferada katta doirada moddalar aylanishi amalga oshadi.

BIOSFERADAGI MODDALARNING XOSSASI VA FUNKSIYALARI

I. Tirik moddaning maxsus xususiyatlari quyidagilar:

1. Biosferaning tirik moddasi katta energiya zahirasiga ega.

2. Tirik va o'lik moddalar o'rtasidagi keskin farq ularda boradigan kimyoviy reaksiyalar tezligidadir (tirik moddada boradigan kimyoviy reaksiyalar tezligi ming va million marta ortiq).

3. Tirik moddaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, undagi oqsillar, fermentlar va boshqa kimyoviy birikmalar faqat tirik organizmlarda barqaror bo'ladi.

4. Biosferada har qanday moddaning erkin harakati va ma'lum darajada o'z-o'zini idora etishi umumiy xususiyat hisoblanadi.

5. Tirik modda o'lik moddaga nisbatan morfologik va kimyoviy xilma-xilligi jihatidan ajralib turadi. Tirik modda tarkibiga kiradigan 2 mln. dan ortiq organik birikmalar ma'lum bo'lib, tabiiy minerallar esa ikki ming atrofida xolos.

6. Tirik modda biosferada ayrim organizmlar sifatida namoyon bo'lib, ularning o'lchami ham juda xilma-xil. Eng kichik viruslar 20 nm. dan oshmaydi. Eng yirik hayvon hisoblangan kitlarning uzunligi 33 m ga boradi. Eng baland daraxt (evkalipt) ning bo'yi esa 100 m dan ortadi.

II. Tirik moddaning asosiy biogeokimyoviy xususiyatlari quyidagilar:

1. Energetik xususiyati. Fotosintez jarayoni orqali quyosh energiyasini to'plash va uni keyinchalik biosferaning ayrim tarkibiy qismlarga taqsimlanishi. Biosferada quyosh energiyasining to'planishi tufayli unda hayotning barcha ko'rinishlari mavjuddir.

2. Gazlar hosil qilish va ularning harakatini amalga oshirish xususiyati. Gazlarning aylanib yurishi, o'zgarishi orqali biosferaning gaz tarkibini ta'minlaydi. Sayyoramizdagi asosiy gazlar biogen yo'l bilan kelib chiqqan. Tirik modda faoliyati natijasida azot, kislorod, karbonat angidrid gazi, vodorod sulfid, metan va boshqa gazlar hosil bo'lgan.

3. Biogen moddalarni to'plash xususiyati. Tirik modda tarkibida yengil elementlarning atomlari (H, C, N, O, Na, Mg, Al, Si, S, Cl, K, Ca) ko'p miqdorda uchraydi. Ushbu elementlarning miqdori tirik

organizmlar ta'sirida tashqi muhitga nisbatan yuz va ming barobar ortiq to'planadi. Ana shu xususiyat tufayli biosferaning kimyoviy tarkibi xilma-xil ekanligi hamda o'lik moddalardan keskin farq qilishi namoyon bo'ladi.

4. Oksidlanish-qaytarilish xususiyati. Ma'lum moddalar (atomlari o'zgaruvchan darajadagi oksidlanish xususiyatiga ega bo'lgan) domiy ravishda kimyoviy o'zgarishlardan iborat bo'lib, bunda Yer yuzasida biogen moddalarning oksidlanish-qaytarilish jarayonlari ustunlik qiladi.

5. Parchalanish xususiyati. Tirik organizmlarning nobud bo'lishidan keyin parchalanish, ya'ni organik moddalarning minerallasish jarayoni sodir bo'ladi. Natijada biosferada biogen va oraliq moddalar hosil bo'ladi.

6. Muhit hosil qilish xususiyati. Organizmlarning hayot faoliyati natijasida muhitning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini o'zgartirishdan iborat bo'lib, V. I. Vernadskiy "Organizmlar tashqi muhit bilan bog'langan, shuning uchun u tashqi muhitga faqat moslashib qolmay, balki unga moslashgan", deb yozgan edi.

7. Transport xususiyati. Moddalarning Yerning tortish kuchiga qarshi gorizontaal yo'nalishda tashib yurilishi.

BIOSFERADA MODDALARNING AYLANISHI

Biosferada kimyoviy elementlar tirik organizmlarning faoliyati natijasida aylanib turadi. Kimyoviy elementlarning biosferaning bir tarkibiy qismidan ikkinchisiga o'tishi, shu bilan birga dastlabki holatga qaytishi biosferada moddalarning aylanishi deyiladi.

Energiyaning aylanishi moddalarning aylanishi bilan chambarchas bog'liq. Moddalarning kichik doirada (biologik) va katta (geologik) doirada aylanishlari kuzatiladi. Biologik doirada aylanish organizmlar o'rtasida, quruqlikda tuproq bilan organizm o'rtasida, gidrosferada esa organizm bilan suv o'rtasida sodir bo'ladi. Moddalarning katta doirada aylanishi quruqlik bilan dunyo okeanlari o'rtasida boradigan jarayondir.

Hozirgi vaqtda sayyoramizda aholi sonining ortishi, tabiiy resurslardan keng va noto'g'ri foydalanish kabilar biosferani xavf

ostiga solib turibdi. Insoniyat global ekologik tangliklar bo'sag'asida turibdi. Bugungi kunda tabiiy ekotizimlarning buzilishi yoki butunlay yo'qotilish, biologik xilma-xillikni yo'qotish, ko'pchilik o'simlik va hayvon turlarining yo'qolib ketishi, atrof-muhitni keng ko'lamda ifloslanishi, chuchuk suv tanqisligi, ozon qatlaminin siyraklashishi, cho'llanish jarayoni va atmosferani "dimiqishi" natijasida iqlimning o'zgarishi va boshqa muammolar kelib chiqdi. Insonning o'zi tur sifatida sayyoramizda yashab qolishi xavf ostida va unga inqirozga uchragan ekotizimlarda yashashga hech qanday kafolat berib bo'lmaydi. Shuning uchun ham inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosi bugungi kunga kelib, nihoyatda kuchayib ketdi. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar ma'lum qonuniyatlarga bo'ysungan holda boradi. Bu qonunlarning buzilishi, albatta, ekologik halokatga olib keladi.

INSONNING BIOSFERAGA TA'SIRINI ASOSIY YO'NALISHLARI

Inson dastlab biosferaning tuzilmasiga deyarli ta'sir etmay, ibtidoiy hayot kechirgan. Ovchilik qurollari va olovdan foydalanish kabilarning kashf etilishi bilan insonning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri biroz kengaydi. Yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish, o'simliklarni madaniylashtirish kabilar oziq-ovqat mahsulotlarining ko'payishiga va aholi sonining ortishiga sabab bo'lib, bu esa o'z navbatida insonning biosferaga bo'lgan ta'sirini kuchaytirdi.

Dehqonchilikning rivojlanishi davomida o'rmonlar kesilib, unumdor yerlarga aylantirildi, chorvachilikning rivojlanishi o'simliklar qoplaminin kamayishiga, payhon qilinishiga sabab bo'ldi. Natijada million yillar davomida shakllangan barqaror hamjamoalar sun'iy beqaror ekotizimga aylandi. Insonning biosferaga ta'sirini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. O'rmonlarni kesish va yangi yerlarni o'zlashtirish birinchi navbatda biosferaning suv rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada daryolar sayozlanib qolishi, botqoqlanish, o't bosish, baliqlar sonining kamayishi kuzatiladi. Yer ostki suvlari zahirasi kamayadi, qor va

yomg'ir suvlari tuproqqa singimay, uning yuza qismini yuvib ketadi. Suv eroziyasi bilan qo'shilib tuproqqa yanada kuchli ta'sir etadi.

2. Insonning biosferaga ta'sirida muhim rol o'ynaydigan omillardan yana biri sug'orishdir. Inson qadim zamonlardan beri sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Sug'orish ishlari unumsiz yerlarni unumdor yerlarga aylanishiga imkon berishi bilan birga gidrologik sharoitni ham o'zgartirib yuboradi. Chunonchi, bunda yer ostki suvlari sathining botqoqlanishi va suv bosishi mumkin. Bundan tashqari, sug'oriladigan yerlarning kengayishi, daryolar suv rejimining o'zgarishiga, ba'zan daryolarning qurib qolishiga olib keladi.

3. Insonning biosferaga ta'siridan yana biri kimyoviy o'g'itlardan foydalanish hisoblanadi. Sug'oriladigan dehqonchilikda kimyoviy o'g'itlardan foydalanish hosildorlikni bir necha marta oshiradi. Shu bilan birga o'g'itlardan foydalanish ichimlik suvlari sifatining yomonlashishiga, evtrofikatsiya jarayonining susayishiga, nitrit va nitratlarning suvda to'planishi natijasida xavfli kantserogen modda – nitrozaminlar hosil bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu moddalar odam salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Bundan tashqari chuchuk suvlarda nitratlar va fosfatlarning ortib ketishi fito va zooplanktonlarning hayotiga ham ta'sir etib (azot va kaliy miqdorini cheklaydi) fitoplanktonlarni ko'payib ketishiga olib keladi. Suvda yashovchi ko'k-yashil suv o'tlari mineral o'g'itlar bilan ifloslangan suvlarda juda tez ko'payib ketib, suv havzasining yuzini berkitib qo'yadi, bu esa baliqlarning yalpi qirilishiga, shuningdek botqoqlanishga olib keladi.

4. Nihoyat insonning biosferaga ko'rsatadigan kuchli ta'sirlaridan biri o'simliklar kasalliklari, zararkunanda hasharotlar va begona o'tlarga qarshi kurashda foydalaniladigan kimyoviy kurash vositalaridir.

NOOSFERA BOSQICHI TUSHUNCHASI

Insoniyat jamiyati o‘zining barcha xususiyatlari bilan birga Yer yuzidagi hayot rivojlanishi (biogenez)ning navbatdagi bosqichidir. U eng kuchli tabiiy omil sifatida nafaqat sayyoramiz, balki kosmik fazoni ham o‘zgartirib yubormoqda. Kelajakda inson va biosferaning rivojlanishi qanday ketadi, degan savol tug‘iladi. Qanday qilib biosferani parchalanib ketishining oldini olish mumkin?

Shuni ta’kidlash lozimki, jamiyatning rivojlanish jarayonini to‘xtatib bo‘lmaydi. Ammo insonning biosferaga ta’sirini boshqarish orqali ularning har ikkisini ham rivojlanishiga ziyon yetkazmaslik mumkin. Biogenez bosqichidan boshlab hozirgi davrdagi hayot evolyutsiyasi aql yoki tafakkurning rivojlanish bosqichi, ya’ni neogenez deb qaraladi. Keyingi yillarda biosferaning asta-sekin noosferaga aylanishi kuzatilmoqda. Noosferaning lug‘aviy ma’nosi “fikrlovchi qobiq” demakdir. V. I. Vernadskiy fikricha noosfera biosferaning qonuniy rivojlanishi natijasida kelib chiqadigan bosqich bo‘lib, inson bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ongli aloqa munosabatlarini o‘z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Biosfera deganda nimani tushunasiz?
2. Biosferaning tarkibiy qismlarini sanang.
3. Noosfera tushunchasini izohlab bering.
4. Bugungi kundagi hayot qobig‘ini siz qanday ifodalagan bo‘lar edingiz?

7-MAVZU: TABIIY RESURLAR VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH

Reja:

1. O‘zbekiston tabiiy resurslarning holati.
2. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi.
3. Tabiatni muhofaza qilish aspektlari.

Tayanch so‘zlar: Foydali qazilmalar, rudali metallar, rudasiz metallar, neft, gaz, ko‘mir, torf, yerosti suvlari

Foydali qazilmalarga rudali va rudasiz metallar, neft, gaz, ko‘mir, torf, yer osti suvlari kiradi. Foydali qazilmalar insoniyat va uning xo‘jaligi taraqqiyoti uchun energiya va yoqilg‘i manbai bo‘lib, yildan-yilga ulardan foydalanish ortib bormoqda. So‘nggi 25 yil ichida dunyoda ko‘mirga bo‘lgan talab 2 marta, temir rudasiga 3 marotaba, neft va gazga bo‘lgan talab 6 marotaba, marganes, kaliy, fosfor tuzlariga talab 2–3 marotaba oshgan. Har yili 150 mlrd. tonna mineral xomashyo qazib olinmoqda. Tabiiy jarayon oqibatida daryolar dengiz, okeanlarga har yili 15 mlrd. tonna tog‘ jinslarini oqizib ketmoqda, 3–4 mlrd. tonna chiqindi gazlar atmosfera havosiga ko‘tarilmoqda. Inson foydali qazilmalarni o‘zlashtirishi oqibatida 1500–2000 mlrd. tonna tog‘ jinslari bir joydan ikkinchi joyga joylashtiriladi. BMT ning ma’lumotiga qaraganda, dunyoda yiliga 32 mlrd. tonna ko‘mir, 2.6 mlrd. tonna neft, 6 mlrd. tonna temir rudasi, 3.6 mln. tonna xrom rudasi, 7.3 mln. tonna mis rudasi, 3–4 mln. tonna qo‘rg‘oshin rudasi, 159 mln. tonna tuz, 120 mln. tonna fosforlar, 1.2 mln. tonna uran, simob, molebdin, nikel, kumush, oltin, platina rudalari qazib olinmoqda.

Mutaxassislarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, agar qazilma boyliklaridan hozirgi sur’atda foydalanilsa, oltin 30–35, rux 36, surma 70, kaliy 40, uran 47, mis 66, simob 70, ko‘mir, neft, gaz 150 yilda tugashi mumkin. Shu sababli ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar – Yaponiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Gollandiya, Belgiya kabi mamlakatlarda xomashyo, yerosti boyliklarining yetishmasligi

oqibatida ikkilamchi chiqindilarni qayta ishlash va boshqa mamlakatlarning boyliklaridan foydalanishlariga to'g'ri kelmoqda. Fan-texnika rivojlanishi olimlarni yana-da yangi mineral konlarni kashf qilishga majbur qilmoqda. Masalan, Yaponiya olimlarining ma'lumotlariga ko'ra, okean tagidagi metall konsentrasiyalari hisobiga dunyo sanoatini hozirgi iste'mol darajasi mis bilan 2000-yil, nikel bilan 70 000 yil, marganes bilan 14 000 yil ta'minlash mumkin. Bu boyliklardan dunyo sanoati ehtiyoji uchun 1% dan 20% gacha foydalanilmoqda. Bundan tashqari yer osti minerallari ko'p hollarda bir yoki ikki metall hisobiga qazib olinib qolgan qismi atrof-muhitga tashlab yuboriladi. Masalan, 100 tonna granitdan 8 tonna alyuminiy, 5 tonna rux, 0,5 tonna titan, 80 kg. marganes, 30 kg. xrom, 17 kg. nikel, 14 kg. vanadiy ajratib olish mumkin. Ayniqsa, neft, ko'mir, kaliy tuzi, qurilish materiallari, qora va rangli metallar, tog' kimyoviy xomashyolarini qazib olishda ko'plab isrofgarchilikka yo'l qo'yilmoqda. Dunyoda juda ko'p neft konlaridan neftning 50–60%i qazib olinib, qolgan qismi qolib ketmoqda.

Shunday qilib, hozirgi kunda Yer sharining litosferasidan har yili 150 mlrd. tonna ruda qazib olinadi va undan kerakli elementlar ajratib olinib qolgan 95–98%i atrof-muhitga tashlanadi.

Qazilma boyliklarni qidirib topish, qayta ishlash va tashish jarayonida yer yuzasi strukturasi buziladi, hosildor maydonlar qisqaradi, o'simliklar nobud bo'ladi, tuproq eroziyasi tezlashadi, oqibatda yaroqsiz yerlar maydoni oshadi. Hozirgi kunda dunyoda yaroqsiz yerlar 10 mln. gektarni tashkil qilsa, 2 050 yilga borib 5–6 barobar oshadi. Masalan, 1 tonna temir olish uchun 5–6 tonna ruda, 1 tonna qo'rgoshin olish uchun 60–90 t, 1 tonna rux olish uchun 80–100 tonna, 1 t mis olish uchun 100–140 t, 1 tonna mis olish uchun esa 60 000–80 000 tonna ruda ishlatiladi. Natijada yer yuzasida millionlab tonna metallurgiya chiqindilari, issiqlik elektr stansiyalaridan chiqqan ko'plab tog' jinslari uyumlari to'plangan. Hisoblarga ko'ra, so'nggi 100 yil ichida dunyoda 20 mlrd. tonna dan ortiq shpak, 3 mlrd. tonna kul, 17 mln. tonna mishyak, 1 mln. tonna nikel, 1 mln. tonna kobalt va boshqa foydali elementlar chiqarib tashlangan. Zarafshon shahridagi Muruntov oltin konidan qazib olinayotgan chiqitlar tash-

lanadigan maydon 5 200 ga maydonni tashkil qilib, hozirgi kunda bu maydon to'lgan. Ikkinchisini maydoni 6 200 ga ni tashkil qiladi. Chiqindining tarkibida natriy seonid 150 mg/l, temir birikmasi 9 mg/l, mis 5, 5 mg/l, nikel 17 mg/l, kobalt 0, 25, rux 0. 5 mg/l, molebdan 17 mg/l, mishyak 2.5 mg/l, alyuminiy 25 mg/l, qo'rgoshin 3mg/l ni tashkil qiladi.

O'zbekiston zaminida mavjud boyliklarga ega davlatlar jahon haritasida ko'p emas. Mavjud boyliklarning ko'pchiligi hali ishga solinmagan. Bu esa butun dunyoga mashhur chet el kompaniyalari va banklarining e'tiborini jalb etishi aniq. O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan faxrlanadi. Mamlakatimizda mashhur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2, 7 mingdan ziyod turli foydali qazilma zahiralari va madanlar mavjud bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral xomashyo potensial 3, 3 trilion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak. G'oyat muhim strategik manbalar neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha 40 ta, konchilik kimyo xomashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan. Qidirib topilgan foydali qazilmalarning hozirgi darajasi va u bilan bog'liq holda qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdagi yonilg'i zahiralari – neft va gaz kondensati, tabiiy gaz, ko'pgina mineral-xomashyo va qurilish materiallari turlarining g'oyat boy konlarini o'zlashtirish respublikaning kelajagiga ishonch bilan qarash imkonini beradi.

Har yili respublika konlaridan tahminan 5,5 mlr. dollar miqdorida foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6, 0–7, 0 mlr. dollarlik yangi zahiralalar qo'shilmoqda. Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, kumush, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kalsiy tuzlari, fosforitlar, kaolitlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zahiralari va istiqbolli rudalar jihatidan MDH dagina emas, balki butun dunyoda

ham yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rin, uni qazib olish bo'yicha 4-o'rin, mis zahiralari bo'yicha 10–11-o'rin, uran zahirasi bo'yicha 7–8-o'rinda turadi.

O'zbekiston noyob yonilg'i – energetika resurslariga ega. Mamlakatimizda topilgan gaz zahiralari 2 tln. m³ ga yaqin, ko'mir 2 mlr. tonnadan ortiq. 160 dan ortiq neft koni mavjud. Neft, gaz va kondensat zahiralari o'z ehtiyojlarimizni to'la ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga energiya manbalarini eksport qilish imkonini ham beradi. Mutaxasislarning baholashiga ko'ra, O'zbekistonning Ustyurt, Buxoro, Xiva, Surxondaryo, Fargona mintaqalarida juda katta neft va gaz qatlamlari mavjud. Neft va gaz resurslarining zahiralari bir trilion AQSH dollaridan ziyod baholanmoqda.

O'zbekistonda ko'mir Angren, Sharg'un va Boysun konlarida qazib chiqariladi. Ularning umumiy zahirasi 2 mlrd. tonna. Ko'mir bilan birga juda qimmatbaho mineral xomashyo zahiralari: kaolinlar, ohaktoshlar, kvarts quzimlar, tosh qotishmalar va kam uchraydigan boshqa elementlar ham qazib olinmoqda. Ular hozirgi ko'pgina ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish uchun kuchli xomashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi. Navoiy azot kombinati o'zining zaharli chiqindilarini (570000 m³) 50 ga maydonga ega bo'lgan havzalarga tashlamoqda. Uning asosini polimerlar 25%, rodonitlar 10% hamda qattiq aralashmalar tashkil qiladi. Tarkibida sianit 50 mg/l, ammiak 150 mg/l, sul'fat tuzlari 15000 mg/l, mis 2500mg/l ni tashkil qiladi.

Navoiy elektrokimyo zavodining chiqindisi 7,8 mln. m³. ni tashkil qilib 125 ga maydonni egallab turibdi. Uning tarkibi o'ta murakkab organik birikmalardan iborat. Atrof-muhitni toza saqlash maqsadida va tabiiy yoqilg'i resurslarini tejash borasida so'nggi yillarda vodoroddan foydalanish masalasi yuzaga keldi. Uning afzalligi shundaki, birinchidan zahirasi cheklanmagan, uni ishlab chiqarish tobora oshib bormoqda. Ikkinchidan vodorod universal yoqilg'i hisoblanib elektr ishlab chiqarishda, avtotransport, aviatsiya, dengiz transportida uni suyuq, gaz holida ishlatish mumkin.

Keyingi paytlarda bioenergetikaga ham katta e'tibor berilmoqda. Bioenergetikada chorvachilik, parrandachilik, cho'chqachilik

korxonalaridan chiqayotgan go'ng, ahlaxonalar mikroorganizmlar, bakteriyalar, chuvalchanglar yordamida chiritilib tabiiy gaz va biogumus olinadi. 1 tonna quruq go'ngdan 400–600 m³ biogaz ajratib olish mumkin. O'zbekistonda har yili 19 mln. tonna go'ng hosil bo'ladi. 1 tonna quruq barg, o'simlik qoldiqlari 300–500 m³ biogaz beradi.

O'zbekiston zaminida 94 turdan ortiq mineral xomashyolarning 850 konlari qidirib topilib, ishga tushirilgan. Aniqlangan yoqilgi energetikasi, tog' rudalari va kimyo xomashyolari, qurilish ashyolari, yerosti ichimlik suv konlarida 370 ta neft-gaz va 290 ta yer osti suv konlaridan foydalanilmoqda. Birgina Ko'kdumaloq gaz konlarining sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan zahirasi 143. 7 mlrd/m³. Neft 54. 2 mln. t, kondensat-67. 4 mln. tonna.

Respublikaning umumiy uglevodorod xomashyo zahirasi quyidagicha: gaz – 1828 mlrd/m³. (tahminiy hisoblar – 2970 mlrd/m³), kondensat – 136 mln/tonna (tahminiy hisob – 175 mln. t) – neft 103 mln. tonna (tahminiy hisob – 435 mln. t). Respublikamizning 20 dan ortiq maskanlarida toshko'mir zahiralar yuzasidan geologik qidiruv ishlari o'tqazilgan va uning zahirasi 3500 mln. t deb tahmin qilinmoqda. Bu konlarning katta zahirasi Angren, Sharg'un, Boysunda joylashgan.

Angren toshko'mir konining zahirasi 1885 mln. tonna bo'lib, har yili 5 mln. tonna qazib olinmoqda. Ochiq holda qazib olish 10 mln. tonna ga teng yetkazish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Sharg'un, Boysun konlarining zahirasi 60 mln. tonna deb baholanadi. Farg'ona vodiysida topilgan qora ko'mir zahirasi esa 30–35 mln. tonna deb tahmin qilinmoqda. Mamlakatimizda 32 tur rangli metallarning 33 ta koni ishga tushirilib, 16 ta tog' metallurgiya korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. 27 ta oltin zahiralar konlaridan 16 tasida qidiruv ishlari olib borilib, 7 tasi ishlatilmoqda. Respublikamizda fosforidlarning zahirasi 100 mln. tonna deb baholanmoqda. Fosforli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi zavodlar Qozog'istondan keltirilayotgan xomashyo hisobiga ishlatilmoqda. 5 dan ortiq volfram konlarida qidiruv ishlari o'tqazilib, shundan 2 tasidan foydalanilmoqda.

Respublika hududida 32 ta mineral shifobaxsh suv konlari aniqlangan bo'lib, shundan 12 tasida shifoxona, sanatoriyalar tashkil qilingan va 9 ta zavodda qadoqlanmoqda.

Yer osti boyliklarini qazib olishda juda katta isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmoqda. Sharg‘un ko‘mir konidan olinayotgan xomashyoning 25% i atrof-muhitga tog‘ jinslari bilan chiqib ketadi. Qattiq chiqitlar 100 mln. tonna bo‘lib, shundan 60 mln. tonna si fosforgips, suyuq chiqindilar 10 mln. m³. Bu chiqindilar bir necha o‘n ming ga maydonni tashkil qiladi. Har yili birgina Angren ko‘mir konidan 6 mln. tonna kaolin qazib olinadi, shuning 10–15%i ishlab chiqarishga yuborilib, qolgan qismi tog‘ jinslari bilan qo‘shilib chiqarib tashlanmoqda.

Shifobaxsh yer osti mineral suvlarining isrofgarchiligi xanuzgacha yuqoriligicha qolmoqda. 27 ta shifo maskanlarida shifobaxsh mineral suvlaridan foydalaniladi. Shifobaxsh suvlarni isrofgarchiligi (shifoxonalarda) 50% ni tashkil qiladi, o‘zi oqar quduqlarda esa 30% dan yuqoridir.

Shunday qilib, Respublikamizda tabiiy boyliklarni qo‘riqlash, tejab-tergash, unumli foydalanish, isrofgarchilikka chek qoyish hamda chiqindisiz texnologiyaga o‘tish konsepsiyasi to‘liqligicha ishlab chiqilganicha yo‘q.

Chiqindilar muammosi

Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish chiqindilaridan muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari, ayni chog‘da dolzarb hisoblanadi. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obektlari chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.

Shaharlarda qattiq maishiy chiqindilar va katta o‘lchamli axlatlar yig‘ilmoqda-ki, ular o‘z vaqtida va to‘g‘ri olib chiqilmasa hamda zararsizlantirilmasa, atrof tabiiy muhitni jiddiy ifloslantirishi mumkin.

Qattiq maishiy chiqindilarning chiqindixonalarda to‘planib qolishi, changlarning hosil bo‘lishiga va yoqimsiz hidlarning tarqalishiga olib keladi. Bir qator mamlakatlarda chiqindilarni utilizatsiya qilish, ya‘ni kuydirish, poligonlarga ko‘mish yoki yig‘ish, shuningdek kompostlash texnologiyalari bilan amalga oshiriladi (1-jadval).

O'zbekistonda har yili 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'ladi, ularning 14 % i toksik (zaharli) toifaga mansub hisoblanadi. Bundan tashqari, Respublikamiz hududida va unga yaqin hududlarda radioaktiv rudalarni qazib olish o'tgan asrning 40-yillarida kuchaygan. Shu davr mobaynida 150 ga yaqin radioaktiv ifloslanish maydonlari paydo bo'ldi. O'zbekistonning Andijon viloyatidan 30 kilometr uzoq masofada joylashgan Qirg'iziston Respublikasining Maylu-Su daryosi qirg'oqlari bo'ylab joylashgan umumiy hajmi 2,5 million m³ bo'lgan radioaktiv chiqindilar ko'milgan 23 ta ombor va 13 ta balanslangan rudalar to'plamlari mintaqaviy ekologik falokat yuzaga kelishida katta xavfdir. Sel kelishi va yer ko'chishi hollari yuz berganda radioaktiv chiqindilar Maylu-Su, Qoradaryo va Sirdaryo suvlariga tushishi mumkin, bu esa 1,5 million kishi yashaydigan 300 km² maydondagi O'zbekiston hududini radioaktiv chiqindilar bilan ifloslanishiga olib keladi. Radioaktiv chiqindilar tarkibini radionuklidlar va sinov maydonlaridagi yadro portlashlar tashkil etadi. Radionuklidlar o'zidan radioaktiv nur chiqaradigan elementlarning izotoplari hisoblanadi. Hozirgi paytda Maylu-Su daryosi vodiysida reabilitatsiya ishlari davom etmoqda.

Chiqindilar hosil bo'ladigan korxonalar ustidan davlat nazoratini "Chiqindilar to'g'risida" gi (2002-yil) qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalga oshiradi.

1-Jadval

Dunyo mamlakatlari bo'yicha maishiy chiqindilarni utilitatsiya qilishning nisbiy ko'rsatkichi, %

Mamlakat-lar	Kuydi-rish	Chiqindixonaga chiqarish	Kompost-lash	Boshqalar
Shveysariya	80	18	2	-
Yaponiya	72	24. 5	1. 5	2
Shvetsiya	56	34	9. 9	0. 1
Belgiya	47	44	9	-

Niderlandiya	40	44	15	1
Fransiya	36	47	8	9
Daniya	32	64	4	-
Germaniya	28	69	2	1
Italiya	18. 5	35	5. 5	41
AQSH	8	82	-	10
Kanada	6	93	-	1
Ispaniya	5	76	19	-
Buyuk Britaniya	2	2	98	-
Rossiya va MDH	5	95	-	-

Qayta tiklanadigan resurslar

Quyosh bitmas-tuganmas resurs, yer yuzini harorat va yorug‘lik bilan ta’minlaydi, yomg‘ir ko‘llar va jilg‘alarni suv bilan to‘ldiradi. Quyosh nuri ta’sirida o‘simliklar fotosintez jarayonini amalga oshiradi va havoga kislorodni qo‘shadi. Quyosh nuri, suv va havo qayta tiklanadigan resurslardir.

Qayta tiklanmaydigan resurslar chegaralangan bo‘lib, ulardan siz devorni bo‘yashda yoki avtomashina bilan sayohat qilishda foydalanasiz. Plastiklar, bo‘yoqlar va benzin qimmatbaho qayta tiklanmaydigan resurslar bo‘lmish neft yoki moydan ishlab chiqariladi. Neft mikroskopik dengiz organizmlarining qoldiqlarini yuz millionlab yil davomida maydalanib chirishi natijasida hosil bo‘ladi. Temir, mis, oltin, kumush va uran singari boyliklar metallardir.

Qattiq yoqilg‘ilar. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz energiya manbai bo‘lib, tiklanmaydigan resurslardir. Qattiq yoqilg‘ilar yuz millionlab yillar davomida paydo bo‘lgan. Mashinalar, avtobuslar, poyezdlar va samolyotlar uchun ishlatiladigan benzin, dizel yoqilg‘isi va raketa yoqilg‘isi neftdan olinadi. Ko‘mir ko‘pgina qudratli zavodlarda elektr ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Tabiiy gaz isitish va dvigatelni harakatga keltirish uchun va ba’zan transport yoqilg‘isi sifatida ishlatiladi.

Qattiq yoqilg'ilarni hozirgi kunda tejash kelajak avlod uchun zahira sifatida qoldirishimiz uchun muhim hisoblanadi. Qayta tiklanmaydigan resurslar chegaralangan. Qattiq yoqilg'ilarning meyordan ortiq yoqilishi natijasida chiqindi gazlar atmosferaga ko'tarilib, uni ifloslanishiga olib kelmoqda. Bu esa ekotizimni buzilishiga olib keladi. Qattiq yoqilg'ilarni o'rniga boshqa energiya manbalarini ishlatish muhim ekanligi ko'pchilik tomonidan ma'qullanmoqda.

Qazilma yoqilg'ilari aloqalari. Deyarli har kuni dunyodagi barcha odamlar qazilma boyliklaridan bevosita foydalanib kelishadi. Chunki, qazilma boyliklar qayta tiklanmaydi va yerda uning ta'minoti cheklangan. Kelajakda uning narxi qimmat bo'lib ketishi va topilishi ham qiyinlashib ketishi mumkin. Yoqilg'idan foydalanish atrof-muhitning eng dolzarb muammosidan biridir. Masalan: tog'-kon ko'miri ekotizimni buzadigan yoqilg'i bo'lsada, biz uni qazib olishga ehtiyoj sezamiz. Qazilma yoqilgilarini yoqish havoni zararlaydi, tarkibida smog va kislota bo'lgan zaharli gazlarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan ko'pgina olimlar yoqilg'i yoqishni kamaytirishni va energiyaning boshqa manbalarini topishni taklif qilishadi, biz yoqilg'idan foydalanishni kamaytirishning boshqa oddiy choralarini ham ko'rishimiz mumkin. Xonadan chiqayotganda chiroqlarni o'chirish, televizorni ko'rmayotgan vaqtda o'chirish kabilardir. Bu tadbirlar bilan siz yoqilg'i yoqish orqali energiya ishlab chiqaradigan elektr stansiyalaridan foydalanishni kamaytirgan bo'lasiz. AQShda millionlab mashinalar undan foydalanadilar. Yoqilgidan foydalanishni kamaytirishning qulay tomoni – velosipeddan foydalanishdir.

Quyosh energiyasi. Quyoshdan quvvat oladigan suv isitgich moslamalari quyosh kollektorlari orqali suv haroratini oshirish uchun quyosh nurlari energiyasidan foydalanadi. Shaffof qoplamali, havo o'tkazmaydigan korpusli, qora rangga bo'yalgan, suv o'tkazgich naychalarga ega singdiruvchan metall plastina va korpusning orqa hamda yonbosh devorlarida issiqlikni yo'qotmaslik uchun izolyatsiyalangan yassi quyosh kollektorlari keng tarqalgan (1-rasm).

Shamol energiyasi. Shamol generatorlari. Shamol energiyasidan mexanik yoki elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanish

mumkin. Bu energiya esa, bevosita shamol tezligiga bog‘liq. Shamol generatorining standart turbinasi quvursimon po‘lat tirgakda joylashgan uch parrakli rotordan iboratdir. Burilish mexanizmi rotorni shamol esayotgan tomonga yo‘naltirib turadi. Rotor reduktor va asinxron generatorni ishga tushiradi. Shamol generatori sekundiga 3–4 metrdan yuqori tezlikda ishlaydi. Uning maksimal ishlash tezligi sekundiga 25–30 metrni tashkil etadi. Shamol generatorlaridan foydalanishning afzalliklari:

1. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasining narxi yoqilg‘i narxlarining o‘zgarishiga bog‘liq emas;

2. Foydalanish xarajatlari past;

3. Zararli chiqindilar chiqarmaydi.

Shamol generatorlaridan foydalanishning kamchiliklari:

1. Mustaqil ishlashi uchun zahira ta‘minot manbai kerak bo‘ladi, ya‘ni energiya ishlab chiqarish shamolning kuchiga bog‘liq;

2. Boshlang‘ich kapital sarflanishi darajasi yuqori;

3. Shovqin chiqarishi va vizual ta‘siri katta.

Biomassadan foydalanish. Chorvachilik va oziq-ovqat sanoatining organik chiqindilari biogaz ishlab chiqarish xomashyosi hisoblanadi. Biomassani anaerob qayta ishlash paytida biogaz qurilmasida maishiy iste‘molchilar tomonidan tabiiy yoki suyultirilgan neft gazi (LPG) o‘rniga foydalaniladi yoxud uni issiqlik yoki elektr energiyasiga aylantirish mumkin. Ishlab chiqarilgan biogaz tarkibida 60–70 foiz metan (CH_4), 30–40 foiz uglerod oksidi (CO_2) va 500 ppm (promill) vodorod sulfid (H_2S) bor. Biogaz moslamalarida foydalaniladigan biomassaning 80–90 foizi go‘ngdan – sutchilik fermasi va qushxonlarning organik chiqindilari qo‘shilgan holda tayyorlanadi. Qoramollarning bir tonna go‘ngidan 25 m³, parrandachilik go‘ngidan 190 m³, sanoat chiqindilaridan 130 m³ biogaz ishlab chiqarilishi mumkin. Biogaz ishlab chiqarishda go‘ng yig‘ish uchun, odatda, qoramollarni fermalarda boqish talab etiladi. Biogaz moslamalaridan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Biogaz CO_2 ga qaraganda neytral yoqilg‘i hisoblanadi, undan foydalanish esa, atmosferada organik chiqindilarni achitishda yuzaga keladigan metan gazi miqdorining ko‘payishini oldini oladi;

2. Achitilgan biomassadan olinadigan o'g'itlarning qiymati miqdori boshlang'ich xomashyonikidan ancha yuqori;

3. Fermerlarga qarashli yerlarda ozuqa moddalarini ekologik xavfsiz va iqtisodiy foydali uslubda, ikkilamchi qayta ishlash – qattiq biomassani biogaz olish uchun achitishning afzalligi hisoblanadi.


Biomassa energiyasi. Biogaz moslamalarida foydalaniladigan biomassaning 80–90 foizi go'ngdan – sutchilik fermasi va qushxonalarning organik chiqindilari qo'shilgan holda tayyorlanadi. Biogaz ishlab chiqarishda go'ng yig'ish uchun, odatda, qoramollarni fermalarda boqish talab etiladi.

2050-yilgacha yer yuzi aholisi 9 mlrd ga yetishi mumkin. Aholi o'sishi bilan bog'liq jarayonda transportlarning yo'lda tig'izligi, yer osti yo'llarini odamlar bilan to'lishi, avtobuslarning tig'iz ketishi, ozuqa resurslarining kamayishi kabi muammolar yuzaga keladi. Aholi zichligi ortadi, ozuqa topish mushkullashadi, infeksiyon kasalliklar tarqalishi kuchayadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talab etiladi.²⁸



**Utaxdagi Zion Milliy xiyoboni markazi.
Quyosh isitish qurilmasi (1-rasm).**

²⁸ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (95-96-100 -betlar)



Nazorat savollari:

1. Tabiiy resurs tushunchasi nimani anglatadi?
2. Tabiiy resurslarning qanday turlari mavjud?
3. Tugaydigan tabiiy resurslarni sanab bering.
4. Tugamaydigan tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
5. Chiqindilar deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekistonning qaysi shaharlarida chiqindilar ko'p to'planadi?

8-MAVZU: ATMOSFERA VA UNI MUHOFAZASI

Reja

1. Atmosfera tarkibi
2. Atmosfera tuzilmasi
3. Atmosferaning floslanishi va tabiiy tozalanishi
4. Atmosferaning muhofazasi

Tayanch soʻzlar: Ozon qatlami, freonlar, chiqindilar, energetik komplekslar, tabiiy ifloslanish, suniy ifloslanish

Atmosfera havosi koʻrinmas va elementlarga toʻliq boʻlib, atrof-muhitning abiotik omili sifatida ahamiyatga ega. Atmosfera sayyoramizning gazsimon qobigʻi hisoblanib, Yer yuzasi har hil gazlar aralashmasi va suv bugʻlari, changlardan tashkil topgan. Havo oʻz ichiga 78% azot, 21% kislorod, 0, 94% argon, 0, 03% karbonat anhidrid va boshqa gazlarni oladi. Karbonat anhidrid gazi fotosintez jarayonini amalga oshirishda qatnashadi. Fotosintez karbonat anhidrid, suv va quyosh nuri taʼsirida borib, uning mahsuloti glyukoza, kislorod va suv bugʻidan iborat. Inson faoliyati karbonat anhidrid gazini atmosferaga tashlanishini orttirib yubormoqda.

Yerning atmosfera qobigʻi keyin paydo boʻlgan. Atmosfera yerning geologik tarixida yer qobigʻining tarkibiy qismlari bilan tirik organizmlar faoliyati oʻrtasidagi geokimyoviy jarayonlar oqibatida litosferadan ajralib chiqqan gazsimon moddalardan tarkib topgan.

Tabiat uchun atmosfera havosining ahamiyati juda katta. Atmosfera havosi nafas olish uchun kislorod, fotosintez uchun karbonat anhidrid manbaidir. U sayyorada suv bugʻlarini tashuvchi hisoblanib, tirik organizmlarni kosmik nurlanishdan saqlab turadi. Havo iqlimni idora etadi, havo uchib yuruvchi organizmlar uchun muhit boʻlib, tuproq unumdorligiga taʼsir yetadi, bir qancha kimyoviy jarayonlar roʻy berishiga imkon beradi.

Havo kishilarga kimyoviy xomashyo beradi. Undan energiya manbai sifatida foydalaniladi. Havo kislorodi yonish jarayoniga sabab bo'ladi.

Yer sharida kislorodsiz hayot bo'lishi mumkin emas. Kislorod quruqlikdagi o'simliklarning hayot faoliyati mahsulidir, o'simliklar fotosintez paytida suvni va karbonat angidridni yutib parchalab, atmosferaga erkin kislorod ajratib chiqaradi. Boshqa barcha tirik mavjudotlar kislorodni o'zlashtiradi xolos.

Karbonat angidrid tirik organizmlarning nafas olishi, yoqilg'i yoqilishi, organik moddalarning chirishi va parchalanishi oqibatida atmosferaga tarqaladi.

Atmosferadagi azot muhim biologik ahamiyatga ega. U azot to'plovchi bakteriyalar va ko'k-yashil suv o'tlari uchun ozuqa manbaidir. U boshqa o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladi. Fiziologik nuqtai nazardan esa atmosfera bosimini ushlab turib hayot jarayonlarini amalga oshishga imkon beradi.

Radioaktiv ifloslanishning manbalari atom va vodorod bombalarini sinovdan o'tkazish bo'lsa bundan tashqari radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini tayyorlashda elektrostantsiyalarining atom reaktorlari va radioaktiv chiqindilardan atmosferaga tarqaladi.


Inson va boshqa tirik organizmlar uchun atmosfera havosining freonlar bilan ifloslanishi jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Ulardan sovutgich qurilmalarida, yarim o'tkazgichlar va aerosol balonchalar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Freonlar ozon qatlamiga ta'sir yetadi. Ular qisqa to'liqli ultrabinafsha nurlar ta'sirida parchalanadi natijada xlor, ftorlarga ajraladi. Natijada xlor va ftorlar ozon bilan o'zaro ta'sir etadi. Havoning ifloslanishi natijasida insonlarda darmonsizlanish, ish qobiliyatini pasayishi, yo'tal, bosh aylanishi, ovoz boylamlarining siqilishi, o'pka, ko'z bilan bog'liq har xil kasalliklar, organizmning umumiy zaharlanishi, kasallikka qarshi kurashishning susayishi kabi holatlar kelib chiqadi.

Qazilma yoqilg'ilarni ishlatilishi atmosferada CO₂ gazini miqdorini orttiradi va bu gaz bir qator muammolarni olib keladi. CO₂ gazini miqdorini atmosferada oshishi avvalo, Yerda global isishga olib keladi. AQShdagi eng issiq iqlim Kaliforniyadagi O'lik vodiya

1913-yil iyul oyida kuzatilgan. Yuqori harorat 57°C ni tashkil qilgan. Rekord darajadagi eng sovuq temperatura Antarktikada kuzatilib, -89°C ni tashkil qilgan.

Global isish. 1895 -yildan 1995-yilgacha Yerdagi o‘rtacha kunlik harorat 100 yillik davr mobaynida 1°C ga ko‘tarilgani aniqlandi. Hech kim buning sababi insonlar faoliyati natijasi yoki Yerning tabiiy ob-havosi natijasi ekanligini aniq aytolmaydi. Global isish qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin? Dovullar sonining oshishi mumkin. Muz qutblarining erishi boshlandi, bular dengiz suv sathini ko‘taradi va qirg‘oqboyi hududlarini suvga g‘arq qiladi. Ob-havoning isishi tropik kasalliklarni keltirib chiqarmoqda, misol uchun bezgak kasalligi ko‘p tarqalishi kuzatilmoqda.

Ozon qatlamining yemirilishi. Ozon (O_3) – gaz, atmosferaning yuqori qatlamida tashkil topib, 70 kilometr balandlikkacha kuzatiladi, ammo uning asosiy massasi 20–55 kilometr balandlikdagi masofada joylashgan. Ozonning atmosferadagi umumiy massasi $3,2 \times 10^9$ tonna atrofida (1-rasm). Ozon Quyosh radiatsiyasining tahminan 3% ini, ya’ni ultrabinafsha nurlarning 0,22–0,29 mkm uzunlikdagi to‘lqinlarini yutadi. Ultrabinafsha nurlar bakteriyalarni o‘ldiradi, organizmda D vita‘minining shakllanishida yordam beradi. Ammo ortiqcha ultrabinafsha nurlar kuyish, teri kasalliklariga olib keladi. Agar ozon bo‘lmaganda, ultrabinafsha nurlar organik olamni o‘zgartirib yuborgan bo‘lar edi.



Ozon kunduzi maksimum, kechasi minimum uchraydi va fasllar bo'yicha bahorda maksimum, kuz va qishda minimumni tashkil etadi.²⁹ Har yili bahor faslida ozon qatlamining vaqti-vaqti bilan yupqalashib borishi kuzatilmoqda. Ozon qatlamining yupqalashib borishi *ozon qatlamining yemirilishi* deyiladi. Ifloslangan gazlar bu muammoning asosiy sababi bo'lib, ozon qoplami uchun eng havfli gaz CFC (xlor-ftor-uglerod)dir, u sovitish tizimida ishlatiladi. CFC havoga chiqarilgandan so'ng, toki u ozon qatlamiga yetmaguncha atmosferada ko'tarilib boraveradi. CFC ozon qatlamiga kimyoviy ta'sir etadi va ozon molekulalarini parchalaydi. Ozon qatlami hayotni ta'minlash uchun juda muhim sanaladi, shu sabab butun dunyo davlatlari sanoatida CFC ni ishlatishni to'xtatishi lozim.

1-rasm. Ozon molekulalari

Atmosferaga chiqarilayotgan metan, is gazi va karbonat angidrid gazlari bilan birga oltingugurt va azot oksidlari ham chiqarilmoqda. Ular kislotali yomg'irlarni paydo qilmoqda (1–2-rasmlar).



2-rasm. Kislotali yomg'irdan oldin va keyingi holatda haykal-larning tashqi qiyofasining ko'rinishi.

²⁹ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005(103-104;113-114-betlar).

Qayta ishlash

Qayta ishlash qayta foydalanishning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda tabiiy resurslarni yoki tovarlarni o‘zgartirib taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Qayta ishlanadigan materiallar o‘z ichiga shishalar, metallar, qog‘oz, plastmassa, uy va oshxona jihozlarini qamrab oladi.³⁰

Qayta ishlash va qayta foydalanishning farqi nimada? Bugungi kunda ko‘plab plastik turlaridan foydalanilmoqda. Plastiklarni boshqa materiallarga nisbatan qayta ishlash biroz qiyin. Har bir plastik konteynerlarida plastiklarni ishlashda foydalangan tur ko‘rsatiladi va qayta ishlash kodi belgilanadi. Ko‘plab plastik qoplar 2 yoki 4 plastik turidan ishlab chiqariladi. 6 va 7 turdan iborat plastiklar har doim ham ishlanmaydi, chunki ular turli xil plastiklar aralashmasidan hosil qilingan. Qayta ishlashdan avval har bir plastik turini ehtiyotlik bilan ajratish kerak.

Muhofaza qilishning uchta yo‘li

Chiqindilarni qayta ishlashning 3 ta yo‘li: tabiiy resurslardan kam foydalanish, qayta foydalanish va qayta ishlab chiqarish yo‘llari mavjud. Qazilma boyliklarni qidirib topish, qayta ishlash va tashish jarayonida Yer yuzasi strukturasi buziladi hosildor maydonlar qisqaradi, o‘simliklar nobud bo‘ladi, tuproq eroziyasi tezlashadi, oqibatda yaroqsiz yerlar maydoni oshadi. Shunday qilib yerlar hozir dunyoda 10 mln. gektarni tashkil qilsa, 2 000-yilga borib 5–6 barobar oshadi. Masalan, 1 tonna temir olish uchun 5–6 tonna ruda, 1 tonna qo‘rg‘oshin olish uchun 60–90 t, 1 tonna rux olish uchun 80–100 tonna 1, tonna mis olish uchun 100–140 t, 1 tonna mis olish uchun esa 60 000–80000 tonna ruda ishlatiladi. Hozir yer yuzasida millionlab tonna metallurgiya shakllari, issiqlik elektr stansiyalaridan chiqqan ko‘plab tog‘ uyumlarini tashkil qilgan. Hisoblarga ko‘ra so‘nggi 100 yil ichida dunyoda 20 mlrd. tonnadan ortiq shpak, 3mlrd. tonna kul, 17 mln. tonna mishyak, 1 mln. tonna nikel, 1 mln. tonna kobolt va boshqa foydali elementlar chiqarib tashlangan.

Atmosfera havosining *tabiiy* va *sun‘iy ifloslanishlari* ajratiladi.

Tabiiy ifloslanish. Atmosferada doimo ma‘lum miqdorda changlar uchraydi. Ular tabiatdagi hodisalar natijasida hosil

³⁰ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005 (103-104;113-114-betlar).

bo'ladi. Changlarning uch turi ajratiladi: *mineral, organik, kosmik*. Mineral changlar tog' jinslarining yemirilishi, vulqonlar otilishi, o'rmon yong'inlari, dengizlar yuzasidan suvlarning bug'lanishi kabilar natijasida kelib chiqadi. Organik changlar havo qatlamidagi aeroplanktonlar shuningdek, o'simlik va hayvonlarning qoldiqlar va parchalanish mahsulotlaridir (1-ilova).

Kosmik changlar meteoritlarning atmosfera qatlamidan o'tayotganda yongan qoldiqlari hisoblanadi.

Sun'iy ifloslanish. Atmosfera havosini asosan ifloslantiruvchi manbalar bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan insonning sanoat ishlab chiqarishidagi va avtotransportlarning rivojlanishidir. Havoga ko'p miqdorda karbon kislota, uglevodorodlarning oksidlari, sulfid angidrid va boshqa moddalar chiqarilib, ular tabiiy muhitga va odamlarga juda katta zarar yetkazmoqda. Bu holat ayniqsa yirik shaharlarda ko'zga tashlanadi. Atmosfera havosini ifloslanishi muammosi barcha insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Insonning hayot faoliyati uchun eng muhim mahsulot havo hisoblanadi. Odam ovqatsiz 5 hafta, suvsiz 5 kun, havosiz 5 daqiqa yashashi mumkin. Insonlar normal yashashlari uchun nafaqat havo, balki uning tozaligi ham muhim hisoblanadi. Havoning ifloslanishi odam salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda atmosferaga chiqariladigan nisbiy ifloslantiruvchi moddalarning miqdori keyingi yillarda ikki martaga qisqardi, ya'ni jon boshiga 90 kg ni tashkil etdi. Ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdoriga nisbatan 51, 9%-SO₂, 16%-NO₂, 17, 9%-N₂S lar, 8, 9%-SO₂, 6, 1%-qattiq moddalar va 0, 2% boshqa maxsus zararli moddalarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga ba'zi bir shaharlarda ifloslanishning sanitar-gigienik normadan ortiqligi kuzatilmoqda,. Masalan Olmaliq, Navoiy, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda changlar, Olmaliqda SO, Navoiy, Farg'ona, Marg'ilon, Termezlarda, Angren, Navoiy, Farg'onada fenol; Andijon, Navoiy, Chirchiq, Toshkentda ammiak bilan ifloslanadi.

Energetik komplekslar tomonidan 2000-yilda atmosfera havosiga 255,5 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar chiqarilgan. Uning 59% i sulfid angidrid gaziga to'g'ri keladi. Shuningdek, 40–60% gacha

atmosferani dimiqishini keltirib chiqaruvchi karbonat angidrid gazi atmosferaga chiqadi. Atmosfera dimiqishi hisobiga Yerning o'rtacha harorati XXI asr boshlarida 1–1,5°C ortadi. Atmosferaning quyi qatlamlari ortiqcha isishi yirik shaharlarda yaxshi seziladi. Yillik o'rtacha haroratning qutb muzliklarini erishi, dunyo okeanlarining satxini ko'tarilishi, ba'zi qit'alarda ayrim joylarning suv bosishi, tektonik jarayonlarning kuchayishi va iqlimning o'zgarishi kabi oqibatlar kelib chiqadi. 1 kVt/soat elektr energiya ishlab chiqarishda havoga 6, 0 tonna chiqindi chiqadi.

Qora va rangli metallurgiya sohasida atmosferaga 123, 6 ming tonna chiqindi chiqarilib uning 95 ming tonnasi sulfid angidrid gaziga to'g'ri keladi. Rangli metallurgiya korxonalari og'ir metallarning aerezollari, sulfat kislota, tsianidlar va ftoridlar kabi maxsus ifloslantiruvchi moddalar chiqaradi.

Qurilish sohasidagi korxonalar tomonidan 27,6 t chiqindi chiqarilib uning ma'lum miqdori chang va is gazidan iborat. Ohangaron, Bekobod, Qarshi, Navoiy, Nukus kabi shaharlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manba qurilish sanoati va tsement ishlab chiqarish hisoblanadi.

Kimyoviy kompleks. Kimyo sanoati xissasiga tahminan atmosferaning ifloslanishining umumiy ko'rsatkichiga nisbatan 3% to'g'ri keladi. Havoda sulfid angidrid gazi changlar, tutun kabilar bilan ifloslanishi natijasida sanoat rayonlarida nam va sokin havoda quyun hosil bo'ladi. U zaharli tumandan iborat bo'lib, odamlar hayotiga havf solishi mumkin. London shahrida aka shunday sharoitda yurak xastaligi va o'pka kasalliklarining kuchayishi tufayli 1952-yilda 4000 kishi nobud bo'lgan.

Avtotransport havoni ifloslanishida katta o'rin egallaydi. AQSh ning atmosfera havosi 60% avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan ifloslanadi. Nyu-York, Los Anjeles, Tokio kabi yirik shaharlarda havoning ifloslanishi darajasi 80–90% ni tashkil etadi.

Avtomobildan chiqadigan gazlar tarkibida zararli moddalar mavjud. Atrof-muhitga is gazi oltingugurt va azot birikmalari bilan birga 3,4 benzapiren va qo'rg'oshin kabi kantserogen moddalar ham ajralib chiqadi. Atmosferaga chiqadigan gazlar bilan 25–27%

qo'rg'oshin chiqadi. Dunyo bo'yicha bugungi kunda 500 mln. dan ortiq avtomobillar harakatlanadi.

Los Anjeles shahrida havoni 2,5 mln. avtomobil, Parijda esa 900 ming avtomobil zaharlaydi. Havoga ajralib chiqadigan gazlar o'simlik hayvonlar va odam salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Atmosferaning eng havfli ifloslanishi radioaktiv ifloslanishdir. Bu esa odam salomatligiga salbiy ta'sir etib, ularning avlodlarida turli xildagi mutatsiyalarni keltirib chiqarishi bilan havfli bo'ladi.

Radioaktiv ifloslanishning manbalari atom va vodorod bombalarini sinovdan o'tkazish bo'lsa bundan tashqari radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini tayyorlashda elektrostantsiyalarining atom reaktorlari va radioaktiv chiqindilardan atmosferaga tarqaladi.

Inson va boshqa tirik organizmlar uchun atmosfera havosining freonlar bilan ifloslanishi jiddiy salbiy oqibatlariga olib keladi. Ulardan sovutgich qurilmalarida, yarim o'tkazgichlar va aerosol balonchalar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Freonlar ozon qatlamiga ta'sir etadi. Ular qisqa to'lqinli ultrabinafsha nurlar ta'sirida parchalanadi, natijada xlor, ftorlarga ajraladi. Natijada xlor va ftorlar ozon bilan o'zaro ta'sir etadi. Ozon qatlamining siyraklashishi havfli yerlarga ultrabinafsha nurlarning kirib kelishi natijasida teri raki kasalligi ortishiga sababchi bo'lmoqda.

Havoning ifloslanishi natijasida odamlarda darmonsizlanish, ish qobiliyatini pasayishi, yo'tal, bosh aylanishi, ovoz boylamlarining siqilishi, o'pka, ko'z bilan bog'liq har xil kasalliklar organizmning umumiy zaharlanishi, kasallikka qarshi kurashishning susayishi kabilar kelib chiqadi.

Atmosferani ifloslanishiga qarshi kurashish juda murakkab va ko'p qirralidir. Shuningdek, katta kuch va mablag' talab etadi. Atmosfera havosini muhofaza qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash lozim:

1. Xavfli moddalarni hosil bo'lishini bartaraf etuvchi mavjud texnologiyalarni takomillashtirish. Yangi texnologik jarayonlarni joriy etish;

2. Yoqilg'i tarkibi apparatlar va karbyuratorlarni yaxshilash, tozalovchi qurilmalar yordamida atmosferaga chiqindilar chiqishini kamaytirish va bartaraf etish;

3. Zararli chiqindilar chiqaruvchi manbalarni to‘g‘ri joylashtirish orqali atmosferani ifloslanishini oldini olish va yashil maydonlarni kengaytirish (2-ilova).

O‘zbekiston Respublikasida Bosh gidrometerologiya va Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi tomonidan atmosfera havosi va uni ifloslantiruvchi manbalari nazorat qilinadi. Bosh gidromet har sutkada atmosfera havosini zararlanish darajasini 39 aholi punktlarida kuzatib turadi. 16 turdagi gazlar (chiqindilar) va 6 turdagi og‘ir metallar hamda benzapiren nazorat ostidadir. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi tomonidan respublikamizning 136 aholi punktlarida sanoat korxonalarini va harakatdagi avtotransportlarni nazorat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosi to‘g‘risidagi» Qonuniga binoan atmosfera havosining holati va unga tegishli ma’lumotlar yagona davlat nazorati, ya’ni tabiiy muhitni nazorati tizimida olib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Atmosfera tarkibidagi gazlarni aytib bering.
2. Atmosferaning ifloslanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Global isishni izohlang.
4. Issiqxona effekti nima?
5. Kislotali yomg‘irlarning qanday salbiy ta’siri bor?
6. Ozon tuynugi muammosi deganda nimani tushunasiz?
7. O‘zbekistonda atmosfera havosini muhofaza qilish borasida qanday ishlar qilinmoqda?

9-MAVZU: SUV RESURSI VA UNING MUHOFAZASI

Reja

1. Suvning yer yuzidagi ahamiyati.
2. Suv zahiralari.
3. Suvni ifloslanish yoʻllari va manbalari.
4. Suvni tozalash usullari.

Tayanch soʻzlar: Suv resurslari, suv resurslarining ifloslanishi, tozalash-zararsizlantirish.

Suv yerdagi hayotning manbai boʻlib, barcha tirik orgnaizmlar uchun asosiy ingridient hisoblanadi. Maʼlumotlarga qaraganda, koʻpchilik organizmlarning tanasini 50% dan 95% gacha suvdan tarkib topgan. Fotosintez, transpiratsiya va boshqa barcha hayotiy jarayonlar suv ishtirokida yuz beradi. Suv eng qimmatli tabiiy resurs. U hayotni tashkil qiluvchi moddalar almashinuvi jarayonida muhim rol oynaydi. Suv sanoat va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishda, maishiy turmushda katta ahamiyatga ega.

Suv yer yuzasini shakllanishida ishtirok etadi, tabiatda aylanib turadi, shuningdek iqlimni, ob-havoni shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Suv dunyoning eng katta boyligi, ammo chuchuk suv zahiralari cheksiz emas. Yer sharining koʻpgina rayonlarida, chuchuk suv tanqisligi dolzarb muammo hisoblanadi.

Suv resurslari; okeanlar, dengizlar, daryo va koʻllar, qutb va togʻlikdagi muzliklar, yerosti suvlari, tuproq va havodagi namlikdan iborat. Umumiy suvning miqdori 1,5 mlrd. km³. ni tashkil etadi. Bu miqdordagi suvning 94,2%i shoʻr suvlar hisoblanadi. Chuchuk suv zahiralari 2–2,5% dan iborat. Chuchuk suvlar asosan Antarktida muzliklarida, Grenlandiya, qutbdagi orollar va togʻlarda joylashgan (1–2–3–4-ilovalar).

Dunyoning koʻpgina rayonlarida chuchuk suv tanqisligi kuzatiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda har xil maqsadlarda foydalaniladigan suv sarfi 150 km³ ni tashkil qiladi.

Tahminan insoniyatning 1/3 qismi “suv ocharchiligi”ga duchor bo‘lgan. Yer sharining qurg‘oqchil rayonlarida aholining suvga bo‘lgan talabi qondirilmaydi. Meksika, Eron, Pokiston, Jazoir, AQShning 10 dan ortiq shtatlari, Rossiyaning ayrim viloyatlari va O‘rta Osiyo davlatlari shular jumlasidandir.

Kishilar suv havzalari, daryolar va ko‘llardan foydalanilib, uy xo‘jaligi, biznes, qishloq xo‘jaligi va mahsulot ishlab chiqarishda foydalanishadi. Biroq hozirgi paytda suvdan foydalanish ortib ketmoqda. O‘simlik va hayvonlarga suv yetishmasligiga ham insoniyat sababchi bo‘lib qolmoqda. Chunki tejamkorlikka hamma sohada bir maromda amal qilinmaydi.

Qishloq xo‘jaligida o‘g‘it qoldiqlarini suvga tashlanishi, yoki ko‘llarda va hovuzlarda suv o‘tlarining ko‘payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Suv o‘tlarining ko‘payib ketishi suvda erigan kislorodni tanqisligini vujudga keltiradi va natijada zooplanktonlarning nobud bo‘lishi olib keladi.

Yer usti suvlari


Suv ifloslanishi baliqlar va suvdagi boshqa tirik organizmlarni zaharlamogda va bu suvda suzadigan va shu suvni iste’mol qiladigan insonlarga ham zarar yetkazish mumkin. Misol uchun ferma yerlaridagi kimyoviy pestitsid parchalari ariqlar va ko‘llarga oqiziladi. Bu kimyoviy moddalar baliqlar, toshbaqa va qurbaqalar uchun ozuqa vazifasini bajaradigan hasharotlarga zarar yetkazmogda. Ozuqani yetishmasligi esa suv ostida yashovchi hayvonlarning o‘limiga olib kelmogda. Ba’zi ifloslanishlar xususan simob va boshqa metallarni ozuqa orqali baliqlar tanasiga o‘tkazmogda. Zararlangan baliqlar va qisqichbaqalar bu metallarni insonlar, qushlar va boshqa hayvonlarga o‘tkazishlari mumkin bo‘ladi. Bu zararlangan hududlarda insonlar ifloslangan suv yo‘llaridan keltirilgan baliqlar va qisqichbaqalarni yemasliklari haqida ogohlantiriladi. Dengiz suv o‘tlarining gullashi boshqa bir suv ifloslanish muammosi sanaladi. Ortiqcha o‘g‘itlangan va ishlov berilmagan oqar suvlarda katta miqdorda azot mavjud. Agar ular ko‘l yoki hovuzlarga oqizilsa, dengiz o‘tlarining jadal o‘sishiga sabab bo‘ladi. Qachonki, suv o‘tlari nobud bo‘lsa, ulardan suvda ko‘p kisloroddan foydalanadigan bakteriyalar parchalanadi. Baliqlar va

boshqa organizmlar esa suvda kislorodning kamligi sababli nobud bo'ladi.

Okean suvi. Dengizlar va daryolar o'zi bilan chiqindilarni okeanlarga quyadi. Har yili tahminan 4 mln kg moylar okean suvlariga quyiladi. Ko'plab moylar esa okean suvidan oz yoqilg'i sisternasini yuvish uchun foydalanadigan kemalardan kelib chiqmoqda.

Suvning ifloslanishi. Inson xo'jalik faoliyati toza suv muhitiga zarar keltiradi. Fermer xo'jaliklar va o'tloqlarga ishlatilgan o'g'itlarning ortiqcha miqdori hovuzlar va ko'llarda kelib qo'shilishi suv o'tlarining o'sishiga olib keladi. Bu organizmlarning o'sishi va chirishi, suvdagi kislorod miqdorini qisqartiradi va ba'zi organizmlarning hayot kechishida qiyinchilik tug'diradi. Bu muammolarni oldini olishda, oqindi suvlarni qo'yib yuborishdan avval ularga ishlov berish lozim. Insonlar ko'llar va hovuzlarning ifloslanishi bilan bog'liq muammolar haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Bu kabi nazoratlar ko'plab toza suv ekotizimlarini asl holiga qaytarishda boshqaruv usuli bo'lib xizmat qilishi kerak.

Ifloslanish suvga ham ta'sir o'tkazmoqda. Havodagi ifloslanish yomg'ir orqali yerga tushadi. Amerika Qo'shma Shtatlari va boshqa ko'plab mamlakatlarda ifloslanishning oldini olish uchun ifloslangan suvlarni iste'molga chiqarishdan avval qayta ishlash qonunan talab qilinmoqda. Ammo dunyoning ko'plab hududlarida ularni qayta ishlashning iloji yo'q. Ifloslanishning yana bir sababi, bu insonlar dengizlar, ko'llar va okeanlarga chiqindilar va ishlatilgan materiallarni tashlashlaridir (1-rasm).



Suvning ifloslanishi. 1-rasm

O'zbekistonda sug'orish uchun asosiy suv manbalari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq va Oxan-

garon daryolaridir. Respublika bo'yicha yer osti suvlarining tabiiy zahiralari 66342 ming m³.

Suv resurslarini ifloslanish manbalari asosan qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda, mineral o'g'itlar va turli pestitsidlardan suv bilan birga yuvilib oqova suv hosil qilishi chorvachilik komplekslari orqali ochiq suv havzalari va yer osti suvlarini ifloslanishi, sanoat ishlab chiqarish korxonalari suvni og'ir metall ionlari va turli xil zaharli moddalar bilan ifloslab oqova suvlarni hosil qilishidir. Bunday suvlar tarkibida, sanoat korxonalaridan og'ir metallar, fenol, xlor, kaprolaktom, neft mahsulotlari, biologik va kimyoviy ifloslantiruvchi moddalar uchraydi.

Suv resurslarini ifloslantirishda temir yo'l, aviatsiya transport vositalari, shuningdek avtokorxonalarining ham hissalar bor.

Sanoat chiqindilari orasida neft va uning mahsulotlari, daryo va ko'llarning ifloslanishida eng havflilari hisoblanadi.

Atom elektrostantsiyalaridan chiqadigan radioaktiv chiqindilar daryo suvlarini ifloslantiradi. Ular suvdagi plankton va baliqlar organizmida to'planib, ulardan boshqa organizmlarga o'tadi.

Maishiy chiqindilar aholining o'sishi, yangi shaharlarning barpo qilinishi tufayli oqova suvlarni ko'payishiga olib keladi. Maishiy turmushdagi oqova suvlar daryo va ko'l suvlarini kasallik tug'diruvchi bakteriyalar va gelmentlar bilan ifloslanish manbai bo'lib qolgan, shu bilan birga suv havzalarini maishiy turmushda keng foydalanayotgan sintetik yuvuvchi vositalar ifloslantirmoqda.

Tozalash-zararsizlantirish. daryo va boshqa suv havzalarida suvni o'z-o'zidan tabiiy tozalanishi kuzatiladi. Ammo rivojlangan davrda chiqindilar ko'pligi, uni suv havzalarini ifloslantirishi natijasida oqova suvlarni tozalash zaruriyati kelib chiqdi. Oqova suvlarni tozalashni quyidagi metodlarini ajratish mumkin.

Mexanik, fiziko-kimyoviy va biologik metodlardan foydalanish, ya'ni aralash metodlar ma'lum.

Mexanik tozalash metodining mohiyati, oqova suvni tindirish va filtrlashdan iborat.

Fiziko-kimyoviy tozalash metodida oqova suvlardagi organik chiqindilardan va oksidlanadigan yoki yomon oksidlanadigan organik moddalarni parchalab yuboriladi. Bunda elektroliz usuli keng

qoʻllaniladi. Ifloslangan oqova suvlar yuqoridagilardan tashqari ultratovush, ozon, ion almashtiruvchi smolalar va yuqori bosim ostida tozalanadi. Xlorlash ham yaxshi samara beradi.

Biologik metod ham oqova suvlarni tozalashda katta rol oynaydi. Buning uchun bir necha turdagi biologik qurilmalar, yaʼni biofiltrlar, biologik hovuzlar va aerotenkalardan foydalaniladi.

Biofiltrlar orqali oqova suvlar yirik donador material qatlami ustiga yupqa bakteriyalardan iborat qatlam orqali oʻtkaziladi.


Biologik hovuzlarda esa suv havzalaridagi barcha organizmlar oqova suvlarni tozalashda ishtirok etadi.

Aerotenkalar temir betondan qurilgan katta rezervarlardir. U erda oqova suv bakteriyalar va mayda jonivorlardan tashkil topgan faol loyqalardan tozalanadi.

Oʻzbekistonda xalqaro meyyorga mos keladigan tabiiy muhit va suvni muhofaza qiladigan qonun va meyyoriy hujjatlar qabul qilingan. Shulardan 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish» haqidagi qonunni aytib oʻtish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish qoʻmitasi 100 dan ortiq qonunlar loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Shulardan bittasi Oʻzbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv haqidagi qonunni aytish mumkin. Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasida ana shu qonun asosida ish olib boriladi.

1-ilova

Suvning tarqalishi



2-ilova**Suv resurslari tarqalishi (Lvovich)**

№	Gidrosfera qismlari	Yalpi suv ming km³	%	Almashish aktivligi yili
1	Dunyo okeani	1307324	93, 96	3000
2	Yer osti suvlari	600000	4, 12	5000
3	Shu jumladan aktiv almashishni zonalari	4000	0, 27	330
4	Muzliklar	24000	1, 65	8000
5	Koʻllar	280	0, 019	7
6	Tuproq namligi	85	0, 006	0, 017
7	Atmosfera	14	0, 001	0, 027
8	Daryolar	1, 2	0, 0001	0, 031
	Jami:	1454193	100	2800

3-ilova**Chuchuk suv zahiralari**

№	Gidrosfera qismlari	Chuchuk suv km³	%
1	Muzliklar	24000000	85
2	Yer osti suvlari	4000000	14
3	Koʻllar va suv omborlari	155000	0, 6
4	Tuproq namligi	83000	0, 3
5	Atmosferadagi suv	14000	0, 06
6	Daryo suvlari	120	0, 004

4-ilova

Amudaryo suvlarida ifloslovchi moddalar miqdori mg/l hisobida (Termez sh.)

Modda nomi	1979	1900	1981	1982	1982	1986	1987	1988	1989	1990
Mineralizatsiya	-	579, 1	643, 8	674, 8	624, 9	553, 0	511, 3	529	712	653, 2
Azot	2, 62	0, 989	0, 510	0, 603	0, 878	0, 404	0, 954	0, 891	0, 847	1, 349
XPK	18, 1	14, 4	17, 1	13	17, 7	13, 1	11, 9	12, 3	11, 7	10, 4
Mis	-	8, 5	9, 6	6, 3	5, 3	8, 1	1, 9	2, 6	3, 8	3, 2
Xrom	8, 0	10, 9	12, 6	11, 9	12, 0	2, 3	2, 3	1, 9	0, 7	2, 8
DDT	0	0	0	0, 011	0, 018	0, 002	0	0, 019	0	0
Alfa-GXTSG	-	0, 153	0, 41	0, 011	0, 026	0, 023	0, 029	0, 036	0, 017	0, 011
Gamma-GXTSG	-	0, 052	0, 016	0, 002	0, 051	0, 018	0, 017	0, 022	0, 006	0, 009

Nazorat savollari:

1. Suvning ahamiyatini tushuntiring.
2. Suvdan global foydalanish nima?
3. Suv yetishmaslik indeksi haqida to'xtaling?
4. Suvni ifloslanishi qanday ro'y beradi?
5. Oqova suvlar qanday tozalanadi?
6. O'zbekistonda suv iste'moli qanday taqsimlangan?

10-MAVZU: TUPROQ RESURSI

Reja

1. Tuproq hosil bo'lish omillari.
2. Tuproq muhit sifatida.
3. Tuproqdagi ekologik muammolar.
4. Tuproqni muhofaza qilish.

Tayanch so'zlar; Tuproq, normal, tezlashgan va antropogen eroziyalar, tuproq ifloslanishi.

Tuproq mineral va qoyatosh bo'laklarining aralashmasi hisoblanib, qolgan qismi esa notirik organizmlar, suv va havodan tashkil topgan. Demak, tuproq ham abiotik omillar sirasiga kirib, jonsiz qoyatoshlar va mineral bo'laklardan tashkil topishi ma'lum qonuniyatga asoslangan. Tuproq o'z tarkibiga bakteriya, zamburug', hasharotlar va chuvalchaglarni ham oladi. Tuproqning hosildorligi uning tarkibidagi gumus bilan bog'liq. Tuproq qum, loy va gumusning turli komponentlarini bir-biri bilan bog'laydi.

Rachel Carson (1907–1964) mashhur atrof-muhit muhofazasi targ'iboti yozuvchilaridan sanalib, AQSH dagi "Baliq va yovvoyi tabiat" nashriyotidagi 15 yillik faoliyatidan so'ng o'zining ijodini yozuvchilikka bag'ishladi. U tomonidan "Silent Spring" nomli kitob nashrdan chiqadi. Unda pestitsidlarning zarari va ular olib keladigan kasalliklar zikr etilgan.³¹

Tuproq zararlanishi

Hosildor yerlar o'simlik o'sishi uchun zarur hisoblanadi. Hosildor yerlar shakllanishi yuz ming yillarga borib taqaladi. Yomg'ir yog'ib, yerni bo'shatib, uning ustki qismini oqizib ketadi, shamol ham uning ustki qismini ozi bilan uchirib ketadi. Tuproqning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib harakatlanishi eroziya deb ataladi. Eroziyaga uchragan yerlar daryo va kichik daryolar tomonidan yuvilib turiladi va qu-

³¹ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (8-132-betlar).

yosh nuriga toʻsqinlik qilib fotosintez jarayoniini sekinlashtiradi. Bu esa baliqlar, molyuskalar va boshqa organizmlarga talofat keltiradi. Eroziya tabiiy jarayon, lekin u inson taʼsiri ostida kuchayib boradi, ekinzorlar haydalib, oʻrmonlar kesilishi oqibatida yerlar ochiq holga kelib qolmoqda. Ochiq holdagi yerlarni esa shamol va yomgʻir osonlik bilan yuvib oqizib ketadi.³²

Tuproq resursi

Tuproq yer qobigʻining yuza unumdor qismidan iborat boʻlib, tabiiy-tarixiy jismdir. Uning qalinligi oʻrtacha 18–20 sm ni tashkil etib, Yer yuzasining turli joylarida bir necha mm dan 1, 5–2 metrgacha boʻladi. Tuproqning hosil boʻlish jarayoni bir necha ming yillarni oʻz ichiga oladi. Bunda tuproq hosil qiluvchi togʻ jinsi bilan, suv, havo, harorat, oʻsimlik va hayvon organizmlari, ayniqsa mikroorganizmlar oʻzaro taʼsirda boʻladi.

Tuproqning eng muhim hossasi, uning unumdorligi hisoblanadi, yaʼni oʻsimlikni suv, havo va ozuqa moddalar bilan taʼminlash hususiyatiga ega.

Tuproq barcha elementlarni oʻzida saqlab, ularni suv bilan yuvilib ketishidan asraydi. Tuproqning gumusi, uning umumiy unumdorligini belgilab beradi.

Tuproq inson omilining koʻpgina taʼsirlariga nihoyatda sezgir. Tuproqning unumdorligi koʻpincha inson faoliyatiga bogʻliq.

Tuproq barcha moddiy farovonligimiz manbaidir, u oziq-ovqat mahsulotlari, chorva uchun yem-xashak, kiyim-kechak uchun tola, yogʻoch materiallari va boshqalarni beradi.

Tuproq noyob tabiiy resurs hisoblanadi. Oʻzbekistonda umumiy yer fondining atigi 10% i sugʻoriladigan yerlar hisoblanadi. Sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik maydonlari 4, 2% ni tashkil etadi.

Mamlakatimizning yalpi qishloq xoʻjalik mahsulotlarining 95% i ana shu sugʻoriladigan yerlardan olinadi. Yerlarning oʻzlashtirilishi va foydalanilishi natijasida shoʻrlanishning darajasi ortib bordi. Paxta maydonlari koʻpchilikni tashkil etib, bu soha tuproq unumdorligini pasayishiga, tuproq xossalarini oʻzgarishi va eroziyani kuchayishiga

³² Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (8-75-bet).

olib keldi. Shuning uchun tuproq resursidan foydalanganda, uning meliorativ holatini yaxshilash, eroziyaga qarshi kompleks chora-tadbirlarni tizimli ravishda olib borish kerak.

Haydalma erlardan samarali foydalanish va uni muhofaza qilishda ekologik nuqtai nazardan asoslangan ekinlardan foydalanish, tuproq gumus miqdorini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq unumdorligini qayta tiklash va ekinlarni ekishni keng qo'llashda, yem-xashak va don ekinlarini navbatlab ekish, yaxshi samara beradi.

Respublikamizda paxta ekin maydonlari qisqartirilib, g'alla ekin maydonlari ortib bormoqda.

Tuproq murakkab tizim bo'lib, u doimo rivojlanishda va o'zgarishda. Suv, shamol va antropogen omillar tuproqqa salbiy ta'sir etishi natijasida uning ustki unumdor qatlamini yuvilib va uchib ketishiga eroziya (lotinchada erosia – kemirilish, emirilish) deyiladi. eroziya jarayonlari kelib chiqishiga ko'ra, normal, tezlashgan va antropogen eroziyalarga ajratiladi.

Shamol eroziyasi yoki deflyatsiya tuproqning quruq va mayda zarrachalarini shamol ta'sirida uchirilishidan kelib chiqadi. Quruq, yengil, qumoq tuproqlar, nam tuproqqa nisbatan bunday eroziyaga ko'p uchraydi. Shuning uchun qurg'oqchil rayonlarda shamol eroziyasi uchraydi.

Suv eroziyasi ko'pincha sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan, qiyalik joylarda kuzatiladi. Bunda o'simlik uchun zarur bo'lgan gumus va boshqa ozuqa elementlari yuvilib ketadi. Unumdorlik pasayib sug'orish shahobchalari ham ishdan chiqadi.

Antropogen eroziya – suv va shamol bilan bog'liq ravishda insonning xo'jalik faoliyatini noto'g'ri yurgizilishi tufayli yuzaga keladi.

O'simlikni normal o'sishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, tuproqning yuza qatlamida natriy, kaltsiy, magniy, tuzlarining to'planishi sho'rlanish deyiladi.

Sho'rlanish Misr, Iroq, Hindiston, Tojikiston, Markaziy Osiyo va boshqa qurg'oqchil rayonlarida keng tarqalgan.

Har yili Yer shari bo'yicha tuproqni sho'rlanishi natijasida 200–300000 ga sug'oriladigan erlar ishdan chiqadi. O'zbekiston bo'yicha tuproqning sho'rlanish darajasi nisbatan barqaror.

Tuproqning ifloslanishi, pestitsidlardan noto'g'ri foydalanish tufayli kelib chiqadi. Pestitsidlar barqaror moddalar hisoblanib, tuproqda ko'proq to'planadi va tuproq organizmlarni nobud bo'lishiga olib keladi. Tuproqda pestitsidlarning to'planishi va organizmlarning nobud bo'lishi, tuproq hosil bo'lish jarayoniga va unumdorlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

Tuproq ifloslanishi qishloq xo'jalik ekinlariga meyyoridan ortiq mineral o'g'itlar berilishi ham sabab bo'ladi. Bunda tuproqning holati e'tiborga olinishi lozim.

Bundan tashqari yoqilg'i-surkov moylarini saqlash va tashishda ham ifloslanadi. Bu moddalar tuproqning biologik aktivligini pasaytiradi. Neft qazish va qidiruv ishlari ham tuproqni ifloslanishiga olib keladi, natijada tuproq yuzasida bitum hosil bo'ladi, shuningdek burg'ulash ishlarida foydalaniladigan suyuqliklar tuproqni sho'rlanishiga olib keladi, bu esa shu erdagi o'simliklarni nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

Havodan sanoat chiqindilari hisoblangan turli xil chiqindilar atmosfera yog'inlari bilan tuproqqa tushib, uning hususiyatlarini o'zgartiradi.

Tuproq maishiy xo'jalik chiqindilari bilan ham ifloslanadi. Bunga turli xildagi ahatlar, politelin plyonkalar va boshqa xil qadoqlash chiqindilari tuproqni ifloslaydi.

O'zbekiston Respublikasida «Yer haqidagi kodeks» 1998-yil joriy etildi. Bundan tashqari yerdan to'g'ri foydalanish, uni muhofaza qilish va yer yagona davlat mulki ekanligi qayd etilgan, bir qancha qarorlar qabul qilingan.

Mamlakatimizda yerdan foydalanish, muhofaza qilish va nazorat qilish masalalari bilan Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi hamda yerlarni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi shug'ullanadi.

Yerlarni muhofaza qilish qonuni buzilgan taqdirda tartibga chaqiriladi, zarur topilganda hatto chora ko'riladi (1-jadval).

1-jadval**O'zbekiston Respublikasi yer fondi**

№		1986	1987	1988	1989	1990
1	Shudgor qilinadigan yerlar	4276, 6	4353, 0	4367, 4	4248, 1	4176, 5
2	Ko'p yillik o'simliklar	322	329, 0	337, 1	351, 6	366, 8
3	Bekor yotgan yerlar	50, 5	54, 4	52, 5	60, 4	62, 1
4	O'tloq va yaylovlar	23560, 1	23477, 2	23516, 3	23506, 3	23475, 0
5	Tomorqalar	239, 3	249, 5	257, 0	399, 2	451, 3
6	O'rmonlar	1405, 0	1431, 2	2021, 9	1404, 9	1410, 1
7	Tayyorlanayotgan yerlar	136, 1	145, 7	1380, 0	101, 6	103, 7
8	O'zbekiston Respublikasi maydoni	44884	44884, 4	44884, 4	44884, 4	44884, 4

Tuproq sho'rlanishi

Tuproq sho'rlanishi – sug'orma dehqonchilikda rivojlanishni chegaralaydigan sabablardan biri hisoblanadi. Masalan: Iroqda sug'oriladigan maydonlarning 50% ga yaqini, Amerikada esa 27 % dan ortiqroq maydon sho'rlangan. Tuproq sho'rlanishi agrobiotsenoz (sun'iy) va biotsenozlar (tabiiy) hosildorligini to'satdan cheklab qo'yadi, organizmlarning tur tarkibi va ekotizimlarning xilma-xilligini kamaytiradi va hududlarni cho'lanishiga olib keladi.

Sho'rlanish Qoraqalpog'iston, Buxoro, Sirdaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalaridagi yerlarni zararlagan. Asoslanmagan holda yerlarni o'zlashtirish, suv taqchilligi va Orol dengizi suvining kamayishi hisobiga 1991-yildan e'tiboran, O'zbekistonda ko'plab yerlarni o'zlashtirish to'xtatildi.

Tuproq eroziyasi

Tuproqnnig hosildorligiga salbiy ta'sir qiladigan omillar:

- shamol eroziyasi (deflyatsiya);
- suv eroziyasi. 1-rasm.



1-rasm.

Deflyatsiyaga uchragan yerlar Fargʻona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida uchraydi. Ayniqsa, sezilarli darajada deflyatsiya Orol dengizi qurishi hisobiga Qoraqalpogʻiston Respublikasida uchraydi. Orol dengizining qurigan tubidan chang, qum, tuz kabilar Oʻzbekistonning yuzlab kilometr masofalariga tarqalmoqda (1-rasm).

Tuproqning degumidlanishi (degumifikatsiya)



2-rasm.


Deflyatsiya. Shamol taʼsirida mayda tuproq boʻlakchalari uchib ketadi va tuproqda qum miqdori oshadi. Deflyatsiya taʼsirida tuproqda gumus miqdori kamayadi va agroximik, suvning fizik xossalari yomonlashadi.

Keng miqyosda sugʻorma dehqonchilik uchun yerlarni oʻzlashtirish hamda yaylovlardan oqilona foydalanmaslik choʻllanishning oʻziga xos turi – tuproqning degumidlanishi (degumifikatsiya) yoki tuproqning oriqlanishiga va hosildorlikning pasayib ketishiga olib keladi (2-rasm).

Degumidlanish (lotonade-ajralish, pasayish, humus – tuproq, facere-qilmoq) deganda organik qoldiqlarning sernam va kislorod yetishmaydigan sharoitda biokimyoviy jarayonlarga uchrab, parchalanmay qolishi tushuniladi. Bu – gumusning yoʻqotilishidir. Gumus yoʻqotilishi atrof-muhitda choʻllanish jarayonini kuchaytiradi va irrigatsion eroziyani keltirib chiqaradi. Yaylov tuproqlarining oriqlashi – chorva mollarini bir maydonning oʻzida haddan tashqari koʻp boqish natijasida oʻsimlik qoplamining degradatsiyasi paydo boʻlishidandir.

O'zbekistonda tuproqning past va juda past gumus bilan ta'minlanganligi (0,4 % dan 1,0 % gacha) butun sug'oriladigan yerlarning 40 % ini egallaydi (1,7 million gektar yer).


O'simlik qoplami degradatsiyasi



3-rasm.

O'simlik qoplami degradatsiyasi – (tur tarkibi, zichlik va holatning o'zgarishi) cho'llanishning eng ko'p tarqalgan va oson aniqlanadigan jarayonlaridan biridir. Degradatsiya – (fran. degradation – asta-sekin yomonlashuv) – biron bir narsa yoki holatning son va sifat jihatdan oldingi holatidan yomonlashuvi, yemirilishi.

Degradatsiya – hosildorlik kamayishi, fotosintetik faoliyat va o'simlik qoplami landshaftni muvozanatlab turadigan funksiyasini pasayishi bilan izohlanadi. Asosiy sabab esa, inson ta'siri va shuningdek, kuchayadigan salbiy omillardir (masalan: qurg'oqchilik, bug'lanish va boshqalar) (3-rasm).



4-rasm.

Yaylovlar degradatsiyasi.

Chorva mollarining ortiqcha o'tlatilishi, o'tloqlarda qayta tiklanish jarayonlarini olib bormaslik (fitomelioratsiya) natijasida yaylovlarning degradatsiyasi kuzatiladi (4-rasm).

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida 22 million gektar yaylovdan foydalaniladi, shundan: 17,4 million gektar – cho'l; 4 million gektar – adir; 1,0 million gektar – tog'; 0,6 million gektar – baland tog' (yaylov) hududlariga to'g'ri keladi.

Cho'llanish natijasida:

- yaylovlarda hosildorlik pasayadi;
- chorva mollari yemaydigan begona o'tlar ko'payadi;
- yaylov tiplarida barqaror va rang-barang turlar yo'qolishi yuz beradi;

- tur tarkibi kamayadi;
- chorva mollarini boqish uchun yaroqsiz boʻlgan ochiq yalangliklar paydo boʻladi.


Tuproqning pestitsidlar va mineral oʻgʻitlar bilan ifloslanishi

Koʻp yillar davomida paxta yakkahokimligining olib borilishi va almashlab ekishga rioya qilmaslik, chorvachilikka eʼtibor berilmaslik (chorva mollaridan olinadigan organik oʻgʻitlar taqchilligi) natijasida, keng miqyosda, yerga mineral oʻgʻit va pestitsidlarni qoʻllashga olib keldi. Bularning hammasi tabiiy biologik jarayonlarning buzilishiga, tabiatni boshqarib turadigan mexanizmlarning degradatsiyasiga olib keldi, tuproqning mineral oʻgʻitlar bilan ifloslanishi kuchaydi. Ushbu jarayonda kimyoviy preparatlarning samaradorligi past koeffitsiyentga egaligi tufayli 30% dan ortiq fosfor-kaliyli va 50% dan ortiq azotli oʻgʻitlar oʻsimliklar tomonidan oʻzlashtirilmay, tuproqdan yuvilib ketadi, bu esa, oʻz navbatida, yuza va yerosti suvlarini tuz, zaharli ximikatlar, ogʻir metallar va boshqa xavfli moddalar bilan zararlaydi.

Qishloq xoʻjaligi organik, mineral oʻgʻitlar va oʻsimliklarning kimyoviy himoya vositalarisiz rivojlanmaydi. Shu sababdan ham respublikamizning har bir hududlarida maqbul dozani qoʻllash zarur

Ogʻir metallarning yuqori miqdori tuproqda sanoat rivojlangan shaharlar (Toshkent, Olmaliq, Bekobod, Chirchiq) atrofida koʻzga tashlanadi.

Pestitsidlardan foydalanish. 5-rasm.



Respublikamiz hududidagi sug'orma dehqonchilikda xlororganik pestitsidlarning parchalanishi va migratsiyasi kuzatiladi. 1983-yildan e'tiboran, DDT preparatidan foydalanish to'xtatilgan bo'lsada, hamon yuqori qoldiq miqdori tuproq namunalarida kuzatiladi. GXSG (geksoxlorsiklogeksan)ning tuproqda to'planishi kam darajada, chunki bu preparat suvda yaxshi eriydi va u dalani sug'orish orqali yo'qotiladi (5-rasm).

Keyingi yillarda, pestitsidlardan foydalanish keskin pasaydi. Amalda GXSG, tiadan, sevin kabi preparatlardan foydalanilmaydi. Ularning o'rniga, yuqori biologik faol moddalar hisoblanadigan karate, danitol, detsis, simbush kabi preparatlar ishlatilmoqda, chunki ular inson organizmi uchun past toksiklik xususiyatiga ega.

Yaroqsiz yerlar sifatini yaxshilash

Sho'rlangan yerlar melioratsiyasi. Sug'orma dehqonchilikda yerlarning ikkilamchi sho'rlanishi jiddiy muammo hisoblanadi.

Ikkilamchi sho'rlanishning asosiy sababi – quvursiz, yer zaxini qochirmasdan sug'orishdir. Bunda grunt suvlari ko'tarilib, mineralizatsiya jarayoni oshadi, sug'orish meyorini oshirish va suvdan oqilona foydalanmaslik esa ikkilamchi sho'rlanishga olib keladi.

Eroziyaga uchragan yerlarning hosildorligini tiklash. Bu borada meliorativ va o'rmon meliorativ tadbirlarini, tabiiy ekotizim va agroekotizim munosabatidagi mutanosiblikni (balans) saqlash, agrolandshaftlarni rekultivatsiya qilish zarur.

Degumidlangan (oriqlagan) tuproq hosildorligini tiklash. Tuproq haydalma qatlamidagi organik moddalar zahirasini saqlash uni biologik usullar bilan (hududlarga optimal o't o'simliklar ekish) qayta ishlash masalasini, organik o'g'itlarni qo'llash, yerlarni qayta ishlashni mukammallashtirish, kaliforniya chuvalchangi bilan organik chiqindilarni qayta ishlash, gumusning optimal holatini tiklashni talab etadi.

Yaylovlarda fitomeliorsiya ishlarini olib borish.

Bunda agrotexnik tadbirlar, shuningdek mavjud o'simliklarning hosildorligini oshirishda o'g'itlardan fydalanish, begona o'tlarni yo'qotish, toshlardan tozalash, suv rejimini boshqarish talab etiladi. Bu tadbirlarni qo'llash hisobiga, yaylov va pichanlar hosildorligi 1,5 – 2,5-marta oshadi.

Yaroqsiz holga kelgan yerlarni rekultivatsiya qilish yo'nalishlari:

1. Rekreatsion yo'nalish – obodonchilik, hovuzlar, sport maydonlari, o'yin maydonlari, bolalar maydonchalari qurish.
2. Qishloq xo'jaligi yo'nalishi – yaylov, bog', uzumzorlar yaratish.
3. Sanitar-gigiyenik yo'nalish – biologik yoki texnik yo'l bilan yaroqsiz yerlarni atrof-muhitga ta'sir qilmaydigan sharoitda konservatsiya (buzilmaydigan holga keltirish) qilish.
4. O'rmon xo'jaligi yo'nalishi – turli tipdagi o'rmonzorlar barpo qilish.
5. Baliqchilik yo'nalishi – baliqchilikni rivojlantirish shart-sharoitlariga amal qilgan holda suv havzalarini barpo etish.

Nazorat savollari:

1. Cho'llanishga olib keladigan asosiy sabablar qaysilar?
2. Cho'llanishni keltirib chiqaradigan omillarni ayting.
3. Tuproq eroziyasi nima?
4. Tuproq degumidlanishi nima?
5. O'simliklar degradatsiyasini tushuntiring.
6. Yaroqsiz yerlar sifatini qanday yaxshilash mumkin?

11-MAVZU: MUHOFAZAGA OLINGAN HUDUDLAR

Reja:

1. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida tushuncha
2. O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza qilinadigan hududlari

Tayanch so'zlar: Qo'riqxonalar, milliy va tabiat bog'lari, Tabiat yodgorliklari, buyurtmaxonalar.

Turlar qonun tomonidan saqlansa-da, toki ularning tabiiy muhiti saqlanmaguncha ular hayot kechira olishmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish ko'pincha, tabiiy muhitni yoki butun ekotizimni saqlashga asoslangan bo'ladi. Buni bajarishning usullaridan biri bu tabiat muhofazasini yaratish bo'lib, u xuddi, xalqaro bog'lar va yovvoyi hayot hududlarini saqlash kabi bo'ladi.

1872-yilda birinchi Xalqaro bog' Yellow Stone National Park hisoblanib, AQSH da tashkil qilingan. O'sha davrda Kulrang ayiq, loss va bug'ular Shimoliy Amerika hududi tomonga ko'chirilib, joyi o'zgartirilgan edi. Bu hayvonlar ozuqa to'plash uchun yerning ko'plab hududlarini darbadar kezardilar. Agar ularning tabiiy muhiti kichik bo'lsa ular yashay olmaydilar. Misol uchun, kulrang ayiq kuniga katta miqdorda ozuqaga muhtoj bo'ladi. Kulrang ayiqqa o'z qornini to'ydirishi uchun bir necha yuz km hududlar kerak bo'ladi. Milliy bog'lar va yovvoyi hayot hududlarisiz ba'zi hayvonlar hozir mavjud bo'lgandan ancha kam bo'lishlari mumkin edi.³³

Tabiiy muhitni tiklash

Tabiiy muhitga insoniyat faoliyati orqali ziyon yetkaziladi yoki o'zgartiriladi. Tabiiy muhitni tiklash bu zarar yetkazilgan tabiiy muhitni oldingi sog'lom holiga qaytarishdan iborat bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladigan holatidir.

Rode orolining Naragansent ko'rfazi baliq ovida muhim hudud sanaladi. Bu yapoloq baliq, tanga baliq, ko'k qisqichbaqa va boshqa

³³ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (8-75-bet).

muhim ozuqa turlarini saqlashga xizmat qiladi. Suv oʻtlari koʻrfazning sayoz joylarida oʻsadi va shu oʻtlarning yosh turlarini tabiiy muhitini rivojlantiradi. Rode orolida aholining oʻsishi koʻrfaz suv oʻtlarining yoʻqotilishiga sabab boʻldi. Baliq ovlash esa qisqartirildi.

CITES tashkiloti

AQShda 1970-yillarda turlarni muhofaza qilish chora tadbirlari omma tomonidan qabul qilindi. 1973-yilda esa yoʻqolish xavfi ostidagi turlarni muhofaza qilish akti tuzildi. 1975-yilda esa Yovvoyi Fauna va floradagi yoʻqolish xavfi ostidagi turlarni xalqaro savdosi toʻgʻrisidagi Konventsiya qabul qilingan. Bu hozirda CITES nomi bilan tanilgan. Bu kelishuvga asosan hozirgi kunda 5000 ga yaqin hayvon turlari va 25 mingga yaqin oʻsimlik turlari muhofazaga olingan (2005).³⁴

Sayyoradagi hayotni muhofaza qilish

Oʻrmon ekotizimi boylab sayohatni tasavvur qilib koʻraylik. U daraxtlar, butalar, mayda oʻsimliklardan iborat. Bu yerda biz olmaxon, qushlar va hasharotlarni korishimiz va ularning ovozi eshitishimiz mumkin. Yana maymunni uchratishingiz va qoʻziqorinlarni topsangiz boʻladi. Bu yerda yuzlab turlar yashaydi. Hozir esa bugʻdoy dalasini tasavvur qiling. Siz bu yerda bir nechtagina turni uchratishingiz mumkin: bugʻdoy oʻsimligi, hasharotlar va begona oʻtlar. Oʻrmon bugʻdoy dalasidan koʻra koʻproq turdagi oʻsimliklardan iborat. Oʻrmon yuqori darajadagi biologik xilma-xillikdan iborat. Bioxilma-xillik ekotizimda hayotning turli tumanligini anglatadi.

Bioxilma-xillik oʻlchami

Bioxilma-xillik oʻlchovi odatda bir hudduda yashaydigan turlarning soni bilan oʻlchanadi. Masalan: Marjon qoyalar minglab marjon turlariga: baliqlar, suv oʻtlari, gupka, faraplar vachuvalchanglar uchun makon bola oladi. Marjon qoyalarda sayoz oquvchi suvlardan koʻra koʻproq bioxilma-xillik mavjud. Dastlab chuqur dengizda tadqiqot ishini olib boruvchilar organizmlar chuqur dengiz tubidagi

³⁴ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (139-140-141-betlar)

qorong'ulikda yashay olishmaydi, deb hisoblashgan. Shunga qaramasdan, Marjon qoyadagi turlarga nisbatan kamroq bo'lsada u yerda organizmlar yashamoqda. Bilamizki, chuqur dengiz tubidagi bioxilma-xillik xuddi marjon qoyalardagidek noyob (1-rasm).



1-rasm. Shimoliy Amerikada topilgan sutemizuvchilar turlari.

Hayotning xilma-xilligi avvalo yer yuzidagi o'simlik va hayvon turlarining xilma-xilligi bilan bog'lanadi. Marjon qoyatoshlari yer yuzidagi eng yirik biologik xilma-xillikka ega hududlar hisoblanadi.

Bioxilmaxillik asosan ekvator chizig'iga yondosh hududlarda, ya'ni temperatura iliqroq joylarda oshadi. Masalan, Kosta Rika Markaziy Amerkadagi G'arbiy Virjiniyadagi maydon singari o'lchamga ega. Ha, AQSH hamda Kanadada ham ko'pgina qush turlari mavjud. Ekotizimlar qachonki yuqori biologik xilma-xillikka ega bo'lishi mumkinki, avvalo, iliq havo va nam iqlim bo'lsagina. Fakt shuki, tropik regionlar yer yuzidagi turlarning uchdan ikki qismini o'z ichiga oladi.

Yo‘qolgan turlar

Hech bir inson dinozavrlarning yo‘q bo‘lib ketish sababini aniq dallillar bilan aytibberolmaydi. Bir narsa aniqqi, inson faoliyati va tabiatga ta’siri dinozavrlardan keyin paydo bo‘ldi. Bugun boshqacha hayot. Yo‘qolib borish arafasidagi turlar soni oshmoqda. 1980-yildan 2000-yilgacha AQSH da 40 ga yaqin o‘simlik va hayvon turlari yo‘q bo‘lib ketdi. Sababi, insoniyatning yeryuzini katta maydonlarini egallashi va o‘zlashtirish, ehtiyojlarini qondirishi hisobiga turlar soni kamayibketmoqda.³⁵

Biologik xilma-xillik – bu jamiyat ehtiyojini iqtisodiy, ekologik va madaniy-estetik jihatdan qondirishning zaruriy potensial zahirasi hamdir. Hozirgi kunda biologik resurslarga insonlarning ta’siri o‘smoqda. Bunga asosiy sabab, aholining o‘sishi, qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishi, savdo, ishlab chiqarish, dunyo bo‘yicha ehtiyojlarning turli-tumanligidir. Inson faoliyatining rivojlanishi natijasida o‘rmonlarni kesish, cho‘llarni haydash, botqoqliklarni quritish, sahroga suv chiqarish kabi ekotizimlarning buzilishi ro‘y bermoqda. O‘simlik, hayvon yoki biron bir mikroorganizm turini yo‘qotilishi ozuqa zanjirining uzilishiga olib keladi. Bu holatni yuqori rivojlangan texnologiya ham to‘xtata olmaydi. 1992-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida tabiiy ekotizimdagi turlarning yo‘qolishi va notirik komponentlarning o‘zgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan biologik xilma-xillikni asrash bo‘yicha Xalqaro Konvensiyaga imzo chekildi. Ushbu hujjatda biologik xilma-xillikni saqlash, biologik xilma-xillikning komponentlaridan oqilona foydalanish, davlatlararo genetik resurslar va moddiy resurslardan, xalqaro savdoda teng huquqlilik, hamma qonun doirasiga mos keluvchi texnologiyalardan foydalanib ish yuritish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biologik xilma-xillik Yeryuzida barcha ekotizimlarda mavjud. Biron bir turning yo‘qolishiyoki kamayib ketishi har xil tur populyatsiyasi uchun noqulaylik keltiribchiqaradi, zero, turlar doimo bir-biri bilan turlichao‘zaro bog‘langan. Suv ekotizimi va quruqlik ekotizimlarida turlar xilma-xilligini saqlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan

³⁵ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (139-140-141-betlar)

biri bo‘lib qolmoqda. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanmasligimiz oqibatida, qanchadan-qancha turlar va notirik komponentlar xavf ostida qolayapti. Tabiatning chiroyli manzarasi, ko‘rkam go‘shalari, o‘zining hayvonot va o‘simlik olamining g‘aroyibotligi bilan ajralib turuvchi biosferani saqlash har birimizning insoniylik burchimizdir.

Biologik xilma – xillik tropik o‘rmonlarda, ya’ni doimiy namiqlimli hududlarda, jumladan, Ekvadordagi Yasuni milliy bog‘ida yuqoribioxilma-xillik mavjud. Quruqlik bioxilma-xilligi okean bioxilma -xilligidan 25-marotaba yuqori. Yeryuzida mavjud bo‘lgan 8, 7 million turning 2, 1 millioni okean uchun xos ekanligi baholandi. Kolumbiya yuqori bioxilma – xillikka ega bo‘lgan mamlakathisoblanib, u yerda endemik turlar ko‘p., ya’ni bu turlar boshqa biromamlakatda uchramaydi. Yerda mavjud bo‘lgan turlarning 10% gayerini Kolumbiyada uchraydi va 1900 dan ko‘proq qush turlari Yevropava Shimoliy amerikaga qaraganda ko‘proq. Kolumbiyada dunyo sutemizuvchi turlarining 10% i uchraydi. Dunyoning suvda va quruqdayashovchilarining 14 % i va dunyo qushlarining 18%i Kolumbiyada uchraydi. Indoneziya dunyo gulli o‘simliklarining 10% ini, sutemizuvchilarning 12% ini, sudralib yuruvchilar, amfibiyalar vaqushlarning 17% ini o‘z ichiga oladi. Madagaskar orolidagi florada o‘simlik turlarining 66% iendemik, Yangi Zelandiya orolida esa 72 %, Gavaya orollarida 82–90%. Janubiy Xitoy ning Chjetszyan proventsiyasida Sharqiy osiyoningginko daraxti yovvoyi holda faqat shuyerda o‘sadi. AQSH g‘arbidagibir qancha rayonlarda mamont daraxti faqat shuyerlarda o‘sadi.

Qo‘riqxonalar

Qo‘riqxonalar atrof-muhitni muhofaza qilish ishida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, landshaftlarni, tabiat yodgorliklarini, o‘simlik va hayvonot dunyosini, tuproqlarni muhofaza qilishda, ularni ilmiy jihatdan o‘rganishda, ko‘paytirishda, o‘simlik va hayvonlar naslini saqlashda alohida rol ynaydi. Qo‘riqxonalarning tabiatni muhofaza qilishdagi vazifalarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Biror o‘lka va tabiat mintaqasining xarakterli landshaftlarini tabiiy holda saqlash uchun bunyod etiladigan qo‘riqxonalar. Bunday

qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaq, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relef shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim tur o'simliklari va hayvonlar saqlanib qolinadi.

2. Soni kamayib va turi yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash va ularni ko'paytirish uchun tashkil etiladigan qo'riqxonalar. Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligining, xususan, qishloq xo'jaligining rivojlantirilishi, ko'plab yangi yerlar o'zlashtirib, ishga solinishi natijasida, sanoat korxonalarining ta'siri oqibatida tabiiy holda tarqalgan ayrim xil o'simliklar va hayvonlar turlari toboro kamayib, ba'zilarining yo'qolib ketishi xavfi tug'ilmoqda. Ma'lumki, inson barcha madaniy o'simlik va hayvonlarning tabiatdagi yovvoyi turlarini chatishtirish yo'li bilan vujudga keltiradi. Agar tabiiy o'simlik va hayvonlar yo'qolib ketsa, biz yangi turlar yaratish imkonidan mahrum bo'lamiz yoki hozircha foydasiz va hatto zararli hisoblangan ayrim o'simlik va hayvonlar kelajakda juda foydali bo'lib chiqar. Shuning uchun yo'qolib va kamayib borayotgan har qanday turni ham saqlab qolish zarur.

3. Qo'riqxona tabiatni, uning elementlarini, tabiat bilan organism o'rtasidagi aloqalarni, ekologik sharoitni asl holida o'rganish uchun tabiiy laboratoriya vazifasini bajaradi. Qo'riqxonalarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Chunki taraqqiyot qonunlarini, tabiiy jarayonlar xarakteri va yo'nalishlarini faqat qo'riqxonalardagina tabiiy holda o'rganish mumkin.

4. Qo'riqxonalar xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Qo'riqxonalarda o'rmon va o'tloq o'simliklarini, ov hayvonlarini, ayniqsa, moynali hayvonlar, suv parrandalarini, baliqlarni ko'paytirish va ular yashash joylarini yaxshilash borasida katta ishlar amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi qo'riqxonalar noyob hayvon va o'simliklar ko'paytiriladigan manbaga aylanib qolgan.

5. Qo'riqxonalar madaniy, estetik va istirohat jihatidan ham ahamiyatlidir. Qo'riqxonalarda tabiatning go'zal manzaralari, tabiat yodgorliklari, estetik ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik va hayvonlar namoyish qilinadi. Bu esa kishilarda estetik zavq uyg'otadi, tabiatni

muhofaza qilish ishining zarurligini his etishga va kishilarni Ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Bu vazifalarni bajarishda xalq hiyobonlari alohida o‘rin tutmoq kerak. Chunki xalq istirohat bog‘larining vazifalari qo‘riqxonalar vazifalariga qaraganda ancha keng³⁶.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida tushuncha

O‘zbekiston Respublikasida alohida muhofaza qilinadigan hududlarning umumiy maydoni 1355, 6 ming ga. Ularga qo‘riqxonalar, tabiat va milliy bolar, tabiat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari kiradi. Xorijiy mamlakatlarda uning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud.

Davlat qo‘riqxonalari hukumat qaroriga asosan tashkil etiladi. Qo‘riqxona hududidagi barcha resurslar va maydonlar xo‘jalik faoliyatidan chiqariladi va davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Qo‘riqxona – Yer sharining ma’lum qismi tabiat komponentlarini tabiiy holicha saqlab qolish uchun ajratilgan joydir. Qo‘riqxonalar tashkil etish yo‘li bilan ma’lum tabiat uchastkalari va u erdagi hamma tabiat komponentlari (ajoyib relef shakllari, tog‘ jinslarining yer yuzasiga chiqib, ochilib qolgan joylari, ochilib qolgan minerallar, ajoyib g‘or, buloq, geyzer va kanallar, o‘simliklar va hayvonot dunyosi) tabiiy holda saqlab qolinadi. Demak, biror geografik o‘lka yoki geografik mintaq uchun xarakterli bo‘lgan joylar yoki tabiat komponentlari ilmiy jihatdan, iqtisodiy hamda madaniy tomondan qimmatli bo‘lgan, tabiiy holati yaxshi saqlangan joylar qo‘riqxonalar uchun ajratiladi. Bu joylarning tabiati xalq boyligi sifatida abadiy saqlanadi. Natijada, kelajak avlod qo‘riqxonalar orqali cho‘l va dasht yoki tayga o‘rmonlari va tog‘ ladshaftlari tabiiy holda qanday bo‘lganligi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi.

Respublikada 9 ta qo‘riqxona mavjud, ularning umumiy maydoni – 209607, 3 ga.

Milliy tabiat bog‘lari ma’lum maqsadlar uchun foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Hududni muhofaza qilish va foydalanish o‘ziga xos rejimga asoslanadi. Milliy tabiat bog‘lari

³⁶ Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005. 139-141-betlar.

bioxilma-xillikni saqlash va tabiatdan foydalanishning oqilonaligi va nazoratligiga tayanadi. Respublikada 2 ta milliy tabiat bog'i mavjud.

Tabiat buyurtmalari respublika va mahalliy toifalarga bo'linadi. Davlat tabiat buyurtmalari xo'jalik yuritishdan to'liq ajratilmaydi, biroq hududdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rnatilgan tartibni saqlashlari lozim. Buyurtmalar doimiy bo'lmashligi mumkin. Ular alohida hayvon va o'simlik turlarini muhofaza qilish uchun tashkil etiladi. Respublikada mavjud 11ta buyurtmaning umumiy maydoni – 1716200 ga. Ularning tashkil etilish muddati cheksiz, ma'lum muddatli – 5 va undan ko'p yoki 5 yildan kam muddatli bo'lishi mumkin.

Tabiat yodgorliklari yerdan foydalanuvchilardan ajratib olinmagan holda tashkil etiladi. Tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish o'sha hududdagi tashkilot zimmasida bo'ladi. Tabiat yodgorliklari tabiiy holda vujudga kelgan ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob tabiat obyektlaridir. Ular joylashgan hudud ishlab chiqarish ixtiyorida bo'lsada, yodgorliklarni saqlashga bo'lgan har qanday xatar ta'qiqlanadi. Respublikada bunday tabiat yodgorliklari ko'p. Ularning umumiy maydoni uncha katta emas – 3381, 5 ga.

O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza qilinadigan hududlari

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari, tabiat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari quyidagicha tasniflanadi (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining alohida muhofaza qilinadigan hududlari

1-jadval

№	Nomlari	Tashkil etilgan vaqti va vazifasi	Qisqacha tavsifi
Qo‘riqxonalar			
1.	Hisor tog‘-archazor	1983- yil. Hisor tizmasi tabiiy majmualari va ekotizimlarini saqlash	Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlari hududida joylashgan. (Hisor tizmasining g‘arbiy yonbag‘rida). Maydoni-80986 ga, shundan 12203 gasi o‘rmon bilan qoplangan, 27450 gasi o‘tloq bilan band. Qo‘riqxonada 253 tur hayvonlar yashaydi. Qushlarning 24 ta kamyob turi bor, o‘simliklar 870 turdan ortiq.
2.	Zomin tog‘-archa	1960 -yil. Archa o‘rmonlari va u bilan hamjamoa hayvonot olamini muhofaza qilish va ilmiy- tadqiqot.	1926- yilda ushbu hududda O‘zbekistonda birinchi Guralash qo‘riqxonasi tashkil etilgan; 30 – va 40-yillarda o‘rmon xo‘jaligi tarkibidan chiqarilgan. Jizzax viloyati Zomin tumani hudida Turkiston tizmasining barida joylashgan. Maydoni – 26840 ga, shundan 11322 gasi o‘rmon bilan qoplangan. Hudud dengiz sathidan 1750 m balanlikda.
3.	Baday-to‘qay tekislik-tqay	1971- yil. Amudaryo oqimi tartibga solingan sharoitda to‘qay rmonlari va hayvonot olamini saqlash	Quyi Amudaryoning o‘ng sohilida Qoraqolpog‘istonning Beruniy va Kegeyli tumanlari hududida joylashgan. Maydoni – 6462 ga, 70 %i tqaydan iboratonna Florasi – 103 tur; faunasi tarkibi –160 umurtqali hayvonlardan iboratonna 1970-yildan Buxoro bug‘isini tiklash yo‘lga qo‘yilgan.
4.	Qizilqum vodiy-tqay	1971- yil. Amudaryoning o‘rta oqimidagi to‘qay o‘rmonlari va hayvanot olamini saqlash	Amudaryo o‘ng sohilida va Orolida, Buxoro viloyatining Romiton, Xorazm viloyatining Dstlik tumanlari hududida joylashgan. Maydoni 10311 ga, shundan 5144 gasi rmon bilan qoplangan, 6964 gasi qumlikdan, 3177 gasi daryo qayiridan iboratonna Florasi – 103, faunasi – 197 turdan iborat blib, 37 turi sut emizuvchilar, 23 turi pentiliyalar.
5.	Zaraf-shon vodiy-to‘qay	Zarafshon bo‘yida to‘qay o‘rmonlari va hayvanot olamini saqlash	Zarafshon bo‘yida 45 km. masofada Bulung‘ur va Jombay tumanlari hududida joylashgan. Maydoni 2552 ga, shundan 868 ga o‘rmon bilan qoplangan. Flora vakillari 308, umurtqalilar 240 turni tashkil etadi. O‘simliklari ichida 18 tur buta-daraxt mavjud. Asosan Zarafshon qirg‘ovuli muhofaza qilinadi.
6.	Nurota tog‘-	1975- yil tashkil etilgan. Grek	Nurota tog‘lari shimolida Jizzax viloyatining Forish tumanida joylashgan.

	yonoqzor	yong'g'oi va qimmatli genofondni saqlash, Severtsov qo'yini muhofaza qilish	Maydoni – 17752 ga, shundan 2529 gasi o'rmon bilan qoplangan. Hudud reliefi 400 m dan 2100 m gacha dengiz sathidan balandda. Hayvonot olami 246 turdan iborat.
7.	Kitob geologik	1978- yil palentalogik-stratigrafik obyektlarni muhofaza qilish va o'rganish	Kitob tumanida joylashgan, maydoni – 5378 ga. Bu yerning geologik tarixini o'rganuvchi yagona qo'riqxon. Florasi 500 turdan ortiq, faunasi tarkibi 21 tur sut emizuvchilar, 120 tur qushlardan iborat.
8.	Surxon tog' o'rmon	1987-yil buyurtma asosida tashkil topgan. Ko'hitang tizmasi ekotizimlarini saqlash	Maydoni – 23802,3 ga, 800 tur simliklar, 290 tur qushlar, 37 tur sut emizuvchilar uchraydi. Asosan burama shohli echki, tog' qo'yi, Old Osiyo qoplani muhofaza qilinadi.
Milliy va tabiat bog'lari			
1.	Zomin milliy boi	1976- yilda noyob tog' archa ekotizimlarini saqlash, tiklash	Umumiy maydoni – 24110 ga, 50 % i o'rmonzor. Rekreatsiya va bufer mintaqalardan iborat
2.	Ugom-Chotqol tabiiy milliy bog'i	1990 -yil. Etalon tabiiy majmualari va genofondni saqlash	Umumiy maydoni – 574480 ga. Toshkent viloyatida harbiy Tyanshan tarmoqlarida joylashgan. Vazifasiga ko'ra – faol rekreatsiya, boshqaruvchi rekreatsiya, qo'riqxon mintaqalariga ajratilgan
Tabiat yodgorliklari			
1.	Vardanzi	1975-yilda noyob saksovul o'rmonlari, hayvon va o'simliklarni saqlash maqsadida 1991- yilda tabiat yodgorligi maqomi berildi	Buxoro viloyatida joylashgan, maydoni – 300 ga bo'lib, qadimiy Vardanzi shaharning noyob uchastkasini qamrab olgan.
2.	Yozyovon cho'lidagi tabiat yodgorliklari	Farg'ona vodiysining tekislik qismidagi tabiiy majmualar, kam-yob, turi yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklarni saqlash uchun tashkil etilgan	Namangan viloyatida Mingbuloq tumanida 1000 ga maydonni, Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida 1843 ga, qo'shni tumanda 142,5 ga ni egallaydi.

Qo'riqxonalar atrof-muhitni muhofaza qilish ishida alohida ahamiyatga ega bo'lib, landshaftlarni, tabiat yodgorliklarini, o'simlik va hayvonot dunyosini, tuproqlarni muhofaza qilishda, ularni

ilmiy jihatdan o'rganishda, ko'paytirishda, o'simlik va hayvonlar naslini saqlashda alohida rol o'ynaydi. Qo'riqxonalarining tabiatni muhofaza qilishdagi vazifalarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin (1–2-3-sxema).

6. Biror o'lka va tabiat mintaqasining xarakterli landshaftlarini tabiiy holda saqlash uchun bunyod etiladigan qo'riqxonalar. Bunday qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaq, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relef shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim tur simliklari va hayvonlar saqlanib qolinadi.

7. Soni kamayib va turi yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash va ularni ko'paytirish uchun tashkil etiladigan qo'riqxonalar. Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligining, xususan, qishloq xo'jaligining rivojlantirilishi, ko'plab yangi yerlar o'zlashtirib, ishga solinishi natijasida, sanoat korxonalarining ta'siri oqibatida tabiiy holda tarqalgan ayrim xil o'simliklar va hayvonlar turlari toboro kamayib, ba'zilarining yo'qolib ketishi xavfi tug'ilmoqda. Ma'lumki, inson barcha madaniy o'simlik va hayvonlarning tabiatdagi yovvoyi turlarini chatishtirish yo'li bilan vujudga keltiradi. Agar tabiiy o'simlik va hayvonlar yo'qolib ketsa, biz yangi turlar yaratish imkonidan mahrum bo'lamiz yoki hozircha foydasiz va hatto zararli hisoblangan ayrim o'simlik va hayvonlar kelajakda juda foydali bo'lib chiqar. Shuning uchun yo'qolib va kamayib borayotgan har qanday turni ham saqlab qolish zarur.

8. Qo'riqxona tabiatni, uning elementlarini, tabiat bilan organizm o'rtasidagi aloqalarni, ekologik sharoitni asl holida o'rganish uchun tabiiy laboratoriya vazifasini bajaradi. Qo'riqxonalarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Chunki taraqqiyot qonunlarini, tabiiy jarayonlar xarakteri va yo'nalishlarini faqat qo'riqxonalardagina tabiiy holda o'rganish mumkin.

9. Qo'riqxonalar xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Qo'riqxonalarda rmon va o'tloq o'simliklarini, ov hayvonlarini, ayniqsa, mo'ynali hayvonlar, suv parrandalarini, baliqlarni ko'paytirish va ular yashash joylarini yaxshilash borasida katta ishlar amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi

qo'riqxonalar noyob hayvon va o'simliklar ko'paytiriladigan manbaga aylanib qolgan.

10. Qo'riqxonalar madaniy, estetik va istirohat jihatidan ham ahamiyatlidir. Qo'riqxonalarda tabiatning go'zal manzaralari, tabiat yodgorliklari, estetik ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik va hayvonlar namoyish qilinadi. Bu esa kishilarda estetik zavq uyg'otadi, tabiatni muhofaza qilish ishining zarurligini his etishga va kishilarni ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Bu vazifalarni bajarishda xalq hiyobonlari alohida o'rin tutmoq kerak. Chunki xalq istirohat bog'larining vazifalari qo'riqxonalar vazifalariga qaraganda ancha keng.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonda alohida muhofazaga olingan hududlarning qanday turlari mavjud?
2. Qo'riqxonalarning vazifasini ayting.
3. Buyurtmaxonalar nima uchun tashkil qilinadi?
4. Pitomniklar nima?
5. Milliy bog'larni tashkil etishdan maqsad nima?

12-MAVZU: O‘SIMLIK RESURSLARI VA UNI MUHOFAZA QILISH

Reja

1. O‘simliklar xilma-xilligi va ahamiyati.
2. Noyob va qirilib borayotgan organizmlar.
3. O‘zbekiston o‘simliklar.
4. O‘simliklarni muhofaza qilish.
5. O‘zbekiston “Qizil kitobi”.

Tayanch so‘zlar; fotosintez, o‘rmon o‘simliklari, tog‘, cho‘l, to‘qayzor va vodiy o‘rmonlari.

Yo‘qolgan turlar

Hech bir inson dinozavrlarning yo‘q bo‘lib ketish sababini aniq dalillar bilan aytib berolmaydi. Bir narsa aniqi, inson faoliyati va tabiatga ta’siri dinozavrlardan keyin paydo bo‘ldi. Bugun boshqacha hayot. Yo‘qolib borish arafasidagi turlar soni oshmoqda. 1980-yildan 2000-yilgacha AQSH da 40 ga yaqin o‘simlik va hayvon turlari yo‘q bo‘lib ketdi. Sababi insoniyatning yer yuzini katta maydonlarini egallashi va o‘zlashtirish, ehtiyojlarini qondirishi hisobiga turlar soni kamayib ketmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biologik xilma-xillik yer yuzida barcha ekotizimlarda mavjud. Biron bir turning yo‘qolishi yoki kamayib ketishi har xil tur populyatsiyasi uchun noqulaylik keltirib chiqaradi, zero, turlar doimo bir-biri bilan turlicha o‘zaro bog‘langan. Suv ekotizimi va quruqlik ekotizimlarida turlar xilma-xilligini saqlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanmasligimiz oqibatida, qanchadan-qancha turlar va notirik komponentlar xavf ostida qolayapti. Tabiatning chiroyli manzarasi, ko‘rkam go‘shalari, o‘zining hayvonot va o‘simlik olamining g‘aroyibotligi bilan ajralib turuvchi biosferani saqlash har birimizning insoniylik burchimizdir.

Biologik xilma-xillik tropik o‘rmonlarda, ya’ni doimiy nam iqlimli hududlarda, jumladan, Ekvadordagi Yasuni milliy bog‘ida

yuqori bioxilma-xillik mavjud. Quruqlik bioxilma-xilligi okean bioxilma -xilligidan 25-marotaba yuqori. Yer yuzida mavjud bo'lgan 8, 7 million turning 2, 1 millioni okean uchun xos ekanligi baholandi. Kolumbiya yuqori bioxilma – xillikka ega bo'lgan mamlakat hisoblanib, u yerda endemik turlar ko'p, ya'ni bu turlar boshqa biror mamlakatda uchramaydi. Yerda mavjud bo'lgan turlarning 10% ga yaqini Kolumbiyada uchraydi va 1900 dan ko'proq qush turlari Yevropa va Shimoliy Amerikaga qaraganda ko'proq. Kolumbiyada dunyo sutemizuvchi turlarining 10% i uchraydi.³⁷

Dunyoning suvda va quruqda yashovchilarining 14 % i va dunyo qushlarining 18%i Kolumbiyada uchraydi. Indoneziya dunyo gulli o'simliklarining 10% ini, sutemizuvchilarning 12% ini, sudralib yuruvchilar, amfibiyalar va qushlarning 17% ini o'z ichiga oladi. Madagaskar orolidagi florada o'simlik turlarining 66% endemik, Yangi Zelandiya orolida esa 72 %, Gavaya orollarida 82–90%. Janubiy Xitoyning Chjetszyan proventsiyasida Sharqiy Osiyoning ginko daraxti yovvoyi holda faqat shu yerda o'sadi. AQSH g'arbidagi bir qancha rayonlarda mamont daraxti faqat shu yerlarda o'sadi.

Turlar qonun tomonidan saqlansada, toki ularning tabiiy muhiti saqlanmaguncha ular hayot kechira olishmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish ko'pincha, tabiiy muhitni yoki butun ekotizimni saqlashga asoslangan bo'ladi. Buni bajarishning usullaridan biri bu tabiat muhofazasini yaratish bo'lib, u xuddi, xalqaro bog'lar va yovvoyi hayot hududlarini saqlash kabi bo'ladi.

³⁷ Peter Rillero, Dinah Zike Ecology, 2005. (126-127; 129-bet)

O'simliklar dunyosi

O'simliklar dunyosi erdagi hayotning birlamchi manbaidir. Ular yiliga 380 mlrd. tonna organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. tonna dengiz va okean o'simliklariga, 38 mlrd. tonna o'rmonlarga, 6 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari o'simliklar, ya'ni yashil o'simliklar tufayli fotosintez jarayoni bo'lmasa, havodagi uglerod (CO_2) ning miqdori ko'payib kishilar va hayvonlar nobud bo'lur edi. Biroq atmosferadagi suv yuzasidan va tuproqdan kelayotgan o'sha CO_2 gazi o'simliklar tomonidan yutilib, fotosintez natijasida yashil o'simliklar atrofga kislorodni chiqarib turadi.

Shunday qilib, fotosintez orqali Yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800-yilda, karbonat angidrid 7 yilda bir marta yangilanib turadi.

O'simliklar inson uchun oziq-ovqat, yem-xashak, dori-darmon, kiyim-kechak va boshqa ko'pchilik moddalarning tabiiy manbalari hisoblanadi.

Xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va keng tarqalgan dorivor o'simliklardan foydalaniladi. Bularga isiriq, ermon, chakanda, aloye, na'matak, gazanda va boshqalar misol bo'la oladi.

O'simliklar inson organizmidagi turli yuqumli kasalliklarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Insonlar o'simliklardan chorva mollari uchun ham yem-xashak sifatida keng ko'lamda foydalanadilar.


O'zbekistonda g'o'za o'simligi asosiy homashyo hisoblanib, undan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Insonlar o'simliklardan qurilish materiali sifatida ham foydalaniladi.

O'simliklarning inson hayotidagi muhim tomonlaridan biri, atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirishdir, chinor, terak, eman, igna bargli doim yashil o'simliklar shular jumlasidandir. Bundan tashqari ular havodagi changni tozalab, uni kislorod bilan boyitadi.

O'simliklar dunyosidan oqilona foydalanish va muhofaza qilishda o'rmon o'simliklari alohida o'rin egallaydi. Respublikadagi o'rmonlar yagona davlat o'rmon fondini tashkil etadi. O'zbekiston o'rmonlari o'zining xususiyatlari bilan tog', cho'l, to'qayzor va vodiy o'rmonlariga ajratiladi (1-sxema).

1-sxema



Hozirgi vaqtda tog' o'rmonlari 311 ming ga maydonni egallaydi, asosiy o'simligi archa hisoblanib, qolganlari turli-xil daraxt va butalardan iborat.

Cho'l o'rmonlari 2,4 mln. ga dan iborat. Bu o'rmonlarning asosiy o'simligi saksovuldir.

To'qay o'rmonlari ilgari juda zich bo'lib, hozirda atigi 25 ming ga maydonda saqlanib qolgan.

Vodiy o'rmonlarini madaniy iqlimlashtirilgan daraxtlar tashkil etib, ular 12 ming ga dan iborat.

XX asr boshlarida O'zbekiston o'rmonlarining maydoni 4–5 martaga qisqardi. Ayniqsa to'qay o'rmonlari antropogen tayziqqa duch keldi.

Dunyo bo'yi o'rmonlar xolati qoniqarli emas. Haddan tashqari o'rmonlarni kesilishi avj olib, ularning tiklanishi yetarli emas. O'rmonlar kesilishini yillik hajmi 3 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Bu

FAO (BMTning oziq-ovqat va q/x tashkiloti) ning ma'lumotlariga qaraganda 2000-yilga kelib 1,5 barobarga ortdi. Ayniqsa tropik o'rmonlar (Yer yuzining 7%idan iborat) holati g'oyat tashvishlidir.

Aniq ilmiy manbalarda keltirilishicha, biz yashab turgan yer kurasida bundan 1,5 ming yil muqaddam o'rmonlar 47% maydonni tashkil qilgan bo'lsa, hozir ular 27% ni tashkil qiladi. Ko'p mamlakatlardagi sanoat manbalarida foyda ketidan quvish oqibatida juda ko'p o'rmonlar kesilib, ularning o'rniga katta-katta zavod, fabrikalar qurilmoqda. Bu zavod va fabrikalarda chiqayotgan chiqindilar atrof-muhitni ifloslanishi natijasida ko'plab nodir va noyob o'simlik turlari qirilib ketishiga sabab bo'lmoqda. BMTning rasmiy ma'lumotlariga qaraganda sanoat rivojlana boshlagan davrdan 250 ming xil o'simlik turi yo'q bo'lib ketishi xavotir ostida ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgach atrof-muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor berildi. 1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 1993-yil 7-mayda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida» va nihoyat 1997-yil 26-dekabrda «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Ushub qonunlarda tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar dunyosini shuningdek, takror etishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar to'g'risida boradi.

2-modda – O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar to'g'risida qonun hujjatlarini asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish. Tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish;

- O'simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni takror etishtirishni ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarni o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish.

4-modda – O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat hokimiyati organlari, shuningdek, mahsus vakolat berilgan davlat organlari va davlat organlari boshqaruv organlaridir. Yuridik va jismoniy shaxslar o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda va sharoitlarda qoplashlari shart.

Bu qonunlar barcha o‘simliklar turlarini saqlab qolish, uni asrab avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjatlar bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida 4,5 mingga yaqin o‘simlik turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko‘pgina kamyob, endem va reлект turlari ham. Unday turlarning soni 324 ta bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga kiritilgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan bunday muhofazaga muhtoj o‘simliklar borasida ko‘pgina ishlar qilindi (1–2-jadval).

1-jadval

Bioxilma-xillikning boyligi

№	Tiplar	Turlar soni	%
1	Baktriyalar	1942	7, 19
2	Viruslar	200	0, 7
3	Soda organizmlar	870	3, 2
4	Yassi chuvalchanglar	300	1, 1
5	Yumaloq chuvalchanglar	930	3, 4
6	Mollyuskalar	140	0, 5
7	Bo‘g‘imoyoqlilar	11300	41, 8
8	Umutqalilar	664	2, 5
9	Suv o‘tlari	2008	7, 4
10	Yuqori o‘simliklar	4146 4500	15, 3 16, 6

O‘zbekiston asosiy tabiiy-hududiy majmuasi florasining xilma-xilligi.

2-jadval

Majmualar		Maydoni km ²	%	Turlar soni
Cho‘llar	Qumli cho‘llar	9870	22	320
	Taqirlar	13185	29	400
	Shag‘alli cho‘llar	1700	4	566
	Sho‘rxok cho‘llar	1310	3	304
Namlangan maydonlar	Daryo qayirlari va ko‘llar	1541, 3	3, 5	285
Dashtlar	Tog‘oldi yarim cho‘l	459	1	1180
	Tog‘ quruq dashtlari	365	0, 7	634
O‘rmon- o‘tloq dashtlar	Tog‘ bargli o‘rmon va butazorlar	218	0, 4	248
	Archazorlar	85, 6	0, 2	235

O‘zbekiston Respublikasi hududida 4,5 mingga yaqin yovvoyi o‘simlik va 2000 dan ziyod zamburug‘ turlari mavjud. Shundan 577 tasi dorivor, 103 turi bo‘yoqbop, 560 turi efir moyli o‘simliklar hisoblanadi. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko‘pgina kamyob, endem va relikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni 400 ta atrofida bo‘lib, ular O‘zbekiston florasining 10–12 % ini tashkil etadi.

Aholining tabiatga noto‘g‘ri munosabati ham o‘simliklarning kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda qizil lola, sallagul, shirach va shunga o‘xshash nafis gulli o‘simliklarning juda kamayib ketganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

O‘simlik turlarini saqlash va muhofaza qilish uchun 1979-yilda O‘zbekiston **“Qizil kitobi”** ta‘sis etildi. Qizil rang – xavfli, ta‘qiqlovchi va ma’n qiluvchi ramziy ma’noni anglatadi. **“Qizil kitob”** nabotot olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida mukammal ma’lumot beradi. Uning vazifasi – jamoatchilik va davlat idoralari tabiat muhofazasi masalasiga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat.

O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan 163 turi **“Qizil kitob”**ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan. Shuni esda tutish

kerakki, **“Qizil kitob”** ning birinchi jildi (tomi) hayvonlar bo‘yicha bo‘lib, 1983-yilda nashr qilingan. 1998-yilga kelib, O‘zbekiston **“Qizil kitobi”** ga kiritilgan o‘simlik turlarining soni 301 taga yetdi. 2009-yilda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi» ga esa 324 ta o‘simlik va 3 ta zamburug‘ turlari kiritilgan.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish jarayonida keng omma ishtirok etgan taqdirdagina ijobiy natijalarga ega bo‘lish mumkin. Shundagina, biz kelgusi avlodlar uchun nabotot olamining bebaho boyligini saqlab qoldirgan bo‘lamiz.

Esda tuting!

Flora lotincha “flora” – gullar, bahor va yoshlikning xudosi; o‘simlik turlarinnig majmui.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Botanika bog‘i 1950-yilda Toshkent shahrining shimoliy-g‘arbiy qismida tashkil etilgan. Uning asoschisi botanik F. N. Rusanov hisoblanadi. Bu yerda dunyoning turli mamlakatlardan keltirilgan daraxtlarni iqlimlashtirish, O‘rta Osiyoda noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlarini saqlash, gulli o‘simliklarni iqlimlashtirish, tropik va subtropik o‘simliklarni ko‘paytirish maqsadida tibbiy botanika, sanoat botanika, geobotanika, o‘simliklar ekologiyasi kabi ilmiy laboratoriyalar ishlab turibdi.

Nazorat savollari:

1. O‘simliklar dunyosi tabiatda qanday ahamiyatga ega?
2. Yer yuzida qancha tur o‘simliklar bor?
3. O‘zbekiston o‘simliklar dunyosida qancha o‘simliklar turi mavjud?
4. “Qizil kitob” haqida fikr yuriting?
5. O‘zbekistonda o‘simliklarni muhofaza qilish borasida davlatimiz tomonidan qanday ishlar olib borilmoqda?

13-MAVZU: HAYVONOT DUNYOSI VA UNI MUHOFAZA QILISH

Reja:

1. Hayvonlar xilma-xilligi va ahamiyati.
2. Noyob va qirilib borayotgan organizmlar.
3. O‘zbekiston hayvonlari.
4. Hayvonlarni muhofaza qilish.

Tayanch so‘zlar: biologik resurs, Qizil kitob, sahro-cho‘l muhiti, noyob hayvonlar, krevetka, kondor, suvsar, pelikan.

Ko‘lmakdagi krevetka balig‘i

Yo‘qolib borayotgan turlar Kaliforniyaning markaziy vodiysidagi mavsumiy suv havzalarida yashaydi. Ifloslanish shahar urbanizatsiyasi kengayishi va boshqa ta’sirlar vodiydagi 90 % bahoriy ko‘lmaklarni yo‘qolib ketishiga olib kelmoqda. Bu turlarning yo‘qolib borishi ularning kelib chiqishi va paydo bo‘lishi holatlarining beqaror bo‘lib borishga sabab bo‘lmoqda.



Kaliforniya kondori. 1-rasm

Bu noyob tur – Kondorning yo‘qolib ketish xavfi XX asr oxirlariga kelib kuchayib ketdi. Ba’zi kondorlar yovvoyi tabiat qo‘ynida asrab qolindi.

Cho'l toshbaqasi

Yo'qolib borayotgan cho'l toshbaqasi kelajagi beqaror bo'lib bormoqda. Insoniyat taraqqiyoti AQShning janubi-g'arbida yashaydigan cho'l toshbaqasi hududlarining qisqarib borishiga sabab bo'lmoqda.

Janubiy dengiz suvsari

Dengiz suvsari Tinch okeanining AQShga tegishli qismidagi sayoz suv havzalarida yashaydi. Asrlardan buyon dengiz suvsarlari noyob juni uchun ovlanib kelingan.

Pelikanlarni saqlab qolish muammosi

Pelikanlar baliq va akvatik o'simliklarni yeyishga moslashgan qushlardir. XX asr o'rtalarida DDT preparatidan foydalanish kengayib ketdi. 1972-yilda AQSH da DDT preparati qishloq xo'jalik ekinlariga qiron keltiruvchi hasharotlarni yo'q qilish uchun nazorat sifatida keng ko'lamda ishlatila boshlandi. Bu holat pelikanlarning kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Chunki pelikanlarning tuxumlari ingichka shaklga o'tdi. Shuningdek, palaponlarni erta tuxumdan chiqish holati ro'y berdi. Jigarrang pelikanlar Luizana shtati va Texasdan butunlay yo'qoldi. 2000-yillardan buyon Luizana va Texasda 7000 dan ortiq jigarrang pelikanlar yashamoqda.³⁸

Hayvonot dunyosi

Hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismidir va ular tabiatda moddalar va energiya almashinuvida muhim rol o'ynaydi.

Hayvonot olami umuman insoniyatning yashashi, hayoti faoliyatida juda muhimdir. Ma'lumki, uy hayvonlari hisoblanadigan qoramol, qo'y, echki, to'ng'iz, ot, eshak, tuya, qolaversa it, mushuk kabi jonzorlar bizning hayotimizda tayin bir maqsad uchun boqiladi. Ayrim hayvon turlari biz uchun oqsil, moy, sut manbai, boshqasi xo'jalik uchun asqotadigan ishlarni bajaradi, transport sifatida, uylarni qo'riqlashda, zararkunandalar bilan kurashishda beminnat dastyor hisoblanadi.

³⁸ Peter Rillero, Dinah ZikeEcology, 2005 (132, 143-bet)

Tabiat qo'ynida yovvoyi holda yashaydigan hayvonlarning ham o'ziga xos foydali xususiyatlari mavjud, jumladan, ulardan mo'yna, dorivor vositalar, oziq-ovqat mahsulotlari, jun olinadi.

O'zbekistondagi asosiy xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan hayvonlar: suvda suzuvchilar, sayg'oqlar, ondatralar, toshbaqalar, zaharli ilonlar, kakliklar, tog' echkilari va umurtqasizlar hisoblanadi.

Hayvonlar tabiatda tabiiy vositalarning muvozanatini saqlab turishda xizmat qiladi. Umuman hayvonlarning turi ko'p bo'lib, ularning bir yarim milliondan ziyod turi bor.

O'simliklarning quyoshdan olayotgan energiyasini 100% deb olsak, shuning 50%ini o'simliklar nafas olish jarayonida qolgan energiyani o'zlashtirib, organik modda o'txo'r va etxo'r hayvonlarga o'tadi.

Tuproq tarkibini yaxshilashda va uning hosildorligini oshirishda hayvonlarning, xususan, yomg'ir chuvalchangini, chumolini, termitlarni, umurtqali yer qazuvchilarni va boshqalarning ahamiyati juda katta. Bu hayvonlar tuproqni yumshatadi, aralashtiradi, najas va o'simlik qoldiqlari bilan o'g'itlaydi.

O'simliklarni changlanishida, urug' va mevalarini tarqatishda ham hayvonlarning ishtiroki bor. Ayrim yirtqich qushlar esa zarakunandalarni (kemiruvchilarni) qirib, o'simliklar hosildorligini oshiradi yoki ba'zi hasharotlar o'simliklarni zarakunanda hasharotlardan va kasalliklardan saqlaydi. Masalan, bitta boyqush bir yilda 1000 ta sichqonni yo'q qilib, 0,5 t donni saqlab qolsa, chumolilar o'rmonlarni kasalliklardan saqlaydi.

Bir hujayrali dengiz hayvonlarning qoldiqlaridan cho'kindi jinslar (bo'r, ohaktosh) vujudga kelsa, poliplarning faoliyati tufayli okeanlarning sayoz va iliq suvli qismida marjon orollari vujudga keladi.

Qadimda ham, texnika taraqqiyoti rivojlangan hozirgi vaqtda ham odamlar hayvonlarni chiroyli terisi, mazali go'shti, qimmatbaho suyagi uchun qiziqishgan bo'lsa o'ta johil kishilar ov qilishni ermak bilib, hayvonot olamini yo'q qilishgan. Manbalardan ma'lumki 1872- va 1874-yillar mobaynida AQShdagi Kanzas temir yo'li qurilishi vaqtida "ishtiyoqmand" ovchilar har yili 2, 5 mln. bizonni

otib tashlaganlar, ularni bu beozor jonivorning na mazali go'shti va na terisi qiziqtirmagandir. Oqibatda bizonlar shu qadar kamayib ketganki, hozir ularning ozginasi maxsus qo'riqxonalarda saqlanib qolgan.

Shuni aytish kerakki, O'zbekiston hududida hayvonot olami qanchalik muhofaza qilinmasin va ularning ko'payishiga sharoit yaratib berilgan bo'lmasin, goho ularni pinhoni ov qiluvchi shaxslar uchrab turadi.

O'zbekiston hayvonat olamining turi ko'p va ular rang-barang. Hududimizda 650 dan ortiq umurtqali hayvon namunolari mavjud bo'lib, shulardan 83 baliq turi, 3 ta amfibiya, 58 tur sudralib yuruvchilar, 424 turdan ziyod qushlar va 97 tur sut emizuvchilar yashaydi. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasida so'z borar ekan, suv jonivorlarining kamayib ketayotganligiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki ulardan ayniqsa baliq turlarining kamayib ketishi tashvishlanarli xoldir. Bunga sabab esa suv havzalarining ifloslanishi, suvdagi suv salmog'ining ayrim joylarda ortib borishi ma'lum turdagi baliqlar uchun katta zarar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari brakoner ovchilar ham baliqlarning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'lkamizda baliq ovlash xo'jaliklari maydoni 38 mln. ga dan iborat.

O'lka hududidan turon yo'lbarasi, shuningdek, qizil bo'ri butunlay yo'qolib ketgan bo'lib, qoplon, Old Osiyo qoplani, yo'l-yo'l sirtlon, tuvaloq kabi jonzotlarning yo'qolib ketish xavfi bor.

Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston hududida Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Surxon – Sherobod cho'li, Farg'ona vodiysining markaziy qismlari o'zlashtirilgan. Bu esa sahro-cho'l muhitida yashaydigan bir qator jonivorlarning, jumladan, jayron, go'zal tuvaloq kabi noyob zotlarning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Bir qator go'zal jonivorlar, jumladan tog' qo'yi, eron vidrasi, O'rta Osiyo kapchailoni kabilar johil ovchilar tomonidan butunlay kamaytirib yuborildi.

Hayvonlarning noyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilishda ularning yashash sharoitini yaxshilash va ko'payishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish kerak. Buning uchun birinchidan,

yo‘qolib ketayotgan va noyob hayvon turlarini qat’iy nazorat ostiga olib, ov qilishga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik va ikkinchidan, o‘sha hayvonlar yashaydigan hududlarni tabiiy holicha saqlab, qo‘riqxonalarga, buyurtmaxonalarga aylantirish zarur.

O‘zbekistonda chop etilgan yangi «Qizil kitob» (2009) da 24 tur sut emizuvchilar, 51 tur qushlar, 16 tur sudralib yuruvchilar, 18 tur baliqlar kiritilgan. Umurtqasiz hayvonlardan turli sistematik guruhlariga kiruvchi 80 turi kiritilgan (1–2-jadval).

O‘zbekiston mustaqillikga erishgan kunidan boshlab jamiyatni demokratlashtirish va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik ishlarini tobora takomillashtirilib bormoqda. «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida» (1992), Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida» (1993), Hayvonot olamini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» (1997), shuningdek Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bir qator hujjatlar asosida hayvonot olami muhofaza qilinmoqda. Bulardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi va Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo‘lgan suv-botqoqli joylar to‘g‘risidagi (2001-yil Ramsar) Konventsiyalariga qo‘shilgan.

1-jadval

Umurtqali hayvonlar turlari qiyosiy baholanishi

№	Sinflar	Dunyo miqiyosida	MDHda	O‘zbekistonda
1	Baliqlar	22000	500	83
2	Amfibiyalar	2300	34	3
3	Sudralib yuruvchilar	6750	147	59
4	Qushlar	9672	764	424
5	Sut emizuvchilar	4327	332	97

2-jadval.**O‘zbekiston umurtqali hayvonlarining endemik darajasi**

Sinf	Turlar soni		%
	Umumiy	Endemik	
Sudraluvchilar	58	30	51,7
Qushlar	424	8	1,8
Sut emizuvchilar	97	15	15,4
Jami:	579	53	9,2

Ona tabiatimizning rang-barangligi kecha, bugun paydo bo‘lgan emas, balki bu bebaho ne‘mat bir necha ming yillar davomida ajdodlarimizdan bizga qoldirilgan aziz merosdir. Shuning uchun ham har birimiz tabiat boyliklarini muhofaza qilish, uni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashimizda o‘zimizni mas’ul, javobgar sezishimiz darkor.

Esda tuting!

Fauna lotincha “fauna” -o‘rmon va dalalar xudosi, hayvonlar to‘dasining himoyachisi (hayvonot olami).

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Toshkent hayvonot bog‘i 1920-yilda tashkil etilgan. Hayvonot bog‘i kattalar va bolalar uchun sevimli dam olish maskani bo‘libgina qolmay, balki u kishilarning hayvonot olami haqidagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi hamda O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan noyob va yo‘qolib borayotgan turlar bilan ham tanishtiradi.

Nazorat savollari:

1. Hayvonot dunyosining qanday ahamiyati bor?
2. O‘zbekiston hayvonot olamida qancha tur hayvonlar bor?
3. O‘zbekistonda hayvonot olamini muhofaza qilish borasida qanday ishlar olib borilmoqda?
4. O‘zbekiston hayvonot olamida qanday turlar yo‘qolib ketgan?

14-MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISHNI TA'LIM VA TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Respublikada uzluksiz ekologik ta'lim
2. Ekologik ta'lim tarbiya va uning bosqichlari

Tayanch so'zlar: ekologiya, qadriyat, bog'cha, o'rta ta'lim maktablari, mahalla, kasb-hunar kollejlari, oiliy ta'lim, qayta tayyorlash, ekologik holat, ekologik madaniyat.

Ekologik ta'lim-tarbiya

Ekologik ta'lim o'sib kelayotgan yosh avlodni umuman yer yuzi aholisini barqaror rivojlanishiga o'tishda eng muhim shart-sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ekologik ta'limning mazmunini quyidagilar tashkil etishi mumkin:

1. Dunyoni hozirgi ekologik xolat asosida unga munosabat bildirish;
2. Tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkibini birlikda ekanligini fikrlay olish;
3. Atrof-muhitga munosabat va o'zini anglab etish. Tabiatni tarkibiy qismi ekanligini tushunish;
4. Tabiatga nisbatan qadriyatlarni hurmat qilish;
5. Tirik organizmlarni har xil darajada o'rganish va izchillik metodini qo'llash;
6. Tirik organizmlar tizimi bir butunligini va o'zaro ekologik bog'lanishlarda ekanligi (moddalar aylanishi, energiya va axborot almashinuvi).
7. Tabiiy jarayonlar va hodisalarning antropotsentrikdan biotsentrikga hamda politsentrik usulni qo'llash;
8. Tabiat va jamiyatdagi o'zaro birlik va qarama-qarshiliklarni anglash;

9. Ekologik tanglik, madaniyatning tangligi ekanligini anglash;
10. Ekologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini anglash;
11. O'z faoliyatida ekologik va axloqiy normalarni to'g'ri keladigan usullarini anglash;
12. O'zi va boshqalar sog'lig'i uchun, atrof-muhit xolatiga nisbatan ekologik javobgarlikni tarbiyalash;
13. Insoniyatning barqaror rivojlanish kontseptsiyasini, tabiat bilan jamiyatning koevolyutsiyasi ekanligini tushunib etish;
14. Tabiat bilan jamiyatni uyg'unlashtirish, ijtimoiy zaruriy muammo ekanligini tushunish.

Ekologik tarbiyani farzand tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq demakdir. Ekologik tarbiyani kim va qanday olib boradi? – degan savol paydo bo'ladi.

Birinchi – tarbiya ota-ona zimmasidadir.

Ikkinchi – bog'cha, maktab, oliy va o'rta maxsus kasb hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari mahallalarda amalga oshadi.

Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o'rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e'tiborga molikdir.

Ekologik tarbiya ham tarbiyaning, asosiy qismi bo'lib, bolaning ahloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi va ota-onalarni ularni murg'aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Ekologik ta'lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayondir.

Har qanday tarbiya asosan oila sharoitida kechadi. O'zbek oilalarida "harom-halol", "uvol", "gunoh-savob" kabi tushunchalar ko'proq ekologik vaziyat (masalan: nonning oyoq ostiga tushushini, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish, dov-daraxtlarni sindirish va boshqalar) yuzaga kelganda qo'llaniladi. Bolalar hali bu so'zlarning mohiyatini to'liq tushunmasalarda, ularga milliy ekologik xulq-atvor kurtaklari shakllanadi.

Insonni tabiat bilan uyg'unlikka da'vat hadislarida ham o'z aksini topgan.

Xalqimiz qadimdan badanning quvvati ovqat, aqlning quvvati-hikmatli so'zdir, deb uqtirib kelgan. Hadislar ana shunday hikmatli

soʻzlar, donishmandlik durdonalari hisoblanadi. Hadis ilmi bilan shugʻullangan mashhur allomalar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad Daramiy as-Samarqandiylar Oʻrta Osiyolik boʻlib, hadis ilmining asrdan-asrga saqlanib borishiga munosib hissa qoʻshgan buyuk tarixiy shaxslardir.

Hadis bandlari ekologik taʼlim va tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Ularda ayrim oʻsimlik va hayvonlarning xosiyatlari, ozuqa zanjirida tutgan oʻrni, shuningdek, inson xoʻjalik faoliyatida ahamiyati kabi tomonlari bayon etilgandir. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergash va uni muhofaza qilishga oʻrgatadi. Chunonchi, qoʻy boq, zero ayni barakadur deyiladi. Bu yerda foydali hayvonlarning populyatsiyasini koʻpaytirish va undan turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi eʼtiborga olingan.

Shuningdek, boshqa hadislrada ham qoʻy, tuya va otlarning insonlarga tegadigan nafi va ularni boqib koʻpaytirish kishilar uchun faqat yaxshilik keltirishi haqida, ozuqa zanjirida II va III tartiblarni egallagan oʻlaksaxoʻr hayvonlar goʻshti harom ekanligi, ovchilar uchun koʻz oldida otilgan hayvonni eyish mumkinligi, aksincha oʻlgan holdagisini eyish inson salomatligiga salbiy taʼsir etishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Hadislardan namunalar: (ovoz bilan).

Qoʻy boq, chunki qoʻy barakadir.

Dehqonchilik bilan shugʻullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qoʻriqchilarni koʻpaytiringlar.

Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan doʻzaxga tashlanadi.

Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt oʻtqazsa, soʻng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.

Kim suv toshqinini toʻxtatsa yoki yongʻinni oʻchirsa, unga shahidlik ajri beriladi.

Maktablarda, oliy oʻquv yurtlarida, sanoat, ishlab chiqarish korxonalarida, shuningdek, jamoa xoʻjaliklarida, madaniyat uylarida, qiroatxonalarda tabiatsevarlar klubi, yoshlar maʼruzaxonasi, tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, oʻlka muzeylari, tabiat burchaklari tashkil

etilib, ularda o'lkaning tabiati, boyliklarini ko'rsatadigan, hikoya etadigan tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiat muhofazasi talqin etiladigan kechalar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar, olimlar bilan yoshlarning muloqatini o'tkazish ham xayrli tadbirlardan hisoblanadi.

Oliy maktablarda ekologik ta'limi tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslarini chuqur va har tomonlama o'rganishga, inson faoliyati natijasida biosferada ro'y berayotgan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish maqsadlariga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, u talabalarni maktablarda ekologiya asoslari va tabiat muhofazasi ta'limini o'qitishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

O'zbekistonda aholiga uzluksiz ekologik ta'lim berish va bu sohada uning bilimini oshirish masalalari "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi huquqiy meyoriy hujjatlar asosida hal qilinmoqda (1-sxema).


Ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beradigan omillardan biri – barcha aholi qatlamlariga ekologik bilim berish va ularning ekologik madaniyatini hamda tafakkuri darajasini yuksaltirishdan iborat.

Ekologik bilim – kishilarning atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat majmua(kompleks)larini qayta tiklash haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, ya'ni ushbu voqelikning inson tafakkurida aks etganlik darajasi.

Ekologik madaniyat – bu insonlarda tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, uning intellektual salohiyati va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondoshuv.

Tabiatga avaylab munosabatda bo'lish singari azaliy an'analarimizni tiklash, har bir inson va butun jamiyatning axloqiy hamda ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish g'oyat muhim.

1-sxema



Ekologik ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi – aholining barcha qatlamlarida, jumladan, maktab o'quvchilarida ularning atrof-

muhitga, jonajon tabiatimizga bo‘lgan ongli munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirishdan iboratdir.

Buning uchun, barcha aholi ekologiyaga oid umumta’lim davlat standartlari darajasida bilim egallashlari, yetarli ko‘nikma va malakaga, o‘zining ekotizimga dahldor ekanligini anglatuvchi dunyoqarashga ega bo‘lishi va buni ma’nan hamda ruhan his qilishi darkor.

Inson ongiga ekologik ta’lim-tarbiyani singdirish uchun uzluksiz ekologik ta’lim-tarbiyani joriy etish zarur. Bu, birinchi navbatda, oilada o‘z aksini topadi va maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida va aholining katta yoshdagi qatlamlari (mahalalar) da ekologik ruhda, shaxs kamolotini yuksaltiruvchi uzluksiz ekologik ta’limni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uzluksiz ekologik ta’limni o‘quv predmetlaridan bilim berish jarayonida, festivallar, konferensiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, “ochiq darslar”, tanlovlar kabi turli tadbirlar va sahna ko‘rinishlaridan iborat chiqishlarga jalb qilgan holda amalga oshirish mumkin.

Tabiatdan foydalanish sohasida insonning ekologik jihatdan saviyasiga ta’sir ko‘rsatish borasida oqilona tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifa hisoblanadi. Bu ishlar atrof-muhitni saqlash bo‘yicha uzoq yillarga mo‘ljallangan yagona uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Ekologik ta’lim deganda, o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya farzand tug‘ilgan kundan boshlab berilishi kerak. Bunda fikr nurlantirilishi, axloq go‘zallashtirilishi, zehn ravshanlantirilishiga erishish zarurdir. *Ekologik tarbiya*, avvalo, ota-ona zimmasidadir. So‘ng bog‘cha, maktab, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlari, mahallalarda amalga oshiriladi.

Barqaror taraqqiyot ta'limi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida 2005–2014-yillar uchun Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'limni (BTT) amalga oshirish bo'yicha xalqaro sxema tasdiqlangan edi.

Barqaror taraqqiyot ta'limi (BTT) fanlararo yondoshuvi asosida ta'lim olish, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'nan shakllangan, ijtimoiy faol, o'z hatti-harakatlarida axloqiy va ekologik meyorlarga asoslanadigan, o'zbek xalqi qadriyatlariga mos bo'lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof-muhit holati haqida qayg'uradigan va yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllatirishga da'vat etadi.

BTT jamiyatning barcha a'zolarini mintaqaviy va global muammolarni hal qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Agar ekologik ta'lim ko'proq ekologik mavzularga e'tibor qaratlsa, BTT siyosat, iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorligi masalalariga alohida yondoshadi.

BTT asosiy maqsadi – barqaror taraqqiyotning g'oyalari va tamoyillarini ta'limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash va mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo'naltirilgan va faol fuqarolik munosabatini bildiradigan shaxslarni tayyorlash hisoblanadi.

BTT ning hal qiluvchi ahamiyatga ega g'oyalari hozirgi zamon va kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni, shu jumladan Orol inqirozi muammolarini yechish va oldindan ko'ra olishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, BTT ning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Jamiyatning qadriyaviy yo'nalishlari – adolat, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik etikasi (kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda);

2. Fanlararo yondoshuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarning o'zaro bog'liqligi.

Test savollari

1. Ekologik ta'limning barqaror rivojlanishdagi roli?
 - a) tabiatga mehr uyg'otish.
 - b) tabiat bilan jamiyatning birligi va uyg'unligi.
 - c) tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkib birligi.
 - d) qadriyatlarni hurmat qilishga.
 - e) madaniyat va ekologiyaning birligi.

2. Ekologik ta'limning eng muhim talablari?
 - a) jonsiz va jonli tabiat, tabiat va jamiyat birligi, ekologik tanglik, madaniyat tangligi.
 - b) jonli tabiatga munosabatni yaxshilash.
 - c) atrof-muhitga munosabat.
 - d) o'z-o'zini anglab etish.
 - e) tirik organizmlarni har xil darajada o'rganish.

3. Ekologik ta'lim va tarbiyaning asosiy bosqichlari?
 - a) umumta'lim maktablari, mahalla.
 - b) bog'cha, o'rta maxsus bilim yurtlari.
 - c) oila, bog'cha, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari.
 - d) oliy o'quv yurtlari, maktablar.
 - e) ishlab chiqarish korxonalari, oila.

4. «Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do'xaxga tashlanadi» hadisini mazmunini ochib bering?
 - a) daraxtlar kishilarga soya bergani uchun.
 - b) daraxtlar ham tirik organizm bo'lganligi uchun.
 - c) daraxtlar odamlarning yashash manbai.
 - d) daraxt nafaqat soya beruvchi balki oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurilish, moddalar aylanishi va boshqalar.
 - e) daraxtlarni kesish oson, ekib o'stirish esa qiyin.

5. O'zbek xalqini ekologik madaniy merosi haqida nima bilasiz?
 - a) milliy qadriyatlarga amal qilish.

- b) xonadonlarni ozoda tutish, suvni asrash.
- c) suvga ahlat tashlamaslik, xasharlar uyushtirish.
- d) atrof-muhitni ozoda tutish, ko‘chat ekish, obodonlashtirish.
- e) yuqoridagi javoblarning hammasi to‘g‘ri.

Nazorat savollari:

1. Ekologik bilim nima?
2. Ekologik madaniyatni tushuntiring?
3. Ekologik ta’lim va tarbiyani tushuntiring?
4. Barqaror taraqqiyot ta’limini izohlang?

TEST VARIANTLARI

I. EKOLOGIYA FANI VA UNING QISQACHA TARIXI

1. Ekologiya fanining asoschisi kim?

1. E. Gekkel.
2. CH. Darwin.
3. V. Vernadskiy.
4. J. Lamark.

2. Ekologiya fani nimani o'rganadi?

1. Tirik organizmlar bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqani o'rganadi.
2. Hayot haqidagi fan.
3. Muhitni ifloslanishini o'rganadigan fan.
4. Insonning tabiatga ta'sirini o'rganadigan fan.

3. Biologik va ekologik hodisalarni aniq sharhlash va kelajak tadqiqotlar rejasini tuzishda qudratli omil sifatida ahamiyatga ega bo'lgan ekologik uslub qaysi?

1. Tasviriy usul.
2. Taqqoslash usuli.
3. Tajriba usuli.
4. Matematik modellash usuli.

4. Ekologiya fanining ilmiy-tadqiqot uslublari qaysilar?

1. Tasviriy, tajriba, modellashtirish, matematik.
2. Tasviriy, taqqoslash, tajriba, modellashtirish.
3. Individa, populyatsiya, biogotsenoz.
4. Modellashtirish, tasviriy, tajriba, fizikaviy.

5. Ekologiya faniga hissa qo'shgan O'rta Osiyo allomalari?

1. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Jayhoniyy.
2. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino.
3. Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy.
4. Sulton Balhiy, Mahmud ibn Vali.

6. “Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar”. Ushbu satrlar qaysi allomaga tegishli?

1. Muhammad Muso al-Xorazmiy.
2. Abu Nasr Forobiy.
3. Abu Rayhon Beruniy.
4. Abu Ali ibn Sino.

7. Abu Rayhon Beruniyning “Saydana” nomli asarida qancha dori-darmonlar qayd etilgan?

1. 700 ta.
2. 750 ta.
3. 1116 ta.
4. 1200 ta.

8. O‘zbekistonda “Hayvonlar ekologiyasi asoslari” nomi bilan birinchi yozilgan darslik kimning qalamiga mansub?

1. M. S. Gilyarrov.
2. V. N. Sukachev.
3. D. N. Kashkarov.
4. G. Odum.

9. D. N. Kashkarov va YE. P. Korovinlar tomonidan yaratilgan ekologiya fani va uning vazifalari, uslublari o‘z aksini topgan ilmiy asarlar qaysilar?

1. “Muhit va jamoa”, “Cho‘ldagi hayot”.
2. “Hasharotlar ekologiyasi”, “Qizilqum cho‘lining biotsenozlari”.
3. “Hayvonot olamini qo‘riqlash va undan ratsional foydalanish”, “Qarshi cho‘lning umurtqali hayvonlari ekologiyasi”.
4. “Farg‘ona vodiysining umurtqali hayvonlari”, “Payg‘ambar oroli sut emizuvchilari”.

10. Ekologiyaning predmeti

1. Populyatsiya, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera
2. Tabiatdagi salbiy o‘zgarishlar.
3. Ekologik omillar.
4. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar.

II. AUTEKOLOGIYA

1. Hozirgi davrdagi ekologiyaning tuzilmasini ko'rsating?

1. Autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya, biosfera ta'limoti.
2. Sinekologiya, demekologiya, o'simliklar ekologiyasi.
3. Biosfera ta'limoti, hayvonlar ekologiyasi, tirik mavjudotlar ekologiyasi.
4. Autoekologiya, sinekologiya, demekologiya, ijtimoiy ekologiya.

2. Ekologiyada muhit tushunchasi qanday ta'riflanadi?

1. O'simlik va hayvonlardan iborat bo'lgan muayyan maydon birligi.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim.
3. Tirik organizmlarni o'rab turgan fizik qurshov.
4. Yorug'lik, harorat, namlik.

3. Tirik organizmlar tarqalgan asosiy hayot muhitlarini ko'rsating?

1. Suv, tuproq, havo, tirik organizm.
2. Yer yuzasi, Quyosh sistemasi.
3. Tirik organizmlar, suv.
4. Havo, tuproq, koinot.

4. Hayotni belgilab beruvchi omillar majmui nimalardan iborat?

1. Mineral tuzlar, relyef.
2. Harorat, suv, yorug'lik.
3. Relyef, tuproq, suv.
4. Harorat, mineral tuzlar, suv.

5. Ekologik omil deganda nimani tushunasiz?

1. Muhitning tirik organizm hayotiga ta'sir etuvchi elementlari.
2. Suv va uning barcha fizik va kimyoviy xususiyatlari.
3. Havo va uning kimyoviy tarkibi.
4. Tirik organizmlar: o'simlik, hayvon va bakteriyalar.

6. Abiotik omillar majmuini ko'rsating?

1. Edafik, fitogen, biotik.
2. Mikrobiogen, zoogen, relyef.
3. Fiogen, zoogen, mikrobiogen.
4. Iqlim, tuproq, relyef.

7. Hayvonlar hayotida yorug'likning ahamiyati nimada?

1. Fazoda mo'ljal olish, harakatlanish, oziqlanish.
2. Tana haroratini boshqarish.
3. Ko'payish.
4. Populyatsiya sonini boshqarish.

8. Biotik omillar majmuini ko'rsating?

1. Fitogen, zoogen, mikrobiogen, mikogen.
2. Orografik, fitogen, zoogen, mikrobiogen.
3. Mikrobiogen, kimyoviy, edafik.
4. Tarixiy, mikogen, yong'in, zoogen.

9. Atropogen omil deganda nimani tushunasiz?

1. O'simliklarning tabiatga ta'siri.
2. Insonlarning tabiatga ta'siri.
3. Hayvonlarning tabiatga ta'siri.
4. Zamburug'larning tabiatga ta'siri.

10. Yantoq o'simligining qurg'oqchil issiq sharoitga moslashishi?

1. Hujayraviy, biokimyoviy, morfologik.
2. Organizm, senotik, fiziologik.
3. Anotomik, morfologik, fiziologik.
4. Anotomik, molekulaviy, biokimyoviy.

11. O'simliklarning namlik omiliga ko'ra ekologik guruhleri?

1. Gidrofit, galofitlar, mezofitlar.
2. Sukkulentlar, kalsifitlar, gidrofitlar.
3. Gidatofitlar, psammofitlar, mezofitlar.
4. Gidrofitlar, gigrofitlar, mezofitlar, kserofitlar.

12. Qushlarning havo muhitiga moslashishi.

1. Suyaklarning yengilligi, qanotlarning bo'lishi.
2. Yirik tana, tez uchadigan.
3. Qanotlarga ega emas, tanasi suyri shaklda.
4. Terisi shilliq, tanasi bo'lak-bo'laklardan iborat.

13. Moslashish darajalari to'liq qatorini ko'rsating?

1. Organ, to'qima, hujayra.
2. Molekulaviy, hujayraviy, organizm, senotik.
3. Organizm, hujayraviy, to'qima.
4. Biosferaviy, ekotizimli, jamoa.

14. O'simliklarning hayotiy shakllari

1. Bir, ikki va ko'p yillik o'tlar.
2. Daraxt, buta, chala buta, butacha, o't.
3. Chala buta, daraxt, buta, o't.
4. Buta, bir va ikki yillik o'tlar.

15. Hayvonlarning hayotiy shakllari

1. Suvda va quruqda yashovchilar.
2. Sakrovchi, yuguruvchi, o'rimalovchi xususiyatga ega bo'lganlar.
3. Suzuvchi, kovlovchi, quruqlikda, havoda, daraxtda yashovchilar.
4. O'tlar, butalar orasida yashovchilar.

16. Hayvonlarning namlik omiliga ko'ra ekologik guruhleri

1. Poykilotermalar, geterotermalar, gomoyoterm.
2. Zoogen, zooterm.
3. Sukkulent, skleroterm.
4. Bentos, zoobentos.

17. O'simliklarni yorug'lik olmiliga ko'ra ekologik guruhleri

1. Geliofit, ssiofit, fakultativ geliofit.
2. Yorug'sevar, issiqqa chidamli, soyasevar.
3. Fakultativ geliofit, soyasevar, salqinga chidamli.
4. Fotoperiodizm, geliofit, issiqsevar.

III. POPULYATSIYA

1. Populyatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ajrating?

1. Morfologik, biologik, xulqiy.
2. Populyatsiyaning dinamikasi, etologiyasi.
3. Genetik birligi, soni, tug'ilish, nobud bo'lish va gomeostazi.
4. Nobud bo'lishi, ko'payishi.

2. Populyatsiyaning tuzilmasini aniqlang.

1. Jins, fazoviy, yosh, xulqiy.
2. Fazoviy, yosh, genetik.
3. Fiziologik, morfologik, biokimyoviy.
4. Xulqiy, biokimyoviy, fazoviy.

3. Hayvonlarning birgalikda hayot kechirish shakllari?

1. Guruhli, parazit, xo'jayin.
2. Immigratsiya, qirilish.
3. Oila, koloniya, poda, gala.
4. Mikoriza, simbioz.

4. Populyatsiyaning gomeostazi

1. Urug'larning to'liq hayotchanlikka ega emasligi.
2. Urug' va mevalarning turli yo'llar bilan tarqalishi.
3. Populyatsiyaning son jihatdan bir meyorda saqlanib turishi.
4. Vegetativ, jinsiy-va jinsiz usulda ko'payishi.

5. Populyatsiyaning yosh tuzilmasi

1. Latent, virgil, generativ, senil davri.
2. Normal, generativ, invazion.
3. Normal, generativ, regressiv.
4. Virgil, generativ, senil davri

6. Populyatsiyaning fazoviy tuzilmasi

1. Bir tekis, tasodifiy, guruhli.
2. Tasodifiy, guruhli, tarqoq.
3. Guruhli, tarqoq, koloniyali.
4. Bir tekis, guruhli, gala.

IV. BIOTSENOZLAR, BIOGEOTSENOZLAR VA EKOTIZIMLAR

1. Kim biogeotsenozlar haqidagi tasavvurni asoslab berdi?

1. A. F. Middendorf.
2. K. Myobius.
3. G. F. Morozov.
4. V. N. Sukachev.

2. O‘zbekistonda o‘rmonlarning xillari?

1. To‘qay, dasht, suv osti. .
2. Tog‘, tog‘ oldi, keng bargli.
3. Ninabargli, daraxtlar, terofit, fanerofit.
4. To‘qayzor, tog‘, cho‘l, vodiylar.

3. Biotsenozning tarkibi

1. O‘simliklar, hayvonlar, bakteriyalar, zamburug‘lar.
2. Fitotsenoz, zootsenoz, suv o‘tlari, hasharotlar.
3. Mikotsenoz, mikrobiotsenoz, sut emizuvchilar.
4. Hasharotlar, sodda hayvonlar, baliqlar.

4. Biotsenozdagi ikkala organizm uchun keskin bo‘lgan munosabat?

1. Mutualizm.
2. Neytralizm.
3. Raqobat.
4. Parazitlik.

5. Parazitlik turidagi biotik aloqa munosabatini aniqlang?

1. Bug‘doy va zang zamburug‘i.
2. Arslon va giyena.
3. Bo‘ri va quyon.
4. Suv o‘ti va zamburug‘.

6. Raqobat turidagi biotik aloqa munosabatini aniqlang?

1. Suv o‘ti va zamburug‘.
2. G‘o‘za va g‘umay.
3. Beda va tukanak bakteriya.
4. Qisqichbaqa va akteniya.

7. Ozuqa zanjiri deganda nimani tushunasiz?

1. Har bir organizmni o'zidan keyin turgan organizm uchun ozuqa bo'lib xizmat qilishi tushuniladi.

2. Organizmlarning ayrim bo'g'inlarni hosil qilishi.

3. Ozuqa zanjiridagi organizmlarning bir-biriga munosabati.

4. Anorganik moddalarning organik moddalarga aylanishi.

8. Ozuqa zanjirining turini toping?

1. O'txo'r, go'shtxo'r.

2. Chirindixo'r, parazit.

3. Parazit va o'ta parazit.

4. Sarflanish, yemirilish.

9. Ekologik tizim nima?

1. Yashash sharoiti o'xshash va o'zaro munosabati natijasida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi har xil turga mansub bo'lgan birgalikda yashovchi organizmlar yig'indisi.

2. Yashash sharoiti har xil va o'zaro munosabati natijasida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi har xil turga mansub bo'lgan birgalikda yashovchi organizmlar yig'indisi.

3. Ma'lum bir maydonni egallagan va bir turga mansub bo'lgan individlar yig'indisi.

4. Bir necha tur o'simliklarning birgalikda qavm bo'lib yashashi.

10. Ekotizim terminini va tushunchasini fanga qaysi olim kiritgan?

1. A. Tensli.

2. K. Myobius.

3. E. Gekkel.

4. J. Lamark.

11. Yer yuzidagi eng katta ekotizimni ajrating?

1. Ekosfera.

2. Noosfera.

3. Biosfera.

4. Litosfera.

12. Noosfera tushunchasini fanga kim kiritgan?

1. E. Gekkel.
2. J. Lamark.
3. Y. Lerua.
4. V. Vernadskiy.

13. Ekologik piramida kim tomonidan tuzilgan?

1. I. A. Seversov.
2. D. N. Kashkarov.
3. Y. P. Korovin.
4. CH. Elton.

14. Ekotizimda moddalar aylanishini ta'minlovchi organizmlar?

1. Produsentlar, konsumentlar, redusentlar.
2. Parchalovchilar, bakteriyalar, zamburug'lar.
3. O'simliklar, tuproq, toshlar.
4. Sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar, hasharotlar.

15. Agroekotizimlar qatorini belgilang

1. Bedazor, paxtazor, poliz ekinlari.
2. Akvarium, xovuz, bug'doyzor.
3. Issiqxona, o'rmon, tog'.
4. Cho'l, mevazor, to'qayzor.

V. BIOSFERA

1. Biosferani ta’rifi?

1. Tirik organizmlar tarqalgan qobiq.
2. Tirik organizmlar va suv muhiti.
3. Tuproq va tuproqdagi organizmlar.
4. Troposfera, atmosfera, ekzosfera.

2. Biosferadagi biologik (kichik) doiradagi moddalar aylanishini aniqlang?

1. Inson, hayvonlar, o‘simliklar.
2. Mikroorganizmlar, yirtqichlar, qushlar.
3. **O‘simlik, tuproq, atmosfera.**
4. **O‘simliklar, hayvonlar, zamburug‘lar.**
3. **“Biosfera” terminini dastlab kim ishlatgan?**

1. J. Lamark.
2. V. Sukachev.
3. V. Vernadskiy.
5. YE. Lerua.

4. Biosferaning yangi sifat holati nima?

1. Noosfera.
2. Litosfera.
3. Troposfera.
4. Ionosfera.

5. Biosferaning eng yuqori chegarasi.

1. Ozon ekrani.
2. Stratosfera.
3. Qushlar uchadigan balandlik.
4. Jamolungma cho‘qqisi.

6. Biosferada moddalarning geologik (katta) doirada aylanishi:

1. Quruqlik bilan gidrosfera o‘rtasidagi aylanish.
2. Avtotrof organizmlar o‘rtasidagi aylanish.
3. Geterotrof organizmlar o‘rtasidagi aylanish
4. Okeanda moddalarning aylanishi.

7. Biosferaning eng quyi chegarasini aniqlang?

1. Suv oʻtlari oʻsadigan qatlam.
2. Quyosh yorugʻligi tushadigan chuqurlik.
3. Mariana choʻkmasi.
4. Gidrosferadagi hayot chegarasi.

8. Biosferani tashkil etuvchi moddalar

1. Tirik, oʻlik, oraliq, biogen.
2. Kimyoviy, biologik, fizik.
3. **Oʻlik, oraliq, biogen.**
4. Oraliq, biologik, oʻlik.

9. Biosferaning tarkibiy qismlari toʻliq qatorini koʻrsating

1. Neobiosfera, palebiosfera.
2. Terrabiosfera, aerobiosfera.
3. Gidrosfera,
4. Neobiosfera, litosfera.

VI. TABIATNI MUHOFAZA QILISH

1. Ekologik muammo nima.

1. Tabiatning insonga aks ta'siri.
2. Tabiatdagi o'zgarishlar.
3. Koinotni Yer sayyorasiga ta'siri.
4. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi muvozanatning o'zgarishi.

2. O'zbekistondagi eng muhim ekologik muammo?

1. Atmosfera havosining ifloslanishi.
2. Chuchuk suv muammosi.
3. Cho'llanish jarayonining ortib borishi.
4. Orol va Orolbo'yi muammosi.

3. Prezident I. A. Karimovning ekologik muammolarga bag'ishlangan asari:

1. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
2. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
3. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarraqqiyot yo'li.
4. O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li.

4. Ekologik muammolarning xillarini ajrating?

1. Mahalliy, hayotiy, milliy.
2. Mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy.
3. Siyosiy, global, mahalliy
4. Ijtimoiy, mintaqaviy, umumbashariy.

5. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?

1. Jonsiz tabiatning tanazzuliga.
2. Urushlarga.
3. Ekologik tanglik, ekologik halokat, ekologik inqirozga.
4. Organizmlarni muhitlarga moslashishiga.

6. Oqova suvlarni tozalashni qanday usullari mavjud?

1. Mexanik, fizik, biologik, sentrafugalash.
2. Mexanik, fizik, biologik, geologik.
3. Mexanik, fizik-kimyoviy, biologik.
4. Mexanik, fizik, kimyoviy, tarixiy.

7. Qishloq xo‘jaligida begona o‘tlarga qarshi ishlatiladigan modda nomini ayting?

1. Insektitsid.
2. Akaritsid.
3. Gerbitsid.
4. Fungitsid.

8. Pestitsidlar ta’sirida kelib chiqadigan xavfli kasallikni ayting?

1. Vabo kasalligi.
2. Ichburug‘ kasalligi.
3. Sariq kasalligi.
4. Saraton (rak) kasalligi.

9. Ekologik tanglik deganda...

1. Noqulay iqtisodiy oqibatlarining kelib chiqishi tushuniladi.
2. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining nomuvofiqligi tushuniladi.

3. Aholining yalpi nobud bo‘lishi tushuniladi.
4. Ma’lum mintaqada aholi sonining ortishi.

10. “Tabiatni muhofaza qilish” termini dastlab qachon va qayerda tarqaldi?

1. 1913yil, Angliya.
2. 1913-yil, Shveysariya
3. 1949-yil, Angliya.
4. 1970-yil, Germaniya.

11. Tugamaydigan resurslarni ajrating?

1. Suv, havo, tuproq.
2. O‘simlik, hayvon.
3. Yerosti qazilmalari.
4. Havo, okean suvlari, energetik resurslar.

12. Tugaydigan, tiklanmaydigan resurslarni ajrating?

1. Tuproq, suv.
2. Yerosti qazilmalari.
3. Havo, suv.
4. Suv, o‘simlik va hayvonlar.

13. Tugaydigan, tiklanadigan resurslarni ajrating?

1. Suv, havo, energiya.
2. O'simlik va hayvonlar, tuproq.
3. Yerosti qazilmalari.
4. Tuproq, suv, havo.

14 Havoning ifloslanishi odam salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan odam havosiz qancha vaqt yashashi mumkin?

1. 5 min.
2. 10 min
3. 1 soat.
3. 1 hafta.

15. Fotokimyoviy smog (qurum)ga sabab bo'luvchi moddani to'g'ri ko'rsating?

1. Formaldegid.
2. Formalin.
3. Pestitsid.
4. Azot oksidi.

16. Asosiy issiqxona effektini paydo bo'lishiga sababchi gazlar qaysilar?

1. Karbonat angidrid, metan, azot (II)oksidi.
2. Oltingugurt (II) oksidi, is gazi, karbonat angidrid.
3. Oltingugurt (IV) oksidi, kislorod, azot (IV) oksidi.
4. Karbonat angidrid, oltingugurt (II) oksidi, azot (IV) oksidi.

17. Shaharlarda atmosferani ifloslovchi asosiy tarmoq qaysi?

1. Qishloq xo'jaligi.
2. Sanoat.
3. Transport.
4. Kommunal-maishiy.

18. Shaharlarda atmosferani ifloslovchi asosiy gaz qaysi?

1. Uglerod oksidi.
2. Azot oksidi.
3. Oltingugurt qo'sh oksidi.
4. Metan.

19. Tuproqda kechadigan eroziya turlarining to‘liq qatorini aniqlang?

1. Shamol eroziyasi, deflyatsiya.
2. Suv eroziyasi.
3. Antropogen eroziya.
4. Antropogen eroziya, suv eroziyasi, shamol eroziyasi.

20. Sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini pasayishini oldini olish uchun eng muhim tadbirni aniqlang?

1. Suvni tejab ishlatish.
2. Almashlab ekishni kuchaytirish.
3. Mintaqaga xos ekinlarni ekish.
4. Mineral o‘g‘itlarni to‘g‘ri qo‘llash.

21. O‘zbekistonda tuproqlarida eng ko‘p tarqalgan, ifloslovchi birikmalarni ajrating?

1. Radioaktiv birikmalar.
2. Kimyoviy birikmalar.
3. Neft va fenollar.
4. Pestitsidlar.

22. Cho‘llanish qaysi qit‘ada kuchli darajada sodir bo‘lmoqda?

1. Osiyo, Afrika, Avstraliya.
2. Amerika, Yevropa, Avstraliya.
3. Yevropa, Osiyo, Afrika.
4. Hindiston, Antarktida, Afrika.

23. Seysmik ko‘rinish okean tubida paydo bo‘lib, okean yuzasida katta uzunlikdagi gravitatsion to‘lqin hosil qiladi va u “sunami” deyiladi. Bu so‘z qaysi tildan olingan va XXI asrda qaysi mintaqada u ko‘p halokatga olib keldi?

1. Yaponcha, Shimoliy Amerika.
2. Fransuzcha, Janubiy Amerika.
3. Ruscha, Shimoliy Yevropa.
4. Italyanacha, Janubiy Yevropa.

24. O‘zbekiston Respublikasida “Suv haqidagi va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi qonun qachon qabul qilindi?

1. 1993-yil 6-may.
2. 1994-yil 6-may.
3. 1995-yil 26-dekabr.
4. 1996-yil 26-dekabr.

25. O‘zbekiston Respublikasida “Tabiatni muhofaza qilish” haqidagi qonun qachon qabul qilindi?

1. 1993-yil 9-dekabr.
2. 1992-yil 9-dekabr.
3. 1996-yil 9-dekabr.
4. 1996-yil 26-dekabr.

26. Orol dengizidagi suvning sho‘rlanish darajasi qanchaga ortgan?

1. 9–10 g/l dan 34–37 g/l gacha.
2. 9–10 g/l dan 72 g/l gacha.
3. 9–10 g/l dan 100–125 g/l gacha.
4. 9–10 g/l dan 150–200 g/l gacha.

27. Sho‘rlanish deb nimaga aytiladi?

1. Tuproqning yuza qatlamida natriy, magniy, alyuminiy tuzlarining to‘planishi.

2. Tuproqning yuza qatlamida kalsiy, natriy, mis tuzlarining to‘planishi.

3. Tuproqning yuza qatlamida xlor, natriy, magniy tuzlarining to‘planishi.

4. Tuproqning yuza qatlamida natriy, magniy, kalsiy tuzlarining to‘planishi.

28. Tuproq sho‘rlanishi qaysi davlatlarda keng tarqalgan?

1. Misr, Iroq, Hindiston.
2. Hindiston, Tojikiston, Xitoy.
3. Misr, Iroq, Tojikiston.
4. Eron, Iroq, Markaziy Osiyo.

29. Chuchuk suv zahiralari qayerlarda joylashgan?

1. Antarktida, Grenlandiyada.
2. Grenlandiya, qutb orollari.

3. Antarktida, tog‘larda.

4. Antarktida, Grenlandiya, qutb orollari, tog‘larda.

30. Maishiy turmushdagi oqova suvlar, daryo va ko‘l suvlarini qanday kasallik tug‘diruvchilar bilan ifloslanish manbaiga olib keladi?

1. Bakteriyalar.

2. Zamburug‘lar.

3. Viruslar.

4. Bakteriyalar, gelmentlar.

31. O‘zbekistonda suvlarni ifloslovchi asosiy tarmoqni ko‘rsating?

1. Sanoat.

2. Energetika.

3. Kommunal-maishiy.

4. *Qishloq xo‘jaligi.

32. Dunyo o‘simlik va hayvon turlari xilma-xilligini ko‘rsating?

1. O‘simliklar 500 ming, hayvonlar 2 mln.

2. O‘simliklar 550 ming, hayvonlar 1, 6 mln.

3. O‘simliklar 700 ming, hayvonlar 1, 7 mln.

4. O‘simliklar 1 mln., hayvonlar 2 mln.

33. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi davlat boshqaruvini qanday amalga oshiriladi?

1. Prezident, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy hokimiyat.

2. Oliy majlis, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy hokimiyat.

3. Vazirlar Mahkamasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy hokimiyat.

4. Senat, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy hokimiyat.

34. BMT ning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha ikkinchi konferensiyasi qachon va qayerda o‘tkazilgan?

1. 1972-yil, Stokgolm.

2. 1983-yil, Parij.

3. 1992-yil, Rio-de-Janeyro.

4. 2000-yil, Nyu-York.

35. O‘zbekiston Respublikasida “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish” to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilindi?

1. 1993-yil 25-dekabr.
2. 1994-yil 28-dekabr.
3. 1997-yil 26-dekabr.
4. 1998-yil 9-dekabr.

36. O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha o‘simlik turi mavjud?

1. 4500 ga yaqin.
2. 4600 ga yaqin.
3. 4700 ga yaqin.
4. 5000 ga yaqin.

37. O‘zbekiston Respublikasi hududidan Xalqaro “Qizil kitob” ga kirgan hayvonlarni ko‘rsating?

1. Menzbir sug‘uri, Buxoro bug‘usi.
2. Buxoro bug‘usi, tulki.
3. Ilvirs, bo‘ri.
4. Kapcha ilon, mayna.

38. Birinchi Xalqaro “Qizil kitob” qachon yaratilgan?

1. 1966-yil.
2. 1978-yil.
3. 1979-yil.
4. 1983-yil.

39. O‘zbekistonda “Qizil kitob” qachon ta’sis etildi?

1. 1978-yil.
2. 1980-yil.
3. 1983-yil.
4. 1984-yil.

40. O‘zbekiston “Qizil kitobi” ning 2009-yildagi nashrida qancha o‘simlik turi qayd etilgan?

1. 163 ta.
2. 301 ta.
3. 305 ta.
4. 324 ta.

41. O‘lkamiz hududidan qaysi hayvonlar yo‘qolib ketgan?

1. Turon yo‘lbarsi.
2. Qizil bo‘ri.
3. Qoplon, qizil bo‘ri.
4. Turon yo‘lbarsi, qizil bo‘ri.

42. O‘zbekiston Respublikasida “Hayvonot olamini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” gi qonun qachon qabul qilingan?

1. 1992-yil.
2. 1993-yil.
3. 1997-yil.
4. 1998-yil.

43. O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga qancha hayvon turi kiritilgan?

1. 63 ta.
2. 100 ta.
3. 150 ta.
4. 184 ta

44. Qo‘riqxon nima?

1. Inson xo‘jalik faoliyati butunlay ta’qiqlangan hudud.
2. Tabiiy resurslardan qisman foydalaniladigan hudud.
3. Ayrim hayvonlar muhofazaga olingan hudud.
4. Inson xo‘jalik faoliyati hamda ilmiy maqsadda foydalaniladigan hudud.

45. O‘zbekistonda birinchi qo‘riqxona qachon tashkil topgan?

1. 1926-yil.
2. 1928-yil.
3. 1949-yil.
4. 1983-yil.

46. O‘zbekistondagi biosfera qo‘riqxonasini ajrating?

1. Zomin.
2. Nurota.
3. Chotqol.
4. Hisor.

47. Buyurtmaxonani to‘g‘ri ko‘rsating?

1. Qo‘shrabot.
2. Yozyovon.
3. Kitob.
4. Zomin.

48. Qo‘riqxonani to‘g‘ri toping?

1. Baday-to‘qay.
2. Mingbuloq.
3. Oqtog‘.
4. Xubara.

49. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddalarida atrof-muhit masalalari ko‘rilgan?

1. 50, 53, 54.
2. 50, 53, 58.
3. 50, 55, 100.
4. 50, 55, 105.

50. O‘zbekistondagi milliy bog‘ni aniqlang?

1. Dengizko‘l.
2. Chotqol.
3. Sayg‘oqli.
4. Ugom-Chotqol.

51. O‘zbekistonda ekologik ta’limni rivojlantirish istiqbollari Dasturi va Konsepsiyasi qachon qabul qilingan?

1. 2002-yil 15-may.
2. 2003-yil 30-sentabr.
3. 2005-yil 7-noyabr.
4. 2006-yil 10-iyun.

52. Ekologik uzluksiz ta’lim bosqichlari to‘liq qatorini aniqlang.

1. Oila, bog‘cha, maktab, o‘rta maxsus, oliy ta’lim, malaka oshirish, mahalla.
2. Bog‘cha, o‘rta maxsus, mahalla, ishlab chiqarish.
3. Maktabdan tashqari muassasa, malaka oshirish, mahalla.
4. Bog‘cha, institut, mahalla.

53. Tabiat va jamiyatning mutanosib, bir-biriga mos rivojlanishi nima deyiladi?

1. Koevolýusiya.
2. Degressiya.
3. Suksessiya.
4. Konsorsiya.

54. Ozon qatlaminig yemirilish sabablari

1. Xlorftormetan (freonlar) birikmalar.
2. Ultrabinafsha nurlar.
3. Zavod va fabrikalardan chiqadigan uglerod oksidlar.
4. Avtotransportlardan chiqadigan gazlar.

55. Shovqinga ta'rif bering?

1. Musiqaviy xususiyatga ega bo'lmagan yoqimsiz va havfli ovoZ.

2. Korxonalar ovozi.
3. Avtomagistral yo'llaridagi shovqin-suron.
4. Rok, pop musiqalari.

56. Shovqinni o'ta havfli turini ko'rsating.

1. 130 DB dan 200 DB gacha shovqin.
2. 0–50 DB.
3. 60–90 DB.
4. 100–120 DB.

57. Muhitning suniy ifloslanishini to'liq qatorini ko'rsating.

1. Fizik, kimyoviy, biologik, radiatsiya, shovqin.
2. Mexanik, biologik, tabiiy.
3. Kimyoviy, biologik, shovqin.
4. Ultrabinafsha nurlar, radiatsiya.

58. Elektromagnit maydonining ta'siri qaysi omil turi

1. Abiotik omil.
2. Biotik omil.
3. Zoogen.
4. Topografik.

59. “Qizil kitob”ga mansub turlar kategoriyalari

1. Yo‘qolgan, noyob, yo‘qolib borayotgan, kamayib borayotgan turlar.

2. Yo‘qolib borayotgan, kamayib borayotgan, yo‘qolish arafasida turgan turlar.

3. Noyob, yo‘qolib borayotgan turlar.

4. Endem, kamayib borayotgan.

60. O‘zbekistondagi ekologik markaz nomini ko‘rsating

1. ”Jayron”.

2. Baday-to‘qay.

3. Mingbuloq.

4. Zarafshon.

61. Tuproq eroziyasining turlari

1. Suv, shamol, antropogen.

2. Deflyatsiya, normal, tezlashgan.

3. Antropogen, tezlashgan, shamol.

4. Suv, normal, deflyatsiya.

62. Suniy radioaktivlikni keltirib chiqaruvchi omillar

1. Yadro qurollarini sinash, atom elektr stansiyalar, rudalarni qazish.

2. Antropogen, fizik, kimyoviy.

3. Chiqindi, radioaktivlik.

4. Fizik, kimyoviy.

63. Tuproqni ifloslantiruvchi manbalar

1. Qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, maishiy chiqindilar.

2. Sanoat korxonalari, maishiy chiqindilar, yerlarni xaydash.

3. Maishiy chiqindilar, o‘simlik, xayvon qoldiqlari.

4. Neft mahsulotlari, biogen moddalar.

Glossary		
Abiotic environment	Abiotik muhit	Abiotik muhit [yun.a-inkor ma'nosi, <i>bios</i> -hayot] – 1) tirik organizmlarni o'rab turgan notirik jismlardan iborat muhiti; 2) tirik organizmlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari.
Anthropogenous factor	Antropogen omil	Antropogen omil – inson va uning faoliyati tomonidan organizmlarga, biogeotsenoz, landshaft, biosferaga ko'rsatiladigan ta'sir.
Environmental conditions (surrounding humans)	Atrof (insonni qamragan) muhit	Atrof (insonni qamragan) muhit – odamlarga va ularning xo'jaligiga birgalikda va bevosita ta'sir etuvchi abiotik, biotik, ijtimoiy muhitlar majmuasi. A.m. tushunchasi atrof tabiiy muhit tushunchasidan bir muncha kengroqdir, chunki u o'z ichiga ijtimoiy hamda texnogen muhitlarni (uylar, korxonalar, yo'llar va sh.o'.) ham qamrab olgan tushunchalardir.

Supervision	Kuzatuv	Kuzatuv – keyinchalik faoliyat yuritish uchun asos bo'lgan, odatda tadqiqot ishlari davomida ma'lumot olish, shu jumladan monitoring kuzatuv muayyan zarar ko'rgan atrof-muhitdan namuna olishni o'z ichiga oladi va alohida korxonalar, uyushmalar, mahalliy milliy hukumat organlari tomonidan olib borilishi mumkin.
Ecology	Ekologiya	Ekologiya – [yun. Oikos – uy, joy va logos – ta'limot, so'z] – E.Gekkelning ta'rifi shicha, biologiyaning organizmlar bilan muhitning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi bir bo'limi (auto-ekologiya va sin-ekologiya). E. barcha tirik organizmlar va muhitni hayot uchun qulay qiladigan barcha jarayonlarni o'rganadi.

Global pollution	Global ifloslanish	Global ifloslanish – ifloslanish manbayidan juda uzoq masofada, sayyoraning deyarli barcha nuqtalarida ayon bo‘luvchi atrof tabiiy muhitning ifloslanishi. Havo muhitiga xos.
Ecologic approach	Ekologik yondashish	Ekologik yondashish – organizmlarning xususan insonlarning birinchi o‘rinda atrof-muhit bilan bo‘lgan va o‘zaro munosabatlarni tadqiq qilish va ifoda etishga yo‘naltiruvchi umumilmiy qarash.
Ecologic crisis	Ekologik inqiroz	Ekologik inqiroz – inson faoliyati yoki tabiiy omillar (mas. Iqlimning o‘zgarishi) tasiri ostida atrof muhit holatining turg‘un, nisbatan asta sekin qaytarish mumkin bo‘lgan yoki qaytarish mumkin bo‘lmagan ravishda oshishi (strukturasining soddalashishi, energetik yoki ekologik potentsiyalining pasayishi).

Source of pollution	Ifloslantirish manbasi	Ifloslantirish manbasi – 1) ifloslantiruvchi moddani atmosferaga tashlash nuqtasi; 2) ifloslantiruvchi moddani ishlab chiqarayotgan xo‘jalik yoki tabiiy obyektlar (qar.<i>ifloslantiruvchi</i>); 3) kirib kelayotgan ifloslantiruvchi moddani tarqatayotgan hudud.
Adapting	Adaptatsiya	Adaptatsiya (moslashish) [lot. <i>adaptatio</i>- moslashish, ko‘nikish] – tirik organizmlarning muhitning konkret sharoitida barqaror yashab ketishini ta’minlaydigan morfo-fiziologik, populyatsiyaviy va b. xususiyatlarining yig‘indisi. Umumiy A. (keng ko‘lamdagi muhit sharoitlariga ko‘nikish) hamda xususiy A. (muhitning lokal, yoki o‘ziga xos xususiyatli sharoitlariga ko‘nikish) farqlanadi.

Acclimatization	Aklimatizatsiya	Aklimatizatsiya – atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan organizmning fiziologik va xulqiy moslashishi.
Anthropogenous factor	Antropogen omil	Antropogen omil – inson va uning faoliyati tomonidan organizmlarga, biogeotsenoz, landshaft, biosferaga ko'rsatiladigan ta'sir.
Phytocenosis	Fitosenoz	Fitosenoz [yun. Phytos – o'simlik va koinos – umumiy] – yer yuzasining bir turdagi hududini egallagan, muayyan tarkib, tuzilish, bichim hamda o'simliklarning bir-biriga bo'lgani kabi, ularni o'rab turgan muhit bilan munosabatlarni ifodalaydigan (tavsiflaydigan) o'simliklar majmui.

Homeostasis	Comeostaz	Gomeostaz [yun. <i>homios-</i> o'xshash, bir xil, <i>stasis</i> -holat, turg'unlik] – tabiiy tizimning (organizmning) uning asosiy strukturalarining, modda-energetik tarkibining muttasil tiklanib turishi va komponentlarning doimiy funksional o'z-o'zini tartiblash bilan bir me'yorda tutib turiluvchi ichki dinamik muvozanat holati.
“Predator-victim”	“Yirtqich-o'lja”	“Yirtqich-o'lja” (tizim) – yirtqich bilan o'ljani o'zaro bog'liqligi, bunda evolutsion tarzda ikkala tomon ham yutadi: yirtqichlar ozuqa manbasiga ega bo'ladi, o'ljaning esa populyatsiyasi sog'lomlashadi. Y. – o'. tizimi – tabiatning o'zini-o'zi tartibga solish shakllaridan biridir.

<i>Population</i>	Populatsiya	Populatsiya – [fr. <i>Population</i> – aholi] – ma'lum hududni egallagan, uzoq muddat davomida (bir necha o'n avlod davomida) o'zidan ko'payishi orqali nasl-nasabini barqaror saqlab qolishga qodir bo'lgan bir turga mansub zotlar yig'indisi; ma'lum hududni egallagan va umumiy genofondga ega bo'lgan bir turga mansub zotlar yig'indisi.
Biogeocenosis	Biogenotsenoz	– biogenotsenologiyaning asosiy izlanish obyekti. B. -vitasferaning elementar bioxorologik tarkibiy birligidir va shu manoda fatsiya, elementlar landshaft tushunchalarining sinonimidir, garchi oxirlaridan farqli o'laroq, tirik modda tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi. B. tushunchasi

		ekotizim tushunchasiga yaqin, ammo keyingisi aniq bioxorologik asosga ega emasdir.
Biomass	Biomassa	Biomassa [yun. <i>bios</i> -hayot, <i>massa</i> -quyma, palaxsa, parcha] – faol tirik moddaning maydon yoki hajm birligiga nisbatan miqdori; massa birligida ifodalanadi.
Biocenosis	Biotsenoz	Biotsenoz [yun. <i>bios</i> -hayot, <i>koinos</i> -umumiyl] – o‘simliklar, zamburug‘lar, hayvon va mikroorganizmlarning o‘ziga xos tarkibga hamda o‘zaro va atrof-muhit bilan bo‘lgan munosabatlarga ega majmuasi. Atama K. Myobius tomonidan 1877-y. kiritilgan. Odatda, B. bir <i>geotsenoz</i> va bir <i>geotonga</i> tegishligi nazarda tutiladi.

Trophic chain (food chain, feeding chain)	Trofik zanjir (ozuqa zanjiri, oziqlanish zanjiri)	Trofik zanjir (ozuqa zanjiri, oziqlanish zanjiri) [yo'n. trophe – ozuqa] – organizmlarning ekotizmdagi modda va energiya o'zgarishini amalga oshiruvchi o'zaro munosabatlari; ozuqa – istemolchi munosabatlari orqali bir biri bilan bog'liq bo'lgan turlar guruhlari (yani har bir to'plam o'zidan keying to'plam uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladigan zanjir).
Biogenic matter	Biogen modda	Biogen modda – organizmlar hayotiy faoliyati natijasida vujudga kelgan kimyoviy birikma (lekin aynan shu vaqtgacha o'zida ularning jismi tarkibida ham bo'lmashligi mumkin).
Biosphere	Biosfera	Biosfera – [yun. <i>bios</i> -hayot, <i>sphaira</i> -shar] yer qobig'idan (sferalaridan) biri bo'lib, uning tarkibi va energetikasi asosan tirik

		modda faoliyati bilan belgilanadi E. Zyuss tomonidan 1875-y. kiritilgan bu atama V. I. Vernadskiyning ilmiy izlanishlari natijasida yer sayyorasining butun sirtini anglatadigan bo'ldi. B. troposfera, litosfera vagidrosferani o'z ichiga qamrab oladi; qalinligi 30–40 km. sin. <i>Ekosfera</i>.
Biological turnover of matters – (small turnover)	Moddalarning biologik aylanishi (kichik doira)	Moddalarning biologik aylanishi (kichik doira) – kimyoviy elementlarning tuproq va atmosferadan tirik organizmlarga ularning kimyoviy shaklini o'zgartirib kirishi, so'ng tuproq va atmosferaga organizmlarning hayotiy faoliyati jarayonida va keyinchalik o'lganidan keyin qoluvchi qoldiqlar bilan qaytishi, hamda mikroorganizmlar yordamida

		destruksiya jarayonlari va minerallashishdan keyingi yana tirik organizmlarga qaytishi. M.b.a. bunday ta'rifi biogenetik darajaga to'g'ri keladi.
Noosphere	Noosfera	Noosfera [yun. <i>noos</i> – aql] – aql-idrok sferasi. Iboraning zamonaviy talqini 1931-yilda V.I. Vernadskiy tomonidan riosfera evolyutsiyasining bosqichi, uning tarqiyotidagi jamiyatning ongli faoliyatining yetakchi rolini ifodalash uchun kiritilgan.
Reclamation	Rekultivatsiya/ rekulyatsiya	Rekultivatsiya/rekulyatsiya – bo'sh yerlar, ifloslangan sanoat maydonlari va hokazolarni foydalanish xususan uy-joy qurilishi bog'lar yaratish dehqonchilik uchun yaroqli yerlarga aylantirish. Chiqindilar bilan ishlashga nisbatan “reserkulyatsiya” atamasi

		chiqindilarni sohasida qoʻllanadi.	utilizatsiyalash
Quality of natural resource (water, air, soil, etc.)	Tabiiy resurs (suv, havo, tuproq va h.k.) sifati		Tabiiy resurs (suv, havo, tuproq va h.k.) sifati – uning tavsiflarining inson ehtiyojlari yoki texnologik talablarga (resursning tozaligi, unda foydali komponentlarning mavjudligi) mos kelish darajasi.
Natural resources	Tabiiy resurslar (boyliklar)		Tabiiy resurslar (boyliklar) [fr. <i>ressource</i> – vosita, zaxira] – inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan tabiat boyliklari, zaxiralari, manbalari.
Mechanical pollution	Mexanik ifloslanish		Mexanik ifloslanish – ekotizimga unga yot boʻlgan va uning tabiiy faoliyatini izdan chiqaruvchi abiotik loyqalarning olib kirilishi.
Atmosfere	Atmosfera		Atmosfera [yun. <i>atmos</i> -bugʻ va <i>sphere</i> -shar] – yer va boshqa

		fazoviy jismlarning gazsimon qobig'i. Yer yuzasida u asosan azot (78, 08%), kislorod (20, 95%), argon (0, 93%), suv bug'i (0, 2–2, 6%), karbonat angidrid gazidan (0, 03%) tashkil topgan.
Environmental contamination	Atrof-muhitning ifloslanishi	Atrof muhitning ifloslanishi – tavsifi, joylashgan yeri yoki miqdoriga ko'ra atrof muhit holatiga salbiy ta'sir qilayotgan moddaning atrof-muhitda mavjudligi.
Bacteriological contamination	Bakteriologik ifloslanish	Bakteriologik ifloslanish – ekotizimga unga yot bo'lgan organizmlarning chetdan olib kelinishi va ko'payishi. Mikroorganizmlar bilan ifloslanish bakteriologik yoki mikorobiologik ifloslanish ham deyiladi.
Global contamination	Global ifloslanish	Global ifloslanish – ifloslanish manbaidan juda uzoq masofada, sayyoraning deyarli barcha

		nuqtalarida ayon bo'luvchi atrof tabiiy muhitning ifloslanishi. Havo muhitiga xos.
Waste waters municipal	Kommunal oqovalar	Kommunal oqavalar – aholi istiqomat qiladigan joylarda hosil bo'ladigan oqovalar; umumiy kanalizatsiya mavjud bo'lganda maishiy ishlab chiqarish, yog'in-sochin suvlarini o'z ichiga oladi.
Treatment of sewage	Oqava suvlarni tozalash	Oqava suvlarni tozalash – ifloslangan oqava suvlarni mexanik, fizik, kimyoviy va biologik va b. usullar yordamida har xil aralashmalardan tozalash.
Biological treatment of sewage	Oqavalarni biologik usulda tozalash	Oqavalarni biologik usulda tozalash – suv tozalashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri: bunda suv sayoz hovuz va b. suv

		havzalarida organik moddalarni saprobiont mikroorganizmlar yordamida mineralashtirish yo'li bilan tozalanadi. ifloslanish ham deyiladi.
Water consumption	Suv iste'moli	Suv iste'moli – suvdan aholi, sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun uni suv manbalardan ayirib olgan holda foydalanish. Qaytariladigan (olingan suvning yana suv manbasiga qaytishi) va qaytarilmaydigan (bug'lanish, filtratsiya va h.k sarflanadigan) C.I. ajratiladi.
Pesticides	Pestitsidlar	Pestitsidlar [lot.pestis – maraz va <i>ceadre</i> – o'ldirmoq] – o'simlik va hayvonlarning kasallik hamda zararkunandalariga, begona o'tlar,

		don va don mahsulotlari, yog'och, paxta, jun, teri va h.k.larning zararkunandalariga, odamlar va hayvonlar orasida xavfli kasalliklar tarqatuvchilarga qarshi kurashda foydalaniladigan kimyoviy moddalar.
Degradation	Tanazzul	Tanazzul – tizim murakkabligi energetik potensiyali va sig'imining asta sekin, real vaqt masshtabida deyarli orqaga qaytarib bo'lmaydigan darajada kamayishi.
Soil exhaust	Tuproqning kuchsizlanishi	Tuproqning kuchsizlanishi – tuproqdan nooqilona foydalanish yoki tuproq mahsuldorligini pasayishiga olib keluvchi tabiiy rivojlanish jarayoni natijasida tuproq tarkibidagi ozuqa moddalarining kamayib ketishi.

Secondary salinization of soil	Tuproqning sho‘rlanishi	Tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishi – suv rejimini sun’iy o‘zgartirganda suvda oson eruvchan tuzlarning minerallashgan sug‘orish suvlari yoki yerosti suvlari bilan olib kirilib tuproqda yig‘ilishi.
Threatened species	Yo‘qolib borayotgan tur	Yo‘qolib borayotgan tur – yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turgan va agar bu tahditga sabab bo‘layotgan omillar bartaraf qilinmasa, saqlab qolinish imkoniyati bo‘lmaydigan tur yoki boshqa toksonomik birlik.
National park	Milliy bog‘	Milliy bog‘ – tabiiy sharoitlari sezilarli darajada inson tomonidan o‘zgartirilmagan yoki inson faoliyati tarix mobaynida tabiat bilan uyg‘unlashgan keng muhofaza etiladigan hudud.

Monuments of nature	Tabiat yodgorliklari	Tabiat yodgorliklari – noyob yoki mazkur oʻlkagagina xos ilmiy, madaniy-maʼrifiy yoki estetik jihatdan ahamiyatli boʻlgan tabiat obyekti. Odatda kelib chiqishi tabiiy yoki sunʼiy maydoni uncha katta boʻlmagan tabiiy majmualardan yoki alohida obyektlardan iborat boʻladi: juda keksa daraxt, mogʻoralar manzarali (noyob) oʻsimliklar guruhi, ajoyib buloq, sharshara va h.k.
Auto regulation the nature	Tabiatdagi oʻzini-oʻzi tartibga solish	Tabiatdagi oʻzini-oʻzi tartibga solish [yun. autos – oʻzi va lot. regulare – tartiblanish] – tabiatda toʻgʻri va aks aloqalarga asoslangan, dinamik barqarorlik yoki landshaftlarning oʻzini-oʻzi muvofiqlashtirish va oʻzini oʻzi rivojlantirishga olib keladigan oʻzaro munosabatlar tizimi.

Genefund or genetic fund	Genofond yoki genetik fond	Genofond yoki genetik fond [yun. <i>genos</i>-avlod kelib chiqish, va lot.<i>fonus</i>-asos] – individlar guruhi genlari to‘plamidagi nasliy axborot. Ba’zida G. deb barcha tirik organizm turlari majmui tushuniladi.
Dominant	Dominant	Dominant [lot.<i>dominantis</i> – ustun keluvchi] – muayyan hamjamoada miqdor jihatidan, odatda, yaqin shakl har holda ekologik piramidaning yohud o‘simlik tarqalish sathining (yarusining) bir xil turuvchi o‘simliklariga nisbatan ustun keluvchi <i>tur</i>.
Flora	Flora	Flora – muayyan hududni egallagan barcha o‘simlik turlarining tarixan tarkib topgan va rivojlanib

		kelayotgan guruhi. Atama O'simlik to'plami va O'simliklar qoplamalari atamalari bilam bir xil ma'noni anglatadi.
Endemic	Endem	Endem – [yun, endemos mahalliy] – faqat aynan shu mintaqada yashaydigan biologik tur.
Fauna	Fauna	Fauna [lot. fauna – qadimgi Rim mifologiyasida dala va o'rmonlar hukmdori, chorvalar homiysi] – muayyan hududda yashagan (yoki yashashayotgan) barcha hayvon turlarining evolutsiya jarayonida tarixan shakllangan majmuasi. Hayvonot olamining iborasi bilan bir xil ma'noni anglatadi.
Extincting species	Qirilib borayotgan turlar	Qirilib borayotgan turlar – biologik xususiyatlar hozirgi zamon

		tabiiy yoki inson tomonidan o'zgartirilgan yashash sharoitlarga mos kelmaydigan, ularga moslashish qobiliyati esa tugab-bitgan turlar (qar. adaptatsiya). Q.b.t insonning ko'magisiz halokatga mahkum. Odatda Q.b.t qizil kitoblarga kiritiladi; ularga nisbatan maxsus chora tadbirlar ko'riladi. Yana qar. Yo'q bo'lib ketayotgan tur.
Ecological tolerance	Ekologik tolerantlik	Ekologik tolerantlik – organizmning atrof-muhitning salbiy ta'siriga badosh berish qobiliyati.
Areal	Areal	Areal [Lot. <i>area</i> -maydon, makon] – o'rganilayotgan obyektlar yoki hodisalar tarqalgan hudud yoki akvatoriya (turning A. , landshaft tipi A. , antropogen ta'sirning A.)

World natural protection policy	Tabiatni muhofaza qilish Jahon strategiyasi	Tabiatni muhofaza qilish Jahon strategiyasi – YUNEP ko‘magida tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMCX) tomonidan 1980-yilda ishlab chiqilgan xalqaro hujjat bo‘lib, u insoniyatning biosfera, ekotizmlar va turlardan hozirgi avlodga barqaror foyda keltirishi bilan birga, o‘z salohiyatini asrab qolish, kelasi avlodlarning ehtiyoj va intilishlariga muvofiq ravishda foydalanishni boshqarishga yo‘naltirilgan.
Ecologic culture	Ekologik madaniyat	Ekologik madaniyat – atrof muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan, hamda inson faoliyati tasirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanish; E. m. – umuminsoniy madaniyatning moddiy

		va manaviy mehnat mahsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismidir. E. m. taraqqiyoti kasbiy ekologik ta'lim va tarbiya hamda haqqoniy ekologik ma'lumotlarni ommaga yetkazish bilan chambarchas bog'liqdir.
Ecological education	Ekologik ta'lim (ma'lumot)	Ekologik ta'lim (ma'lumot) tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sitematik bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston. 1997-y.
2. Barqaror taraqqiyot talimi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2007, YUNESKO.
3. Begon Michael and others. Ecology : from individuals to eco-systems / UK. 2006. BLACKWELL PUBLISHING. –4th ed. p. 759.
4. Ekologik ta'limdan barqaror rivojlanish ta'limi sari. /A. N. Nigmatovning umumiy tahriri ostida. Qo'llanma. -T., «Talqin» nashriyoti, 2007. -144 b.
5. Ergashev A. “Umumiy ekologiya” T., “O'zbekiston”, 2003-y.
6. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
7. Global Environment Outlook. 2006, UNEP, www.unep.org/Geo2006.
8. Jelvakova N. V, Vebster K. Ekologik ma'lumotdan barqaror rivojlanish ma'lumotigacha. T., 2000-y.
9. Nigmatov A. N., Shivaldova M. S. Iqlim va biz. T., 2011-y.
10. Otaboev Sh., Nabiyeu M. Inson va biosfera. T., “O'qituvchi”, 1995 -y.
11. Peter Rillero, Dinah Zike. Ecology, 2005. The McGraw-Hill Companies, Inc. USA. p. 209.
12. Second nature, www.secondnature.org
13. To'xtayev A. S. “Ekologiya”. T, “O'qituvchi”, 1998-y.
14. Tursunov X. T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. “Saodat RIA”, 1997.
15. United Nations Commission for Sustainable Development, www.un.org/esa/sustdev/.
16. World Health Organization (WHO), www.who.int-home-page
17. Xo'janazarov O'. E., Mirsovurov M., Norbobayeva T. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi. T., Navro'z, 2014.
18. Xo'janazarov O'. E., Muxamedjanova D. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T., TDPU. 2016. -209 b.

19. Вебстер К., Желкова М. А., Кирилов П. Н., Корякина Н. И. От экологического образования к образованию для устойчивого развития. -СПб. : САГА, Наука, 2005. -136 с.

20. Нигматов А. Н., Шивалдова Н. С., Султанов Р. Н. Экология и устойчивое развитие. Пособие для дополнительного образования. Ташкент, 2004. 120 с.

21. Хожиматов К. Х., Хожиматов О. К., Собиров У. А. Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент, Изд-во «Янги аср авлоди». 2009 г. – 172 с.

Mundarija

KIRISH	3
1-MAVZU. Krish. Ekologiya kursi, maqsadi, vazifasi, tusilmasi va tarixi	5
2-MAVZU. Tabiat va jamiat orasidagi munosabatlar	18
3-MAVZU. Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy-nazariy asoslari	22
4-MAVZU. Populyasilar ekologiyasi	43
5-MAVZU. Ekotizimlar ekologiyasi	51
6-MAVZU. Biosfera	73
7-MAVZU. Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish	84
8-MAVZU. Atmosfera va uni muhofazasi	96
9-MAVZU. Suv resursi va uni muhofazasi	105
10-MAVZU. Tuproq resursi	112
11-MAVZU. Muhofazaga olingan hududlar.....	122
12-MAVZU. O‘simlik resursi va uni muhofaza qilish	134
13-MAVZU. Hayvonot dunyosi va uni muhofaza qilish.....	142
14-MAVZU. Tabiatni muhofaza qilishni ta’lim va tarbiyaviy xususiyatlari	148
Glossariy.	179
Foydalanilgan adabiyotlar	202

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

O‘. E. Xo‘janazarov, Sh. Yakubjonova

EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: A.Abduljalilov

Texnik muharrir: Y.O‘rinov

Musahhiha: N.Muhamedova

Sahifalovchi: Y.O‘rinov

Nashriyot litsenziyasi: AI №284, 12.02.2016. Barkamolfayz@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi 27.11.2018. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Bosma tabog‘i 14,5. Nashr hisob tabog‘i 14,5. Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 25

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.